

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FAKULTETI
AXBOROT TIZIMLARI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
KAFEDRASI**

**dotsent, pedagogika fanlari nomzodi
ZARIPOVA GULBAXOR KAMILOVNA**

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

o'quv qo'llanma

Bilim sohasi	300000 - Ijtimoiy fanlar;
Ta'lif sohasi	320000 - Jurnalistika va Axborot;
Ta'lif yo'nalishi	60320100 - Jurnalistika: faoliyat turlari bo'yicha (Bosma OAV jurnalistikasi);
	60320200 - Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar.

**"Durdon" nashriyoti
Buxoro – 2024**

UO‘K 004(075.8)

004(075.8)

Z 39

Zaripova, G.K.

Axborot texnologiyalari [Matn] : o'quv qo'llanma / G.K. Zaripova .- Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024.-156 b.

KBK 004(075.8)

Muallif:

G.K. Zaripova – BuxDU «Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar» kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,

Mas'ul muharrir:

Sh.O.Olimov – BuxDU professori, «Pedagogika» kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori.

Taqrizchilar:

I.I.Bakayev – BuxDU «Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar» kafedrasi dotsenti, Phd;

F.R.Muradova – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot-komminikatsiya tizimlari» kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (Dsc).

O‘quv qo’llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli qaroriga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro‘yxatga olish raqami 194-314.

ISBN 978-9910-04-739-8

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jahon talablari darajasidagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida talabalarga dunyo standartlariga javob beradigan bilim va ko'nikmalar berish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur o'quv qo'llanma — “Axborot texnologiyalari” fani bo'yicha tayyorlangan bo'lib, u **Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar; Ta'lif sohasi: 320000– Jurnalistika va Axborot; Ta'lif yo'naliishi: 60320100 – Jurnalistika: faoliyat turlari bo'yicha (Bosma OAV jurnalistikasi) va 60320200– Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar** talabari uchun mo'ljallangan. Ushbu o'quv qo'llanma “Axborot texnologiyalari” fanini o'qitish bo'yicha uzoq yillardan beri to'plangan boy tajriba hamda rivojlangan horijiy davlatlarning yetakchi Oliy ta'lif muassasalarining tajribalaridan foydalangan holda, shuningdek, ularning o'quv dasturlaridagi asosiy adabiyotlardan foydalangan holda yaratildi. Ushbu o'quv qo'llanmada dastlab o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lif metodlari berilgan bo'lib, so'ogra har bir mavzu bo'yicha materiallar batartib to'liq ochib berilgan. Bunda har bir mavzu bo'yicha maruza matnlari, nazorat savollari, mashqlar, amaliy mashg'ulot materiallari, test savollari va keyslar banki keltirilgan. Ushbu fan Respublikamiz Oliy o'quv yurtlarida hamda turli tashkilot va korxonalarda mavjud bo'lgan zamonaviy kompyuterlardan foydalanishga mo'ljallangan mavzularni o'z ichiga oladi.

1-MAVZU. «AXBOROT TEKNOLOGİYALARI» FANİNİNG PREDMETİ VA VAZİFALARİ.

Tayanch so'z va iboralar: kompyuter, ta'lim, axborot, axborot texnologiyalari, raqamli axborot, o'qitish metodikasi, jarayonlar, kod, kodlash, sintaktik, semantik va pragmatik o'lchovlar.

Reja:

1. «Axborot texnologiyalari» fanining predmeti, maqsadi va tuzilishi.
2. Axborot tushunchasi va uning xossalari.
3. Mutaxassislik sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rni.



Mazkur fanning asosiy maqsadi talabalarga kompyutering texnikaviy, dasturiy (tizimli va amaliy) ta'minotlari va sohaviy masalalarni yechishga qo'llash, masalalarni algoritmlash vositalarining imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha nazariy bilimlar hamda soha masalalarini yechish bo'yicha amaliy foydalanish ko'nikmalarini mukammal shakllantirishdan iboratdir.

Turli xil axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va uzatish usullari va vositalarini o'rganadigan mustaqil fan shakllandi. Bu fan “**Axborot texnologiyalari**” fani deyiladi. Axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va uzatishning asosiy vositasi sifatida hisoblash texnikasi, ya'ni kompyuter xizmat qiladi. Fanni o'rganishda asosiy etibor quyidagilarga qaratilishi lozim: zamonaviy kompyuterlarda erkin ishslash ko'nikmalarini shakllantirish, tegishli sohalarga doir masalalarni kompyuterlarda yechish texnologiyasini o'rganish va qo'llash, zamonaviy matn muharrirlari va jadval protsessorlari asoslarini o'rganish va qo'llash.

Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida axborot muhim o'rinni egallaydi. Banklar, korxonalar va boshqa iqtisodiy sektordagi tashkilotlar, ya'ni soliq tizimi, nodavlat fondlar, sug'urta agentliklari uchun axborotning o'zgarishi juda tez amalga oshadi hamda hajmi tez ortadi. Ular asosida turli tahlillar o'tkazilib, qarorlar qabul qilinadi, vazifalar belgilanadi, taktika va strategiya ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborotlashtirish


konsepsiyasining asosiy maqsadi va unda qo'yilgan masalalar quyidagilardan iborat:

- ❖ milliy axborot – hisoblash tarmog'ini yaratish;
- ❖ axborotlarga mahsulot sifatida yondashishning iqtisodiy, huquqiy va me'yoriy hujjatlarini yuritish;
- ❖ axborotlarni qayta ishslashda jahon standartlariga rioxva qilish;
- ❖ axborot industriyasini yaratish va rivojlantirish;
- ❖ axborot texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- ❖ kompyuter vositalaridan foydalanuvchilarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

Axborot va texnologiya tushunchasi


Axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalaridan biri – bu axborotdir. **Axborot** deganda barcha sezgi organlarimiz orqali qabul qila oladigan ma'lumotlar majmuuni va ularning o'zaro bog'lanish darajasini tushunamiz.

Axborot deganda atrof muhitdan, (tabiatdan yoki jamiyatdan) sezgi a'zolarimiz (ko'z, qulqoq, burun, og'iz, teri) orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma'lumotni tushunamiz (qarang: 1.1(a, b, c, d)-rasm).



1.1(a)- rasm. Axborotni inson tomonidan qabul qilinishi


**Inson o'zini tevarak-atrofdagi dunyoni sezgilar: teri
sezgisi, ko'rish, eshitish, hid bilish va ta'm
yordamida idrok etadi**



**Atrofimizdagи dunyo haqidagi
ma'lumotlar axborot deyiladi**



1.1(b)- rasm. Axborotni inson tomonidan qabul qilinishi



1.1(c) -rasm. Axborotni inson tomonidan qabul qilinishi



1.1(d) -rasm. Axborotni inson tomonidan qabul qilinishi

Tabiatni kuzatib, insonlar bilan muloqatda bo'lib, kitob va gazetalar o'qib, televizion ko'rsatuvalar ko'rib biz axborot olamiz.

Masalan, ko'chada ketayotganimizda ko'zimiz orqali axborot yig'amiz. Ko'zning nerv hujayralarida yig'ilgan axborot murakkab ravishda almashinadi va bosh miyaning ko'rish bo'limlariga uzatiladi. Bu erda axborotga navbatdagi ishlov beriladi va ishlov natijasidan shu zahotiyoy foydalilaniladi. Muskullarimizga signallar (axborotlar) yuboriladi. Buning natijasida biz svetofor chirog'iga qarab yo'ldan o'tishimiz, yoki to'xtashimiz mumkin. Demak axborotni qabul qilish, yig'ish, ishlov berish, saqlash va uzatish mumkin ekan.

Axborotni 90% dan ortig'ini ko'rish va eshitish orqali qabul qilamiz. Masalan, biologiya darsida o'simliklarni o'rganamiz, ya'ni o'simliklarni hayoti haqida axborot olamiz. Biror-bir issiq predmetga qo'limiz tegib ketsa, darhol qo'limizni tortib olamiz. Bu vaziyatda bosh miyamiz mazkur predmetning yuqori temperaturaga ega ekanligi haqida axborot oladi. Avtobusda ketayotsak matorning shovqinini eshitamiz. Shovqin biz uchun odatiy xol, lekin tajribali shofer uchun esa bu – axborot. U ushbu axborotni eshitish orqali avtobus motorini texnik holatini hamda ishlash sifatini aniqlashi mumkin.

Axborot obyektlar, hodisalar, jarayonlar haqidagi xabarlar to'plamidir.

Axborotlar turli-tuman ko'rinishda bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- matnli axborot;
- grafikli axborot;
- tovushli axborot;
- videolavhali axborot;

- belgili axborot;
- raqamli axborot.

Inson sezish a'zolari, texnikada turli asboblar va xokazolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari **ma'lumotlar** deb ataladi. Ma'lumotlar aniq vazifalarni hal etishda zarur va foydali deb topilsa – **axborotga** aylanadi. Demak ma'lumotlarga u, yoki bu sabablarga ko'ra foydalanilayotgan, yoki texnik vositalarda qayta ishlanilayotgan, saqlanayotgan, uzatilayotgan belgilari, yoki yozib olingan kuzatuvlari sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotlardan biror narsa to'g'risidagi mavxumlikni kamaytirish uchun foydalanish imkoniyati tug'ilsa, ma'lumotlar axborotga aylanadi. Demak amaliyotda foydali deb topilgan, ya'ni foydalanuvchining bilimlarini oshirgan ma'lumotlarnigina axborot deb atasa bo'ladi.

Inson o'z hayotida tug'ilgan kunidan boshlab doimo ma'lumotlar bilan ish ko'radi. Ularni o'zining sezgi a'zolari orqali qabul qiladi. Informatika uchun axborotni qabul qilish, saqlash, unga ishlov berish va uzatishda axborot texnologiyalari vositalaridan qanday foydalanish kerakligi muammosi eng asosiy bo'lgani uchun, axborotlarni tasnifi ham o'ziga xosdir. Jumladan, informatikada analog (uzluksiz) va raqamli (diskret) axborotlar ishlataladi. Inson sezgi a'zolari analog (uzluksiz) axborot bilan ish ko'rishga moslashgan bo'lsa, hisoblash texnikasi esa raqamli (diskret) axborot bilan ishlaydi.

Matematik olim axborotni yanada kengroq tushunadi. U axborot qatoriga fikr yuritish orqali xulosa chiqarish natijasida hosil bo'lgan bilimlarni ham kiritadi. Boshqa soha xodimlari ham axborotni o'zlaricha talqin etadilar. Shunday qilib, turli sohalarda axborot turlicha tushunilar ekan. Lekin axborotlarning umumiyligi tomonlari ham borki, u ham bo'lsa beshta muhim xossaga ega bo'lishlidir. Bular axborotni yaratish, qabul qilish, saqlash, ishlov berish va uzatish xossalardir.

Axborotdan foydalanish imkoniyati va samaradorligi uning mazmundorligi, yetarliligi, aktualligi, o'z vaqtidaligi, aniqligi, ishonarliligi, barqarorligi kabi asosiy iste'mol sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liqidir:

a) axborotning reprezentativligi – obyekt xususiyatini adekvat ifoda etish maqsadlarida uni to'g'ri tanlash va shakllantirish bilan bog'liqidir;

b) axborotning mazmundorligi – semantik (mazmuniy) hajmini ifoda etadi;

c) axborotning yetarliligi (to'laligi) – qaror qabul qilish uchun minimal, lekin yetarli tarkibga (ko'rsatkichlar jamlamasiga) ega ekanligini bildiradi. To'g'ri qaror qabul qilish uchun to'liq bo'lмаган, ya'ni yetarli bo'lмаган, xuddi shuningdek, ortiqcha bo'lган axborot ham foydalanuvchining qabul qilgan qarorlari samaradorligini kamaytiradi;

d) axborotning aktualligi (dolzarbligi) – axborotdan foydalanish vaqtida uning boshqarish uchun qimmatliligi saqlanib qolishi bilan belgilanadi va uning xususiyatlari o'zgarishi dinamikasi hamda ushbu axborot paydo bo'lган vaqtidan buyon o'tgan vaqt oralig'iga bog'liq bo'ladi;

e) axborotning o'z vaqtidaligi – uning avvaldan belgilab qo'yilgan vazifani hal etish vaqt bilan kelishilgan vaqtdan kechiqmasdan olinganligini bildiradi;

f) axborotning aniqligi – olinayotgan axborotning ob'yekt, jarayon, hodisa va hokazolarning real holatiga yaqinligi darajasi bilan belgilanadi;

j) axborotning ishonarliligi – axborotning real mavjud ob'yektlarni zarur aniqlik bilan ifoda etish xususiyati bilan belgilanadi;

z) axborotning barqarorligi – axborotning asos qilib olingan ma'lumotlar aniqligini buzmasdan o'zgarishlarga ta'sir qilishga qodirligini aks ettiradi.

Texnologiya (yunoncha-techne) so'zidan olingan bo'lib, mohirlik, ustalik, san'at, yoki bir ishni uddalay olish demakdir, bu esa jarayondan boshqa narsa emas. Bu aniq bir jarayonga nisbatan qo'llaniladi. Jarayonlar esa odamlar tomonidan tanlangan va belgilangan strategiya asosida va turli vositalarni, usullarni qo'llab amalga oshiriladi.

Axborot texnologiyasi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar («Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonun, 2-modda). Bundan tashqari axborot texnologiyalariga turli manbalarda turlicha ta'riflab keltirilgan:

1) Ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish, va ulardan foydalanish jarayonida hisoblash texnikasidan foydalanish yo'llari, usullari va uslublari.

2) Hujjatlashtirilgan axborot, jumladan dasturli vositalarga ishlov berishning jami uslublari, yo'llari, usullari va vositalari hamda ulardan foydalanishning belgilangan tartibi.

3) Inson faoliyatining turli sohalarida axborot mahsulotini ishlab chiqarishda axborot jarayonlarini amalga oshirishning jami usullari;

Keng ma'noda axborot texnologiyasi misolida idora cho'tidan foydalanish va kitoblarni bosib chiqarishni ko'rsatish mumkin. Tor ma'noda «axborot texnologiyasi» atamasi axborotga ishlov berish uchun ushbu axborotdan foydalanuvchi jarayonlarning sermehnatligini kamaytirish va ularning ishonchlilagini va tezkorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnikalardan optimal foydalanish bilan bog'liqdir.

Moddiy ishlab chiqarish texnologiyalarining maqsadi – inson, yoki tizim ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishdir.

Axborot texnologiyalarining maqsadi – inson tahlil qilishi uchun axborotni ishlab chiqarish va uning asosida biror bir xatti-harakatni bajarish bo'yicha qaror qabul qilishdir.

Axborot texnologiyasi – obyekt – jarayon, yoki hodisa (axborot mahsuloti)ning holati haqidagi yangi sifat axborotini olish uchun ma'lumotlar (boshlang'ich axboroti)ni toplash, qayta ishlash va uzatishning vosita va uslublari jamlanmasidan foydalanuvchi jarayondir.

Telekommunikatsiyalar – signallar, belgilar, matnlar, tasvirlar, tovushlar, yoki axborotning boshqa turlarini o'tkazgichli, radio, optik, yoki boshqa elektromagnit tizimlaridan foydalangan holda uzatish, qabul qilish, qayta ishlash;

Telekommunikatsiyalar tarmog'i – uzatishlarning bip, yoki bir necha turini: telefon, telegraf, faksimil turlarini, ma'lumotlar uzatish va hujjatli xabarlarning boshqa turlarini, televizion va radioeshittirish dasturlarini translyasiya qilishni ta'minlovchi telekommunikatsiya vositalarining majmui;

Telekommunikatsiya vositalari – elektromagnit, yoki optik signallarni hosil qilish, uzatish, qabul qilish, qayta ishlash, kommutasiya qilish hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi texnik qurilmalar, asbob-uskunalar, inshootlar va tizimlar;

Telekommunikatsiyalar xizmatlari – operator va provayderning signallar hamda boshqa axborot turlarini telekommunikatsiya tarmoqlari orqali qabul qilish, uzatish, qayta ishlashga doir faoliyati

mahsuli;

Axborotli texnologiya tizim sifatida boshqarish subyektida shakllanadi. Shu sababli ham axborot texnologiyasi boshqarish subyektining ustqurmasi hisoblanadi. Axborotli texnologiyaning shakllanishi uchun quyidagi unsurlarning bo'lishi shart:

- 1. Mutaxassislar;**
- 2. Texnik vositalar;**
- 3. Axborot resurslari va axborotlar.**

Shuning uchun ham axborotli texnologiya boshqarish funksiyalarini ifodalovchi axborotlarni yig'ish, jamlash, uzatish, saqlash va boshqa jarayonlarni amalga oshiruvchi "**inson mashina tizimi**" deb yuritiladi. Bu tizimni yaratish uchun bir qator tamoyillar ishlab chiqilgan – **axborotli texnologiyani yaratish tamoyillarini** umumiy holda to'rt qismga ajratish mumkin:

- **Iqtisodiy-tashkiliy tamoyillar;**
- **Texnikaviy tamoyillar;**
- **Iqtisodiy tamoyillar;**
- **Ijtimoiy tamoyillar.**

Yuqorida keltirilgan qismlar ichida **iqtisodiy-tashkiliy tamoyillar** asosiy o'rinni egallaydi va bu qism tarkibiga quyidagi tamoyillarni kiritish mumkin:

- 1. Tizimli yondashish.**
- 2. Uzluksiz rivojlanish.**
- 3. Yagona raxbarlik.**
- 4. Yangi masalalarni yechish.**
- 5. Uzaro aloqadorlik.**
- 6. Ma'lumotlardan ko'p marta foydalanish.**


Axborot texnologiyalari va ularning turlari. Ma'lumki, turli texnologiyalarni moddiy zaxiralarga qo'llay borib, turli mahsulotlarni olish mumkin. Mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun texnologiya komponentlari (qarang: 1.1- jadval)

1.1- jadval: Moddiy zaxiralar va Axborot zaxiralarini

Moddiy	Axborot
Xom-ashyo va materiallarni tayyorlash	Ma'lumotlar, yoki boshlang'ich axborotni yig'ish
Moddiy mahsulotni ishlab chiqarish	Ma'lumotlarni qayta ishlash va sernatija axborot olish

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchilarga sotish	Sernatija axborotni uning asosida qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchiga uzatish
--	---

Axborot texnologiyalari jamiyat axborot zaxiralaridan foydalanishning eng muhim jarayonlaridan biridir (qarang: 1.2- rasm).




1.2-rasm. Axborot texnologiyasi moddiy zaxiralarni qayta ishlash texnologiyasi analogi sifatida

Hozirgi paytga kelib, u bir necha evolyutsion bosqichlarni bosib o'tdi, ulardan har birining almashinushi asosan fan-texnika rivojlanishi, axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Hozirgi jamiyatda axborotni qayta ishlash texnologiyalarining asosiy texnik vositasi bo'lib shaxsiy kompyuter xizmat qilyapti, u texnologik jarayonlar konsepsiyasini ko'rish va undan foydalanishga ham, sernatija axborot tizimiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy kompyutering axborot sohasiga tadbiq etilishi va aloqaning telekommunikatsiya vositalarida qo'llanilishi axborot texnologiyalari rivojlanishida, buning natijasida «yangi», «kompyuterli», yoki «zamonaviy» sinonimlaridan birini qo'shish hisobiga nomining o'zgarishida yangi bosqichni belgilab berdi. 1.3-rasmida ajratib ko'rsatilgan narsa malum ma'noda shartlidir, chunki bu ZATlardan ko'pi axborotning boshqa turlarini ham qo'llab-quvvatlashga imkon beradi.

Jumladan, matnli prosessorlarda sodda hisob-kitoblarni bajarish imkoniyati ko'zda tutilgan, jadvalli prosessorlar nafaqat raqamli, balki matnli axborotni ham qayta ishlashi mumkin, shuningdek grafika generasiyasining maxsus apparatiga ega. Biroq har bitta bunday texnologiyalar bari bir ko'p jihatdan muayyan turdag'i axborotni qayta ishlashga mo'ljalangan. Zamonaviy sifatida bu texnologiyaning evolyutsion xususiyatini emas, balki novatorlik jihatni ta'kidlanadi. Uni qo'llash shu ma'noda novatorlik ishidirki, u tashkilotlarda xilma-xil faoliyat turlari, mazmunini muhim darajada o'zgartiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari tushunchasiga, shuningdek,

kommunikatsiyaviy texnologiyalar ham kirdi, ular axborotni turli vositalar, aynan telefon, telegraf, telekommunikatsiyalar, faks va boshqalar orqali uzatishni ta'minlaydi.



1.3-rasm. Qayta ishlanadigan axborot tipiga bog'liq holdagi ZAT tasnifi

Axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari.

Shaxsiy kompyuterning yaratilishi bilan axborot texnologiyasining taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Yangi davrning asosiy maqsadi kasbiy va maishiy xizmat sohalarida insonning shaxsiy axborot talabini qondirish bo'lib bormoqda.

Axborotni qayta ishslash vazifalari va jarayonlarining ko'rinishi bo'yicha

1–bosqich (1960-70 yillar) – ma'lumotlarni qayta ishslash hisoblash markazlarida (jamoa bo'lib ishslash tartibida) amalga oshirilgan. Axborot texnologiyasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishi insonning qo'l mehnatini avtomatlashtirishdan iborat edi.

2–bosqich (1980 –yillar) dan strategik vazifalarni yechish uchun axborot texnologiyalari yaratildi.

Jamiyatni axborotlashtirish yo'lidagi muammolar bo'yicha:

1–bosqich (1960-yillar oxirlarigacha) apparat vositalari imkoniyatlari cheklangan sharoitlarda katta hajmlardagi ma'lumotlarni

qayta ishslash muammosi bilan ajralib turadi.

2-bosqich (1970-yillar oxirlarigacha) IBM 360 turkumidagi EHM yaratilishi bilan bog'liq. Bu bosqich muammosi –dasturiy ta'minotining apparat vositalari rivojlanishi darajasida orqada qolishidir.

3-bosqich (1980-yillar boshlari) kompyuter malakasi bo'lмаган foydalanuvchining quroli bo'lib qoldi. Axborot tizimlari esa foydalanuvchining qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida ishlatilmoqda. Bu bosqichda foydalanuvchi ehtiyojlarini yuqori darajasida qondirish va kompyuter muhitida ishlovchi tegishli interfeysni yaratish muammolari mavjud.

4-bosqich (1990–yillar boshlaridan) – tashkilotlarda aloqalar va axborot tizimlari zamонавиу texnologiyalarini yaratish.

Bu bosqichda muammolar juda ko'p. Ulardan muhimlari quyidagilardir:

- kompyuter aloqasi uchun kelishuvlari ishlab chiqish va standartlar, protokollarni o'rnatish;
- strategik axborotga kirishni tashkil etish;
- axborotni muhofaza qilish va xavfsizligini ta'minlash;

Kompyuter texnologiyasining afzalliklari bo'yicha:

1-bosqich (1960-yillar boshidan) hisoblash markazlari zaxiralaridan markazlashgan tarzda foydalanishga yo'naltirilgan qo'l mehnati amallarini bajarishda axborotni ancha samarali qayta ishslash bilan ajralib turadi.

2-bosqich (1970-yillar o'rtalaridan) shaxsiy kompyutering paydo bo'lishi bilan bog'liq.

3-bosqich (1990-yillar boshlaridan) tijoratda strategik afzalliklar tahlili tushunchasi bilan bog'liq va axborotni taqsimlovchi qayta ishslash telekommunikatsiya texnologiyalari yutuqlariga asoslangan.

Axborot texnologiyalarining turlari:

1. Videotexnologiya – ma'lumotlarni turli tasvirlash ko'rinishida ifodalaydi.

2. Multimedia texnologiya – ixtiyoriy ma'lumotlarni kompleks ko'rinishda tasvirlashga asoslangan. Bu texnologiya matnlar, grafiklar, chizmalar, tasvirlar, tovushlar va harakatlarni yagona bir tizimga birlashtirib namoish etadi.

3. Neyrokompyuterli texnologiyalar – mikroprosessorlar bazasida bir-biriga o'zaro bog'langan maxsus neyrokomponentalardan foydalanadi. Bu texnologiya asab katakchalarining xatti-harakatlarini modellashtirishga asoslangan. Neyrotexnologiyalar murakkab

masalalarni yechishda sun'iy intellekt metodlarini qullashga tayanadi: kredit tavakkalchiliklarini boshqarish, bilimlarni aniqlash, fondlar holatini bashoratlash va boshqalar.

4. Obyektga yo'naltirilgan texnologiya – bir nechta obyektlarning hamkorlikda ishlashini ta'minlaydi va loyihalash va dasturlash jarayonlarida kompyuter tizimlarini tuzishda qo'llaniladi. Bu yerda obyektlar sifatida foydalanuvchilar, dasturlar, mijozlar, hujjatlar, fayllar, jadvallar va ma'lumotlar bazalarini kiritilish mumkin. Obyektga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish natijasida boshqaruv tizimida o'ta tezkor samarali qarorlarni qabul qilishga olib keladi.

5. Bilimlarni boshqarish texnologiyasi – ekspert tizimlarini misol qilib keltirish mumkin.

6. Internet texnologiya – barcha axborot tizimlarini global axborot strukturasiga birlashtirish texnologiyasi.

Bundan tashqari vazifalariga qarab ham axborot texnologiyalarini bir nechta turlarga ajratish mumkin:

1. Ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari. Ular ma'lum algoritmlar bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarga ishlov beruvchi masalalarni yechishga mo'ljallangan. Masalan, har bir firmada o'zining xodimlari haqidagi axborotga ishlov beruvchi axborot texnologiyasi albatta bo'lishi kerak.

2. Boshqarishning axborot texnologiyalari. Ularning maqsadi ish faoliyati qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan insonlarning axborotga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Boshqarishning axborot tizimlari tashkilotning o'tmishi, hozirgi holati va kelajagi haqidagi axborotni ham o'z ichiga oladi.

3. Ofissning (idoraning) axborot texnologiyasi. Avtomatlashtirilgan ofisning yangi zamonaviy axborot texnologiyalari bu – tashkilot ichidagi va tashqi muhit bilan kommunikasion jarayonlarni kompyuter tarmoqlari va axborotlar bilan ishlovchi boshqa yangi zamonaviy vositalar asosida tashkil etish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Buning uchun maxsus dasturiy vositalar ham ishlab chiqilgan. Ulardan biri Microsoft Office dasturlar paketidir. Uning tarkibiga Microsoft Word matn muharriri, Microsoft Excel elektron jadvali, Microsoft Power Point taqdimot uchun grafikani tayyorlash dasturi, Microsoft Access ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari kiradi. Hozirgi paytdagi kompyuterlar uchun ko'plab dasturiy vositalar mavjudki, ular barcha turdag'i axborot texnologiyalarini

ta'minlay oladi. Ularning ayrimlari bilan qiskacha tanishib chiqamiz.

Ma'lumotlar bazasi. Ular axborot texnologiyasining majburiy komponenti ma'lumotlar bazasidir (MB). Avtomatlashtirilgan ofisda MB firmaning ishlab chiqarish tizimi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

Matn prosessori. Bu matnli hujjatlarni tashkil etish va ularga ishlov berishga mo'ljallangan dasturiy vosita turidir. Masalan, matn muharririda tayyorlangan xat va hujjatlarni doimiy ravishda qabul qilish, menedjerga firmadagi holatni doimo nazorati ostida tutishga yordam beradi.

Elektron pochta (Ye-mail) — kompyuterlardan tarmoqda foydalanishga asoslangan bo'lib, hamkor (partnyor)larga ma'lumotlar jo'natish yoki ulardan ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi.

Audio pochta — bu ma'lumotlarni klaviatura yordamida emas, balki tovush orqali uzatuychi pochtadir.

Axborot texnologiyalarining ta'minoti

Axborot texnologiyasi axborot tizimlari bilan mukammal bog'langan bo'lib, ular uchun axborot texnologiyasi asosiy muhit hisoblanadi. Bir qaraganda axborot texnologiyasi va tizimi tushunchasi bir-biriga o'xshash ko'rindi, aslida esa bunday emas.

Axborot texnologiyasi kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotlar ustidan tartiblashgan qoidalar asosida amal harakat va bosqichlarni bajarish jarayonidir. Axborot texnologiyasining asosiy maqsadi birlamchi axborotni maqsadga yo'naltirilgan harakat natijasida qayta ishslash yo'li bilan foydalanuvchiga kerakli axborotni berishdir. Axborot tizimi kompyuterlar, kompyuterlar tarmog'i, dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazasi, insonlar, turli texnik va dasturiy aloqa vositalari hamda boshqa qurilmalardan tashkil topgan muhitlar. Axborot tizimining asosiy maqsadi – axborotni saqlash va uzatishdan iboratdir. Axborot tizimi axborotni qayta ishslash inson – kompyuter tizimidir. Axborot tizimining vazifalarini amalga oshirish uchun shu tizimga oid axborot texnologiyasi bilimlarini o'rganish talab qilinadi. Axborot texnologiyalari bilan axborot tizimlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Axborot texnologiyalari axborot tizimlarining tuzilmasida asosiy tarkibiy qismi va uni tashkil etuvchi bir elementi sifatida namoyon bo'ladi. Axborot texnologiyasi axborot tizimining muhitidan tashqarida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ammo u mukammal texnologiya bo'la olmaydi, ya'ni zarurat

tug'ilganda axborot tizimiga murojaatni amalga oshiradi.

Axborotli texnologiya tizim sifatida ikki qismdan tashkil topadi:

- a) ta'minlovchi qism;
- b) funksional qism.

Ta'minlovchi qism tarkibiga kirgan quyi tizimlar axborotli texnologiyaning faoliyatini belgilaydi va miqdoriy jihatdan qat'iy belgilanadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Tashkiliy ta'minot.
2. Axborot ta'minoti.
3. Matematik va dasturiy ta'minot.
4. Texnologik ta'minot.
5. Lingvistik ta'minot.
6. Ergonomik ta'minot.
7. Huquqiy ta'minot.
8. Texnik ta'minot.
9. Mutaxassislik ta'minoti.

1. **Tashkiliy ta'minotning** asosiy vazifasi boshqarish subyektida axborotli texnologiyani tashkil qilish maqsadga muvofiq, yoki muvofiqmasligi to'g'risida qarorni ishlab chiqishga qaratilgan.

2. **Axborot ta'minoti** boshqarish subyekti faoliyatida xizmat qiluvchi barcha ma'lumotlarning to'plamidan tashkil topadi.

3. **Matematik va dasturiy ta'minot** boshqarish subyekti masalalarining yechilish yo'llarini ifodalaydi va tegishli dasturlardan iborat bo'ladi.

4. **Texnologik ta'minot** to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarining boshqarish usullarini ifodalaydi.

5. **Lingvistik ta'minot** axborotlarni ifodalashdagi tegishli belgi va algoritmik tillardan tashkil topadi.

6. **Ergonomik ta'minot** axborotli texnologiya unsurlarining faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratadi.

7. **Huquqiy ta'minot** boshqarish subyekti va xodimlarning burchlari, majburiyat va huquqlarini belgilaydi.

8. **Texnik ta'minot** avtomatlarni qayta ishlash jarayonlariga mos holda tegishli vositalar bilan ta'minlashni ifodalaydi.

9. **Mutaxassislik ta'minoti** axborotli texnologiya tizimlarini bilan ta'minlanadi.

Axborotli texnologiyaning **funksional qismi** u faoliyat ko'rsatayotgan sohaning mohiyatiga bog'liq bo'lib, yechilayotgan masalalar to'plami orqali tashkil qilinadi.

Funksional qism tarkibiga kirgan quyi tizimlar miqdoriy jihatdan qat’iy belgilanmagan va umumiy holda boshqarish funksiyalari asosida tashkil qilinadi. Umumiy holda savdo sohasida quyidagi funksional tizimlar mavjud:

- ❖ tovar aylanishini boshqarish;
- ❖ tovar harakatini boshqarish;
- ❖ talab va taklifni boshqarish;
- ❖ buxgalteriya hisobi;
- ❖ ish haqi va mehnatni boshqarish;
- ❖ moddiy texnika ta’motini boshqarish;
- ❖ kapital qurilishini boshqarish.

Mutaxassislarni boshqarish va boshqalar.

Ayniqsa korxona va tashkilotlarni boshqarish jarayonlarida axborot tizimlari va texnologiyalarining yakdilligi yaxshi samara beradi.

Boshqaruvning axborot texnologiyasi maqsadi firmadagi qarorlar qabul qilish bilan aloqador bo‘lgan hech bir istisnosiz barcha xodimlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirishdan iboratdir. U boshqaruvning barcha darajalarida foydali bo‘lishi mumkin. Bu texnologiya boshqaruvning axborot tizimi muhitida ishlashga mo‘ljallangan va hal qilinadigan masalalar, agar ularni ma’lumotlarga ishlov berishning axborot texnologiyasi yordamida hal qilinadigan masalalar bilan qiyoslaganda, juda yomon tuzilgan hollarda foydalaniadi.

Boshqaruvning axborot tizimi turli funksional kichik tizimlar (bo‘linmalar), yoki firmanın boshqaruva darajaları xodimlarning axborotga bo‘lgan o‘xshash ehtiyojlarini qondirish uchun juda to‘g‘ri keladi. Ular yetkazib beradigan axborot firmanın o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu axborot doimiy, yoki maxsus boshqaruva hisobotlari shakliga ega bo‘ladi.

Zamonaviy axborot texnologiya vositalari. Axborot texnologiyalarining komponentalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Apparatli komponentalar.

2. Dasturiy komponentalari.

Kompyuter – axborotlarga ishlov berishning universal qurilmasi.

Printer – kompyuter ekrani, yoki xotirasidagi ma’lumotlarni qog’ozlarga nusxalovchi qurilma.

Proyektor – kompyuter xotirasidagi ma'lumotlarni katta ekranga taqdim qiluvchi qurilma.

Plotter – grafikli ma'lumotlarni qog'ozlar va banerlarga pechatlash qurilmasi.

Telekommunikasion blok – ma'lumotlar almashishni ta'minlovchi blok.

Ma'lumotlarni kiritish va ekranni boshqarish qurilmalari (klaviatura, manipulyatorlar).

Yozish qurilmalari (raqamli fotoapparat, raqamli kamera, skaner, web kamera).

Elektron doska – masofadan o'qitish uchun qo'llaniladigan hozirda ommaviy lashayotgan texnik qurilma.

Kompyuter tarmog'i – kompyuterlarning o'zaro turli ma'lumotlar, programmalar almashish maqsadida biriktirilishi.

Server – tarmoqqa ulangan va undan foydalanuvchilarga ma'lum xizmatlar ko'rsatuvchi kompyuter, yoki maxsus dastur.

Ishchi stansiya – tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuter, foydalanuvchi shu orqali axborot resurslariga kirib boradi.

Ma'lumotlarni qayd qilish qurilmalari va boshqalar. **Dasturiy komponentalar.** Tizimli va xizmatchi dasturiy komponentalar – apparatli komponentalarni bog'lash va ishlatalish vazifalarini bajaradi, bular:

1. Axborotli manbalar (ensiklapediyalar, uslubiy ko'rsatmalar, axborot saytlari va qidiruv tizimlari).
2. Virtual konstruktorlar.
3. Trenajyorlar.
4. Kompleks o'rgatuvchi paketlar.

Nazorat savollari:

1. Texnologiya tushunchasi nima?
2. Axborot texnologiyalari tushunchasini gapirib bering?
3. Axborot texnologiyalarining turlari?
4. Axborot texnologiyalarining komponentalari?
5. Axborot texnologiyalari bilan axborot tizimlarining o'zaro bog'liqliklari.
6. Axborot texnologiyalarining taraqqiyot bosqichlari.

2-MAVZU. HISOBBLASH VOSITALARINING RIVOJLANISH TARIXI.

Tayanch iboralar: *apparat ta'minot (hardware), dasturiy ta'minot (software), interfeys, dasturiy interfeys, apparat — dasturiy interfeys, foydalanuvchi interfeysi, sistemaviy dasturiy ta'minot; amaliy dasturiy ta'minot; dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari, sistemaviy dasturiy ta'minot (sistem software), tizimli, uskunaviy va amaliy dasturlar; utilita – xizmatchi dastur; operatsion tizimlar; dasturiy qobiq; translyator; kompilyator; interpretator; dasturlash tillari.*

Reja:

- 1. Ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanish.**
- 2. Hisoblash texnikasining rivojlanish tarixi.**
- 3. Kompyuter texnikasini turli klassifikatsiyasi.**

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir.

Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, *ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi*. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Jarayonlar – bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum harakatlar majmuasidir. Ayni paytda axborot texnologiyasi haqida fikr yuritganda «yangi», «kommunikatsion», yoki «zamonaviy» so'zlarini ko'shib ishlataladi. Zamonaviy axborot texnologiyasi (AT) – bu zamonaviykompyuterlar va telekomunikatsion vositalaridan foydalanadigan, foydalanuvchi ishlashi uchun «do'stona» interfeysiga ega bo'lgan axborot texnologiya demakdir.

«Axborot texnologiyalari – axborot resurslari bilan ishlashning

usullari va vositalari, o'rganilayotgan obyekt haqidagi yangi axborotni olish uchun a'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish usullari haqida ma'lumot to'plami».

Axborot texnologiyalari – ma'lumot bilan ishlash uchun maxsus usullar, dasturiy ta'minot va apparat (kino, audio va video asboblar, kompyuterlar) dan foydalanadigan pedagogik texnologiya.

Ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanish – (yangi axborot texnologiyalarini joriy etish) o'quv jarayonini jadallashtirish, uni optimallashtirish, o'quvchilarni mavzuga qiziqishlarini oshirish, taraqqiyotga oid ta'lim g'oyalarni hayotga tatbiq etish, darslik tezligini oshirish, mustaqil ish hajmini ko'paytirish yo'llarini taklif qilishdir. Bu ma'naviy fikrlashni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirishga, mustaqil ish uchun malakalarni shakllantirishga yordam beradi, shuningdek o'quv jarayonining motivasion sohasiga, uning faoliyat turiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'limda axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir. Hozirgi kunda kompyuterlar ta'lim tizimida asosan to'rtyo'nalishda:

- o'rganish obyekti sifatida;
- o'qitishning texnik vositalari sifatida;
- ta'limni boshqarishda;
- ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

O'quv jarayonida kompyuterlar asosan quyidagicha foydalanilmoqda:

- *passiv qo'llash* – kompyuter oddiy hisoblagich kabi;
- *faol muloqat* – kompyuter o'quvchiga yo'l – yo'riq berish va imtihon olishda;
- *interfaol muloqat* – kompyuter sun'iy intellekt sifatida, ya'ni o'quvchi bilan muloqot qilishda foydalaniladi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishni;
- o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni

yaratuvchi jamoagapedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvi;

- pedagoglar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga tinglovchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali tinglovchining o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini e gallashiga;
- axborot jamiyatiga a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarini kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o'quvchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarini rivojlantirishning hozirgi bosqichida yuqori malakali mutaxassislar uchun talab kuchaymoqda. Zamonaviy o'qituvchi uchun odatiy bo'lishi kerak: kerakli ma'lumotlarni topish, elektron pochta orqali ishlash, axborot tarmoqlaridan foydalanish. Axborot madaniyati umumiyligi pedagogik madaniyatning bir qismiga yylanadi. O'qituvchining professionalligi turli xil kompetentlarga, jumladan, kompyuterga ega. O'qituvchi o'z kundalik va kelajakdagagi professional faoliyatida mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan foydalanishi kerak. Hozirgi kunda o'qituvchilarning aksariyati kompyuterga ega, ammo bilim darajasi ularnikidan farq qiladi.

a) global Internetdan foydalanish.

Elektron resurslar shaklida axborot – metodik qo'llab-quvvatlash o'qituvchini o'quv jarayoniga tayyorlashda, masalan, yangi usullarni o'rGANISH, ko'rgazmali qo'llanmalarni tanlashda qo'llanilishi mumkin.

Qidiruv tizimlari Internet o'qituvchilarga bolalarning taraqqiyoti va tarbiyasi, fotosuratlar va illyustratsiyalar haqida deyarli barcha

materiallarni topish imkoniyatini beradi.

b) hujjatlar uchun kompyuterdan foydalanish.

Kompyuter, dasturlarni tashkil qilish, bolaning shaxsiy xotirasini saqlab qolish, u haqda turli ma'lumotlarni yozib olish, test natijalarini yozish, umuman grafiklarni yaratish orqali har qanday harakat rejalarini tuzishda g'amxo'rlik ko'rsatuvchilar va "rivojlangan" ota-onalarga qimmatli xizmatni taqdim etishi mumkin.

Kompyuterdan foydalanishning muhim jihatni ma'lumotlar bazasini boshqarishdir. Bugungi kunda bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha juda ko'p kitoblar paydo bo'ldi, ko'pgina kitoblarda o'qitishda kompleks yondashuvlar aks ettirilgan, boshqalari esa ma'lum bir sifatni rivojlanishini aks ettiradi, yosh toifalarini ajratib turadi va boshqalar. Ma'lumotlar bazasidan foydalanmaslik adabiyotda juda qiyin kechadi.

c) multimedya prezентatsiyalaridan foydalanish.

Multimediya prezентatsiyalar ta'lim va rivojlanish materiallarini algoritmik usulda kompleks tuzilgan ma'lumotlar bilan to'ldirilgan yorqin tasavvurlar tizimi sifatida taqdim etishga imkon beradi. Bu holatda, nafaqat haqiqatni, balki bolalar xotirasida assotsiativ shaklda ham ma'lumot berishga imkon beruvchi turli in'ikoslar kanallari qo'llaniladi. Rivojlantiruvchi va ma'rifiy ma'lumotlarning bunday taqdimotining maqsadi chaqaloqlardagi tizimni shakllantirishdir. Multimedia taqdimotida material taqdimoti o'quv vaqtini qisqartiradi, bolalar salomatligini yaxshilaydi. Ta'lim faoliyati davomida multimedya prezентatsiyalaridan foydalanish bizni psixologik jihatdan to'g'ri usullar, xotira, aqliy faoliyat, o'quv mazmunini va pedagogik o'zaro ta'sirlarni izolatsiyalash, o'quv jarayonini qayta tiklash va yaxlitlik nuqtai nazaridan o'quv jarayonini yaratishga imkon beradi.

Hisoblash texnikasining rivojlanish tarixi. Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangidan yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Inson yangilik yaratish jarayonida har xil to'siqlarga duch keladi va shu to'siqlarni yengib o'tish mobaynida yana yangi ixtiolar vujudga kelaveradi. Lekin, hayot tajribalaridan ma'lumki, ko'pincha yangi kashfiyot ma'lum bir muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladi. Biz so'zsiz kompyuterning XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri desak yanglishmaymiz. Davr talabiga ko'ra bugunga kelib kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi. Ma'lumotlarni boshqarish, ayniqsa, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumotlarni boshqarish tizimlariga bo'lgan talab kun

sayin ortib bormoqda. Bunga sabab barcha sohalarda biror bir qaror qabul qilish uchun katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi va axborotlar ustida ishlashga to'g'ri kelyapti. Jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar uning bir qismi bo'lgan informatika sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu ta'sir shunchalik kuchliki, axborot texnologiyalarida bo'layotgan o'zgarishlar yillar ichida emas, balki oylar ichida o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Qisqa vaqt mobaynida axborot texnologiyalarini sohasida juda katta yutuq va o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangi axborot texnologiyalarining yoki kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi bu sohadagi xizmat qilish uslubini tubdan o'zgartirdi. Komputerlarning yaratilish tarixiga nazar tashlasak, quyidagilarni esga olish mumkin. Insonlar qadim zamonlardan boshlab hisoblash ishlarida duch kelinayotgan qiyinchiliklarni yengillashtirish ustida bosh qotirib, tinmay izlanib, astasekin bu muammoni echa boshlashgan.

Axborotni tasvirlash usuliga qarab hisoblash mashinalari 3 turkumga bo'linadi:

- analog (uzluksiz) hisoblash mashinalari. Ularda axborot uzluksiz o'zgaruvchi bo'lib, biror fizik kattalik (masalan, tok kuchi) bilan ifodalanadi;
- raqamli hisoblash mashinalari. Ularda axborot diskret qiymatli o'zgaruvchi(son)lar bilan ifodalanadi. Masalan, elektr impulsleri.
- gibrid hisoblash mashinalari. Ularda axborotni tasvirlashning yuqorida har ikki usulidan foydalaniladi.

Hisoblash qurilmalari tarixi bir necha asrni o'z ichiga oladi. Quyida bu tarixning eng salmoqli voqealari va uning ishtirokchilari haqida so'z yuritiladi.

Eramizning 500 yillari. Cho't (abak) – ipga tortilgan toshchalardan tuzilgan qurilma ixtiro qilindi.

Xorazmda 783 yilda tug'ilgan buyuk astronom, matematik va geograf Muhammad ibn Muso al-Horazmiy dunyoga keldi. Al-Horazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bular arifmetika sohasi bo'yicha "Qo'shish va ayirish haqida qisqacha kitob", geografiyaga oid "Kitob surat-ul-arz" asari va astronomiyaga oid: "Zij", "Usturlab bilan ishlash haqida kitob", "Ustulab yasash haqida kitob", Ustulab yordamida azimutni aniqlash haqida", "Kitob ar-ruhoma", "Kitob at-ta'rix", "Yahudiylarning

taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola” asarlaridir. Al-Xorazmiyning arifmetik rosolasi XII asrda Kastliya (Ispaniya)da lotin tiliga tarjima qilingan. Bu tarjimaning XIV asrda ko’chirilgan yagona nusxasi qo’lyozmasi Kembrij universitetining kutubxonasida saqlanmoqda. Risola «Dixit Algoritmi” iborasi bilan boshlanadi. Asarda Xorazmiy to’qqista hind raqamining sonlarini ifodalashda eng qulayligi va ular yordamida har qanday sonni qisqa, osonlik bilan yozish mumkinligini tushuntirgan.

Al-Xorazmiy hind raqamlari asosida o’nlik (pozitsiyali) vaziyat tizimida sonlarning qanday yozilishini batafsil, juda tushunarli qilib bayon etgan. Ayniqsa, nol (0) ishlatalishning ahamiyati haqida tushuncha berib, nolni yozmaslik natijaning xato chiqishiga olib keladi, degan.

Shuni eslatib o’zmoqchimiski, o’sha davrda butun Yevropa davlatlari tizimida faqat murakkab rim raqamlari ishlatalilar edi. Al-Xorazmiyning yangi raqamlarni ishlatalishi matemetika, kibernetika kabi fanlarining rivojlanishiga asos bo’ldi, chunki bu yangi ixtiro matematika fanida ilk qadam bo’lib, yevropaliklargina emas, baiki butun jahonda boshqa fanlarni rivojlantirishga birinchi qadam, yo’llanma edi.


Xorazmiyning bu arifmetik risolasi XII asrdayoq ilk bor Seviliyalik (Ispaniya) Ioann tomonidan ozgina qo’shimchalar kiritilib nashr qilingan. Keyinchalik Yevropa olimlari Xorazmiyning bu asarini qayta-qayta ishlaganlar, u asosida darsliklar yozgalar. Bu darsliklar “Algoritm kitobi” (Al-Xorazmmiy kitobi) deya nomlangan. Yevropada va boshqa jahon davlatlarida hind raqamlari arablar (Al-Xorazmiy) orqali o’tganliklari uchun, ular “arab raqamlari” deyishadi.

Xorazmiy bu asari haqida shunday yozadi: “Men arifmetikaning oddiy va o’rta murakkab masalalarini o’z ichiga oluvchi “Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob”ni taklif qildim. Chunki meros taqsimlashda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda, adliya ishlarida, savdoda, har qanday bitimlarda va yer o’lhash, turli kanallar o’tkazishda amaliy geometriya va boshqa shunga o’xshash turli ishlarda kishilar uchun bu zarurdir”. “Algoritm kitobi” bilan al-Xorazmiy nafaqat fan tarixidan abadiy o’rin oldi, “Algoritm” iborasi keyinchalik butun hisoblash tizimini avtomatlashtirishga olib keldi. Ya’ni algoritm deganda biror maqsadga erishishga, yoki qandaydir murakkab masalani yechishga qaratilgan ko’rsatmalar (buyruqlar)ning aniq tushunarli, chekli hamda to’liq tizimi tushuniladi. Dastlab algoritm tushunchasi

o'qlik sanoq tizimidagi solar ustida turli arifmetik amallar bajarish qoidalarini ifodalagan. Xorazmiyning algebraik risolasining to'liq nomi "Al-kitob al-muxtar fi hisob al-jabr va al-muqobala". Bu nomdagi "Aljabr" so'zi keyinchalik lotincha «algebra» bo'lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi. U kvadrat tenglamalar va boshqa tenglamalar turlarini aniq misollar bilan tushintirgan.

1614 yil. Shotlandiyalik Jon Neper logarifmni ixtiro qildi. Ko'p o'tmay R.Bissakar logarifmik lineyka yaratdi.

1642 yil. Fransuz olimi Blez Paskal mexanik qurilma – arifmetik mashina yasashga kirishdi. Bu qurilma oddiy arifmetik amallarni bajarar va sonlarni "eslab" qolardi (qaran: 2.1-rasm).



2.1-rasm. Blez Paskal mexanik qurilma – arifmetik mashinasi.

1804 yil. Fransuz muhandisi Jakkar avtomatik to'quv dastgohlarini boshqarish maqsadida perfokarta ixtiro qildi.

1834 yil. Angliyalik olim Charlz Bebbidj ma'lumotlarni kiritish va chiqarish, sonlarni eslab qoluvchi, arifmetik amallarni bajara oladigan va mashinaning ishlashini boshqaradigan qurilmalarni o'z ichiga olgan "analitik" mashina loyihasini yaratdi. Loyiha amalga oshirilmay qoldi.

1876 yil. Angliyalik muxandis Aleksandr Bell hozirgi vaqtda juda ommalshib ketgan telefonni ixtiro qildi.


1890 yil. Amerikalik muxandis German Hollerit tomonidan perfokartaga kiritilgan ma'lumotlarni elektr toki yordamida "o'qiy" oladigan statistik tabulyator yaratildi. O'sha paytda tabulyator yordamida AQSh aholisini ro'yxatga olish ma'lumotlarini qayta ishlashda ishlataldi.

1892 yil. Amerikalik muxandis U. Berrouz birinchi tijorat summatorini ishlab chiqardi.

1897 yil. Angliyalik fizik J. Tomson elektron nurli trubka ishlab chiqdi.


1901 yil. Italiyalik fizik Guglielmo Marconi Yevropa va Amerika orasida radioaloqa o'rnatdi.

1904-1906 yillar. Elektron diod va triod ishlab chiqildi. 1936 yil. Alan Turing (qarang: 2.2-rasm) va E. Post bir-birlaridan xabardor bo'limgan holda abstrakt elektron hisoblash mashinasi konsepsiyasini ilgari surdilar. Ular algoritmlash imkonini bo'lgan ixtiyoriy masalani avtomatlar yordamida yechish mumkinligini isbotlab berdilar.



2.2.-rasm. Alan Turing

1938 yil. Nemis muxandisi Konrad Zuse birinchi mexanik kompyuterni yasadi. 1938 yil. Amerikalik matematik va muxandis Klod Shennon matematik mantiq asoslarini releli-tutashuv o'tkazish sxemalari analizi va sinteziga tatbiq mumkinligini ko'rsatib berdi (qarang: 2.3-rasm).



2.3.-rasm. Klod Shennon

1939 yil. Bolgar millatiga mansub amerikalik Jon Atanasoff ikkilik elementlariga asoslangan hisoblash mashinasi tajriba nusxasini yasadi.

1941 yil. Konrad Zuse elektromexanik elementlarga asoslangan birinchi universal kompyuterni ixtiro qildi. U ikkilik hamda qo'zg'aluvchi vergulli sonlar asosida ishlar edi (qarang: 2.4-rasm).




2.4-rasm. Konrad Suze elektromexanik

1944 yil. Amerikalik matematik Govard Ayken rahbarligida dastur yordamida boshqariladigan avtomatik hisoblash mashinasi – “Mark – 1” bunyod etildi. U elektro-mexanik relelar asosida qurilgan bo’lib, ma’lumotlarni qayta ishslash dasturi perfolenta orqali kiritilar edi (qarang: 2.5-rasm).



2.5-rasm. Govard Ayken.

1945 yil. Jon fon Neyman “Edvak” mashinasi haqidagi dastlabki hisobotida zamonaviy kompyuterlarning asosiy tashkil etuvchilari va ishslash prinsiplarini tavsiflab berdi (qarang: 2.6-rasm).



2.6-rasm. Jon von Neumann va “Edvak” mashinasi.

1946 yil. Amerikalik J. Ekkert va J. Mouchli “Eniak” (Electronic Numerical Integrator and Computer) nomli birinch elektron raqamli kompyuter yasadilar. Unga 20 ming elektron lampa va 1,5 mingta rele ishlatildi. U «Mark – 1» dan ming barobar tezroq ishlab, sekundiga 300 ta ko’paytirish va 5000 ta qo’shish amallarini bajarar edi (qarang: 2.6-rasm).



2.6-rasm. “Eniak” (Electronic Numerical Integrator and Computer) nomli birinch elektron raqamli kompyuter

1948 yil. Amerikaning Bell Laboratories firmasida fiziklar – Uilyam Shokli, Uolter Bratteyn va Jon Bardin tranzistor yaratishdi. Buning uchun ular Nobel mukofotiga sazovor bo’lishdi (qarang: 2.7-rasm).



2.7-rasm. Uilyam Shokli, Uolter Bratteyn va Jon Bardin hamda ularning tranzistorlari.

1949 yil. Angliyada Moris Uilks rahbarligida xotirasida dastur saqlanadigan birinchi EDSAC kompyuteri yasaldi.

1957 yil. Amerikaning NCR firmasi tomonidan birinchi tranzistorli kompyuter yaratildi.

1951 yil. Kiyev shahrida Yevropa qit’asida birinchi 600 ta elektron lampaga ega kompyuter – MESM (малая электронная счётная машина – kichik elektron hisoblash mashinasi) yaratildi. Uni S.A.Lebedyev loyixalashtirdi.

1951-1955 yillar. Rossiya olimlari S.A.Lebedyev, M.V.Keldish, M.A.Lavrentyev, I.S.Bruk, M.A.Kartsev, B.I.Rameyev, V.S.Antonov, A.N.Nevskiy, B.I.Burkov va ular rahbarlik qilgan jamoaning samarali faoliyati tufayli Sovet Ittifoqi hisoblash texnikasi sohasida yetakchi davlatlar qatoriga chiqib oldi. Bu qisqa vaqtda muhim ilmiy-texnik masalalarni hal qilish, yadro energiyasini o’zlashtirish va koinotni tadqiq qilish imkoniyatini yaratdi.

1952 yil. S.A.Lebedyev rahbarligida Moskvada BESM-1 (большая электронная счётная машина – katta elektron hisoblash mashinasi) yasaldi. O’z davrida BESM-1 Yevropada eng samarador hisoblash mashinasi edi.

1955-1959 yillar. Rossiya olimlari A.A.Lyapunov, S.S.Kaminin, E.Z.Lyubimskiy, A.P.Yershov, L.N.Korolyov, V.M.Kurochkin, M.P.Shura-Bura va boshqalar «dastutlovchi dasturlar» – hozirgi translyatorlarning ajdodini yaratishdi. V.V.Martinyuk belgili kodlash tizimi – dasturlarni tuzish va tahrir qilishni tezlashtiruvchi vosita yaratdi (qarang: 2.8-rasm).



2.8-rasm. Hozirgi translyatorlarning ajdodi.


1955-1959 yillar. Dasturlash nazariyasi (A.A.Lyapunov, Yu.I.Yanov, A.A.Markov, L.A.Kalujin) va sonli yechish usullari nazariyasiga (V.M.Glushkov, A.A.Samarskiy, A.N.Tixonov) asos solindi. Fikrlash mexanizmi va genetik jarayonlar sxemasi, tibbiy kasalliklarni tashxis qilish algoritmlari modellashtirildi (A.A.Lyapunov, B.V.Gnedenko, N.M.Amosov, A.G.Ivaxnenko, V.A.Kovalevskiy va boshqalar).

1958 yil. Jek Kilbi (Texas Instruments firmasi) birinchi integral sxemani yaratdi (qarang: 2.9-rasm).



2.9-rasm. Jek Kilbi (Texas Instruments firmasi) va birinchi integral sxemasi.

1959 yil. S.A.Lebedev rahbarligida sekundiga 10 ming amal bajara oluvchi BESM-2 hisoblash mashinasi yaratildi. Kosmik raketalar va Yerning birinchi suniy yo'ldoshlarini uchirish bilan bog'liq hisoblash ishlari aynan shu mashinada amalga oshirildi (qarang: 2.10-rasm).



2.10-rasm. S.A.Lebedev va BESM-2 hisoblash mashinasi.

1959 yil. M-20 hisoblash mashinasi yaratildi (bosh konstruktor S.A.Lebedyev). U o'z davrining eng tezkor mashinalaridan biri edi (sekundiga 20 ming amal) (qarang: 2.11-rasm).



2.11-rasm. M-20 hisoblash mashinasi.

Bu mashinada o'sha davr fan va texnikasining eng ilg'or sohalarini rivojlantirish bilan bog'liq ko'pgina nazariy va amaliy masalalar hal qilindi. M-20 asosida o'sha davr uchun eng tezkor, ko'pprocessorli EHM – M-40 yaratildi (sekundiga 40 ming amal). M-20 lar o'rmini BESM-4 va M-220 (sekundiga 200 ming amal) EHM lari egalladi.

1959 yil. Algol dasturlash tili yaratildi. U uzoq vaqt dasturlash tillari sohasida standart bo'lib qoldi.

1961 yil. IBM Deutschland firmasi kompyuterni modem orqali telefon tarmog'iga ulashni amalga oshirdi.

1964 yil. IBM/360 – uchinchi avlod EHM larini ishlab chiqarish boshlandi.

1967 yil. S.A.Lebedyev rahbarligida sekundiga bir million amal bajara oladigan, dunyodagi eng tezkor EHM – BESM-6 ning ommaviy

ishlab chiqarilishi tashkil etildi. Uning ketidan «Elbrus» – sekundiga 10 million amal bajara oladigan, yangi turdag'i EHM ishlab chiqarildi (qarang: 2.12-rasm).



2.12-rasm. BESM-6 EHMi ishlab chiqarildi.

1968 yil. Intel firmasi tashkil etildi. Hozirda u mikroprotssessorlar hamda kompyutering boshqa integral sxemalarini ishlab chiqarish sohasida dunyoda yetakchi o'rinfutadi.


1971 yil. Intel firmasi oddiy mix qalpoqchasidan katta bo'lмаган kristalga joylashgan 2250 ta tranzistordan iborat 4004 mikroprotssessorini ishlab chiqardi.

1973 yil. Ken Tompson va Denis Ritchi UNIX operatsion sistemasini ishlab chiqishdi.

1973 yil. IBM (International Business Machines Corporation) firmasi «vinchester» turidagi birinchi qattiq disk ishlab chiqardi.

1974 yil. Intel firmasi 4500 ta tranzistordan iborat 8080 – birinchi universal sakkiz razryadli mikroprotssessor ishlab chiqardi.

1974 yil. AQSh harbiy havo kuchlari yosh ofitseri, muhandis-elektronchi Edvard Roberts 8080 mikroprotssessori asosida Altair mikrokompyuterini yasadi. Altair tijoratda katta muvaffaqiyatga erishdi. Uni pochta orqali xarid qilib xonadonlarda ishlatishdi (qarang: 2.13-rasm).



2.13-rasm. Edvard Roberts 8080 mikroprotsessori asosida Altair mikrokompyuterini yasadi.

1975 yil. Yosh dasturchi Pol Allen va Garvard universiteti talabasi Bill Geyts Altair mikrokompyuterida Beysik dasturlash tilini ishga tushurishdi. Keyinchalik ular Microsoft (Maykrosoft) firmasiga asos solishdi. Hozirda u dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi eng yirik firma hisoblanadi (qarang: 2.14-rasm).



2.14-rasm. Pol Allen va Garvard universiteti talabasi Bill Geyts Altair mikrokompyuterida Beysik dasturlash tilini ishga tushurishdi.

1975 yil. IBM firmasi lazerli printerlarni sotuvga chiqardi.

1976 yil. Talabalar Stefan Voznyak va Stiven Jobs garajda Apple-1 kompyuterini yasab, Apple korporatsiyasiga asos solishdi.

1979 yil. Intel firmasi 8088 mikroprotsessorini ishlab chiqdi.

1980 yil. Yaponyaning Sharp, Sanyo, Panasonic, Casio kompaniyalari va amerikaning Tandy firmasi katta kompyuterlarning barcha asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan birinchi cho'ntak kompyuterini sotuvga chiqardi.

1981 yil. IBM firmasi 8088 mikroprotsessori asosida tashkil qilingan IBM PC nomli birinchi shaxsiy kompyuterini ishlab chiqdi.

1982 yil. Intel firmasi 80286 mikroprotsessorini ishlab chiqdi.

1983 yil. Apple Computers korporatsiyasi «sichqoncha» bilan boshqariladigan birinchi ofis kompyuteri – «Lisa» shaxsiy kompyuterini ishlab chiqdi (qarang: 2.15-rasm).



2.15-rasm. «Lisa» shaxsiy kompyuteri.

1983 yil. Egiluvchan magnit disklari axborot tashuvchi standart vosita sifatida keng qo'llanila boshlandi.

1983 yil. Anders Xeylsberg ishlab chiqqan Turbo Pascal kompilyatori Borland firmasi tomonidan sotuvga chqarildi.

1984 yil. Sistema bloki display va klaviatura bilan birlashtirilgan birinchi Laptop (tizzaga qo'yishga mo'ljallangan) tipidagi kompyuter ishlab chiqildi (qarang: 2.16-rasm).



2.16-rasm. Sistema bloki display va klaviatura bilan birlashtirilgan birinchi Laptop tipidagi kompyuter.

1984 yil. Sony va Phillips firmalari CD-ROM kompakt disklariga axborot yosish standartini ishlab chiqdilar.

1984 yil. Apple Compyuter korporatsiyasi operatsion sistemasi va yuqori saviyadagi grafik imkoniyatlari bilan foydalanuvchilar tomonidan tanilgan Macintosh kompyuterlari oilasiga mansub bo'lgan birinchi Macintosh kompyuterini ishlab chiqdi. Bu kompyuterlar MS-DOS operatsion sistemali IBM shaxsiy kompyuterlaridan anchagina ustun edi va shuning uchun juda ko'p millionli, ayniqsa nashriyot va ta'lim tizimida, muxlislariga ega bo'ldi

1985 yil. Intel firmasi 80386 mikroprotssessorini ishlab chiqdi (qarang: 2.17-rasm).



2.17-rasm. Intel firmasi 80386 mikroprotssessori.

Texnologik jarayonlarni boshqarishda, operatsiya xonalari, yoki tez yordam mashinalarida, raketa, samolyot va vertolyotlarda, suv ostida, yoki murakkab holatlarda va xavfli vaziyatlarda maxsus kompyuterlar ishlab turibdi. Quyidagi kompyuter shular jumlasiga kiradi (qarang: 2.18-rasm).



2.18-rasm. Operatsiya xonalari, yoki raketa, samolyot va vertolyotlarda, suv ostida, yoki murakkab holatlarda va xavfli vaziyatlarda maxsus kompyuterlar

Ergotouch (Ergotach) kompyuteri alyuminiydan quyilgan butunligicha germetik qoplamlari bo'lib, ishlatish vaqtida oson ochiladigan qilingan. Kompyuter qoplamasini elekromagnit nurlanishlarni deyarli to'liq yutadi. Uning ekrani qo'l tekkanini sezuvchan qilib ishlangan. Kompyuterni o'chirmasdan suv bilan yuvish mumkin. Shu sifatlari evaziga boshqarish va texnologik jarayonlarni kuzatib borish vositasi sifatida ishlatiladi (qarang: 2.19-rasm).



2.19-rasm. Ergotouch (Ergotach) kompyuteri.

1989 yil. Amerikaning Poquet Computers Corporation firmasi Subnotebook sinfiga mansub Pocket PC kompyuterini ishlab chiqdi.

1993 yil. Intel firmasi Pentium mikroprotsessorini ishlab chiqardi.

Superkompyuterlar – sekundiga kamida 100 megaflop (1 megaflop – sekundiga million amal bajarish) amal bajaruvchi kuchli kompyuterlardir. Ular o’ta tezkor deb ataladi. Bu kompyuterlar umumiy xotira va tashqi qurilmali bo’lib, ko’pprotsessorli yoki ko’pmashinali komplekslar sifatida tashkil etiladi.

Asosiy portativ (qo’l) kompyuterlar quyidagilar (qarang: 2.20-rasm):



2.20-rasm. portativ (qo’l) kompyuterlari.

Laptop (tizza kompyuteri: lap – tizza, top – ustiga). Tezligi va xotirasi jihatidan shaxsiy kompyuterlardan qolishmaydi.

Notebook (bloknot, yoki yozuv daftarchasi) (qarang: 2.21-rasm). Og’irligi 3 –4 kg atrofida va kattaligi katta hajmdagi kitob o’lchamida bo’ladi. Ularga modem, CD-ROM va boshqa qo’shimcha qurilmalar o’rnatalish imkoniyati bor.



2.21-rasm. Notebook (bloknot yoki yozuv daftarchasi).

Palmtop (palm – kaft) – eng kichik zamonaviy shaxsiy kompyuterlardir. Ular kaftga bemalol sig’adi. Ularda magnit disklar o’rnini mustaqil manbaali elektron xotiralar egallagan. Ularda oddiy kompyuterlar bilan axborot almashish aloqa tarmoqlari orqali amalga oshiriladi.

Agar Palmtopni doimiy xotirasini maxsus dasturlar paketi bilan to’ldirilsa, raqamli shaxsiy yordamchiga (Personal Digital Assistant) aylanadi. Ma’lumki, kompyuterlarni klassifikatsiyalash masalasi nisbiyidir. Ishlab chiqarish texnologiyasi va strukturasining rivojlanishi sababli kompyuterlarning yangi sinflari ishlab chiqariladi va oqibatda mavjud sinflar orasidagi tafovut o’zgaradi.

Kompyuter texnikasini turli klassifikatsiyasi mavjud. Masalan:

- rivojlanish bosqichlari (avlodlari) bo’yicha;
- arxitekturasi bo’yicha;
- ish unumdorligi bo’yicha;
- ishlatish muhiti bo’yicha;
- protsessorlar soni bo’yicha;
- foydalanuvchi ehtiyojlari bo’yicha va hokazo.

Hozirgi kunda kompyuter hayotimizning barcha sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Agar boshida shaxsiy kompyuterlardan asosan ma’lumotlarni saqlash va ularni qayta ishlash uchun foydalanilgan bo’lsa, hozirgi kunda kompyuterlar audio, video ma’lumotlar bilan ishlovchi kino texnologiyalarida keng foydalanimoqda.

Hozirda xilma-xil zamonaviy kompyuterlar insonga xolis xizmat qilmoqda. Ularning tashqi ko’rinishi ham turlichaydi. Lekin ularni tashkil etuvchi qurilmalar, (ya’ni apparatli ta’minoti) bilan yaqindan tanishsak, turli turkumdagи mashinalardagi qurilmalarda o’xshashlik borligini ko’ramiz. Har qanday kompyuter apparatli ta’minoti, asosiy va qo’shimcha qurilmalardan tashkil topgan. Asosiy qurilmalar kompyuter ishlashini ta’minlasa, qo’shimcha qurilmalar kompyuter bilan ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Hozirgi vaqtida eng ko’p ishlab chiqarilayotgan va amaliyotga qo’llanilayotgan zamonaviy kompyuterlar shaxsiy kompyuterlar hisoblanadi. Zamonaviy kompyuterlar asosan quyidagi asosiy qurilmalardan iborat bo’ladi:

- 1. Sistemali blok.**
- 2. Monitor**
- 3. Klaviatura**

4. Sichqoncha.

Sistemali blok. Sistemali blok kompyuterning eng asosiy qurilmasi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) **mikroprosessor** – ko'p hollarda prosessor deb yuritiladi. U hisoblashlarni bajaradi va kompyuter ishini boshqaradi;
- 2) **xotira** – ma'lumotlarni va hisoblash natijalarini saqlash uchun ishlataladi;
- 3) **kiritish chiqarishni nazoratchilar** – bu qurilma display, magnit disklar, sichqoncha va boshqa qurilmalar ishini nazorat qiladi;
- 4) **kiritish-chiqarish portlari** – kompyuter va tashqi qurilmalar orasida ma'lumotlarni almashtirib turish uchun ishlataladi;
- 5) **vinchester (qattiq magnit disk)** – ma'lumotlarni doimiy saqlash uchun ishlataladi;
- 6) **yupqa magnit disklar (disketlar)** – ma'lumotlarni doimiy saqlash hamda ularni bir kompyuterdan boshqa kompyuterga o'tkazish uchun ishlataladi.

Disketlarga vinchesterga nisbatan ancha kam miqdordagi axborotlar joylashadi.


Monitor kompyuterning ish jarayonida vujudga keladigan axborotlarning zarur qismini ekranda yoritib berishni ta'minlaydi. Monitor matn, yoki grafik rejimda ishlaydi. Matn rejimida ekran belgi o'rirlari deb yuritiluvchi alohida qismlarga bo'linadi. Grafik rejimda ekran piksel deb ataluvchi nuqtalar to'plamidan tashkil topadi. Ikkala rejimda ham belgi, yoki pikselning ranglari, fanning rangi, ravshanligi va boshqa parametrlar xaqidagi ma'lumotlar videoxotirada saqlanadi. Monitordagi piksellarning umumiyligi miqdori monitorning imkon darajasi, deb ataladi.

Hozirgi davrda keng tarqalgan monitorlarni tavsiflovchi jadvalni keltiramiz. Bu erda belgi o'rirlarning miqdori ekrandagi satr va ustunlardagi belgi o'rirlarning miqdorlari ko'paytmasi hamda piksellar soni gorizontal va vertikal bo'yicha piksellar sonining ko'paytmasi shaklida berilgan (qarang: jadval-2.1).

Jadval-2.1. Hozirgi davrda keng tarqalgan monitorlarni tavsiflovchi jadval.

Monitor nomi	Matn rejimi		Grafik rejimi	
	Ranglar miqdori	Belgi o'rirlar miqdori	Ranglar miqdori	Piksellar miqdori
CGA	16	80x25	2	640x200
			4	620x200
EGA	16	80x25	16	640x350
	16	80x43		
VGA	16	80x25	16	640x480
	16	80x50		
SVGA	16	80x50	256	640x480
		800x600	16	

Klaviatura. Klaviatura ma'lumot-larni kiritish va kompyuter ishini boshqarish uchun ishlataladi. Kompyuterlar odatda **101** tugmachali standart klaviatura bilan ta'minlanadi (qarang: 2.22-rasm). Klaviatura 5 qismdan iborat.



Asosiy yoki alfavit tugmalari: bu qismi 57 ta tugmadani borat: 37 lotin harf va belgilar, 10 ta raqam va 10 ta maxsus tugmalar. Ko'p tugmalarda bir nechta belgilar yozilgan. Har xil rangda yozilgan harflar, belgilar har xil til standartiga mos. Til standartini o'zgartirish klaviaturalarda har xil (o'ng "Alt" va "Shift", yoki ikkita Shift yoki

o'ng “**Ctrl**” va “**Shift**” tugmalarni birga bosish). Maxsus tugmalar bilan yaqinroq tanishaylik. “**Shift**” – agar siz harflar tugmasini bossangiz u holda kichik harf kiritiladi, agar sizga katta harf kerak bo'lsa u holda maxsus “**Shift**” tugmani bosib, qo'yib yubormasdan shu harf tugmasini bosishiz kerak. Agar bitta rang bilan bir nechta belgilar yozilgan bo'lsa u holda ulardan pastdagi asosiy, yuqoridagi passiv deb nomlanadi. Tugmani bosganizda asosiy belgi kiritiladi. Agar sizga passiv belgi kerak bo'lsa u holda siz maxsus tugmani bosib, qo'yib yubormasdan belgi tugmasini bosishingiz kerak. “**Ctrl**” va “**Alt**” – shu tugmalarni bosib turib boshqa tugmani bosganimizda har xil amallar bajariladi. “**Caps Lock**” – bu tugma yordamida “**Shift**” bosilib turgan holatini (faqat harflar uchun) yoqamiz, yoki o'chiramiz. “**Tab**” – keyingi bo'limga, yoki qismga o'tish. “**Backspace**” – oldin (chapda) joylashgan bitta belgini o'chirish. “**Enter**” – yangi satrga o'tish, yoki ma'lumotlarni kiritish. “**Esc**” – oxirgi harakatdan voz kechish.

Funktional tugmalar: Maxsus buyruklar va amallarni bajarish tugmalari **F1 - F12**. Har xil dasturlar bu tugmalarga har xil amallarni urnatadi.

Yo'nalish tugmalari: Kursor joylanishini o'zgartiradi. Kursorni bitta belgi chapga, yuqoriga, o'ngga va pastga siljитish.

Yordamchi tugmalar: “**Home**” – satr boshiga o'tish. “**End**” – satr oxiriga o'tish. “**PgUp**” – bir sahifa yuqoriga o'tish. “**PgDn**” – bir sahifa pastga o'tish. “**Insert**” – belgilarni o'chirib ustiga yozish, yoki ularni siljитib o'rtasiga yozish holatini o'rnatish. “**Delete**” – keyin (o'ngda) joylashgan bitta belgini uchirish

Raqamlar tugmalari: Raqamlarni kiritish uchun klaviatura. **0-9** gacha raqamlar va /,*,-,+ belgilari.

Klaviatura tugmachalariga “**Вставка-Символ**” bo'limi yordamida ixtiyoriy belgilarni, yoki alifbo harflarini o'rnatish mumkin.

Sichqoncha (ingl. mouse – *sichqon*) ma'lumot kiritish qurilmasi bo'lib, biror tekislik bo'ylab harakatlantirilganda tagidagi lazer nuri harakat haqidagi ma'lumotni kompyuterga uzatadi va ekrandagi ko'rsatkich (kursor) mos yo'nalishlarda harakatlanadi. Sichqonchaning tugmalari yordamida kompyuterga biror buyruq berish, undagi dasturlar va jarayonlarni ishga tushirish hamda hujjatlarni ochish mumkin. Sichqoncha o'z nomini shakli va ish tamoyili tufayli olgan: u kaftga oson ko'chadi. Shaxsiy kompyuter bilan u ulaniladigan kabel esa ilk konsturktorlarga sichqoncha dumini eslatgan bo'lsa, ehtimoldan holi

emas. Puxta o'ylangan konsruksiyasi tufayli sichqoncha SHK foydalanuvchilarining grafik muharrirlar dasturiy paketlari avtomatik loyihalash tizimlari elektron jadvallarni boshqarish stol usti nashr tizimlarini boshqarishda bebaho vositaga aylandi. Sichqonchalar o'zlarining ajratish qobilyatlari ya'ni qabul qiluvchi mehanizimlar talqin eta olishi mumkin bo'lgan eng kichik ko'chishi bo'yicha farqlanadi. Ajratish qobilyati odatda bir duyumga to'g'ri keladigan nuqtalar soni {200,400,600,900} bilan ko'rsatiladi. Sichqonchalarning turli tiplarining soni yetarlicha kattadir. Bo'linishi sichqonchaning ko'chish haqida axborot olish bosqichidayoq boshlanadi va bu qanday amalga oshirilishiga bog'liq ravishda, sichqonchalar mehanik, optik – mehanik va optikl toifalarga bo'linadi (qarang: 2.23-rasm).



2.23-rasm. Kompyuter sichqonchasi.

Ma'lumotlarni kompyuterga uzatish usuli bo'yicha sichqonchalar liniyalni va liniyasiz turlarga ajratiladi. Biroq uzatish usuliga bog'liq bo'limgan holda sichqonchaning o'zi (yoki liniyasiz texnologiya ishlatilganda biror oraliq qurilma) kompyuterga ulangan bo'lishi lozim. Sichqoncha 4 usul bilan kengaytma plata, standart ketma-ketlik port, PS/2 usulidagi sichqoncha porti shaklidagi maxsus adapter, yoki USB shinasi ulagichiga, ketma-ket portga ham (maxsus o'tkazgich yordamida) ularishi mumkin bo'lgan sichqonchalar ham mavjud. Ilgari sichqonchalar tugmalarining soni bo'yicha ham tasniflanar edi, lekin agar dasturiy ta'minot faqat bitta tugmani ishlatishi mumkin bo'lsa (masalan, Windows3X uchun ko'pchilik dasturlarda shunday edi), bu unchalik muhim ko'rsatkich emas.

Yuqorida aytilganidek, mazkur holda sichqonchalarni 3 guruhga bo'lish mumkin: mehanik, optik – mexanik, optik, shu bilan birga eng keyingi guruhning 2 ta qism toifasi mavjud. Bu atamalarning mohiyati

nimada? Hozirgi kunda mexanik sichqonlar o'tmish xotira bo'lib qoladi. Mexanik sichqochalarning ish usuli eng soddadir. Sichqonchaning ichki "g'ildiraklarida o'tkazuvchi belgilar bor". G'ildiraklariga o'tkazuvchi qoshlar birikadi (qarang: 2.24-rasm).



2.24-rasm. Sichqonchaning ichki "g'ildiraklarida o'tkazuvchi belgilar bor".

Sichqonchaning sharchasi yordamida g'ildiraklarning aylanishi jarayonida ularning o'zaro ta'svirlashuvi kursorning harakat yo'naliishi va tezligini aniqlash imkonini beradi. Ko'rib turganingizdek, bu usul mexanik pianinoda metall plastinkalarni ishlash bilan nimasidir o'xshash.

Mexanik sichqonchalar kirlanishi sababli boshqalarga qaraganda tez ishdan chiqadi, ular taraqqiyotning quyi bosqichida edi deb aytish mumkin. Hozirgi kunda tarqalgan sichqonchalarning ko'pchiligi optik – mexanik sinfga oiddir.

Optik – mexanik sichqonchaning ish tamoyili juda oddiy: rezina qoplamlari o'g'irlashtirilgan sharga yassi sirt bo'lab sirpanadiva ikkinchisiga perpendikulyar joylashgan valchani aylantirib, koordinatalar tizimida harakatni vujudga keltiradi (vertical va gorizontal bo'yicha) (qarang: 2.25-rasm).



2.25-rasm. Optik – mexanik sichqoncha.

Boshqacha aytganda, bu kombinatsiya bir yog'och g'ildirakli aravaning o'qini eslatadi. Bu g'ildirak svetodiod va priyomnik – fototranzistor orasida aylanadi. Yorug'lik nuri turli tezlik bilan aylanayotgan g'ildirakning kegaylari orqali o'tadi. Elektron signallarga aylantirilgan yorug'lik impulsleri («yorug'lik»/ «qorong'ulik» almashuvi) kursoring ekranida ko'chish tezligi va vaziyatini aniqlach imkonini beradi. Sichqonchani tozalashda ko'pchilik valchalardagi va rezina sharchaning o'zidagi changlarni tozalash bilan cheklanadi. Ko'pchilik hollarda bu, yetarli biroq yetish qiyin bo'lgan joylarda chang to'planishi kursoring monitor ekranida tushintirish qiyin bo'lgan harakat qilishiga imkon beradi. Bu holatda sichqonchani to'la ochishga jazim qilish mumkin (qarang: 2.26-rasm).



2.26-rasm. Sichqonchalar.

Optik sichqonchalar qismlardan mutlaqo holdir. Fotodatchiklar sichqoncha korpusining bevosita pastki sirtida joylashgan. Bunday sichqonchalar bilan ishlashdaqora va qizil chiziqlar bilan katakchalarga bo'lingan maxsus gilamcha ishlatiladi. Maxsus holda aparatura o'qlarning aylanishi natijasida hosil bo'lган yorug'lik impluslarini emas, balki har rangdagi kesib o'tilgan chiziqlarni sanaydi. Optik sichqonchalar juda ishonchli (harakatlanuvchi qisimlari yo'qligi sababli) biroq ularning kamchiligi ham bor: istalgan sirtda surila oladigan optik mexanik sichqonchaga qaraganda gilamchaga ko'proq joy kerak. Yangi qismiy toifaga Microsoftning yangi ishlanmasi Intellimouse Explorer mansubdir.

Odatda optik sichqonchalardan farqli o'laroq bunga gilamcha kerak emas unga 18 MIPS quvvatlari raqamli signal protsessori o'rnatilgan. (Qachanlardir bu quvvat EHM uchun yetarli edi) uning ishi optik sensordan kelayotgan real vaqtda soliishtirishdir. Solishtirish asosida 1 sekunda 1500 tagacha rasm taqqoslanishi mumkin bo'lib, bu juda yuqori aniqlikni taminlaydi.

Shaxsiy kompyuterning qo'shimcha qurilmalari Printer –

ma'lumotlarni qog'ozga chiqarish qurilmasi. Printerlarning uch xili mavjud:

- bosma (matritsa - o'yma qolip);
- purkovchi;
- lazerli.

Bosma printerda qog'ozdagi bosilayotgan satr bo'ylab harakatlanadigan maxsus qurilmaga o'rnatilgan metall ignachalar qog'oz va qurilma orasiga o'rnatilgan rangli tasmaga tegib qog'ozda iz qoldirib ma'lumotlarni hosil qiladi, shu nuqtalarning to'plami esa qog'ozga belgilar, yoki shakllarni chiqarilishini ta'minlaydi. Ko'rinish turibdiki, bosma printerdan chiqarilayotgan axborotlarning rangi o'rnatilgan tasma rangiga mos bo'ladi (qarang: 2.27-rasm).



2.27-rasm. Printerlar.

Purkovchi printer – qog'ozga chiqariladigan ma'lumotlarni, maxsus idishdagi suyuqlikni juda kichik naycha teshigidan bosimli purkash yo'li bilan hosil qiladi.

Lazer printeri – ma'lumotlarni chop etishda rang solingan maxsus

barabanga elektr maydonini ta'sir ettirishdan foydalanadi. Bunday printerlar tez va soz ishlaydi, qog'ozga chiqariladigan axborotli mahsulotning sifati yuqoridir. Bosma yoki purkovchi printer bir minutda bir bet ma'lumot chop etsa, lazer printerining shunday ko'rsatkichi o'n betdan ortiq. Purkovchi va lazer printerlarda ma'lumotlarni turli rangli qilib chop etish imkoniyati mavjud.

Yurgichni boshqarish va qo'shimcha boshqarish vazifalarni bajaruvchi qurilmalarning quyidagi xillari mavjud: trekbol, joystik.

Trekbol – sichqonchaning to'nnkarib qo'yilgan holatiga o'xshaydi, undan asosan notebook xilidagi ko'chma kompyuterlardan foydalaniladi.

Joystik – tugmali harakatlanuvchi maxsus dastadan iborat qurilma, u asosan faqat o'yin yoki mashq bajaruvchi dasturlarni boshqarishda qo'llanadi.

Plotter (grafyasagich) – chizmalarni qog'ozga chiqarish uchun xizmat qiluvchi qurilma. Qog'ozda tasvirlanadigan chizmalar tushlangan pero bilan hosil qilinadi. Chizmalar 300x300 sm o'lchamgacha bo'lган katta qog'ozlarga ham chiqarilishi mumkin.

Skaner – foto rasm, grafik va matn shaklidagi axborotlarni kompyuterga kiritish uchun ishlataladi. Demak, rasm, shakl yoki matnni albatta bevosita kompyuterda hosil qilish shart emas, balki uni oldin tashqarida tayyorlab olib kompyuterga kiritish sharoitini yaratib, bu rasmdan kompyuterda ko'rsatmali foydalanish imkoniyatini beradi. Hozirda stol usti skanerlari va qo'l skanerlari keng tarqalgan. Stol usti skanerlari o'z navbatida planshet, rulon, proeksiyallarga bo'linadi. Skanerning har bir turi qo'yilgan masalaga mos ravishda bajara oladigan vazifaga qarab o'z joyida qo'llanadi (qarang: 2.28-rasm).



2.28-rasm. Skaner.

Strimer – vinchesterdagi eng zarur axborotlarni buzmasdan asrash

uchun, uning nusxasini ko'chirib zahirada saqlash uchun xizmat qiladigan qurilma. Strimer ma'lumotlarni magnit tasmalarga juda tez ko'chirishni tashkil etadi. Magnit lentalar sifatida audio yoki video tasmalardan foydalilaniladi.

Modem – kompyuter signallarini telefon signallariga aylantiruvchi va aksincha telefon signallarini kompyuter signallariga aylantirishni ta'minlovchi maxsus qurilma. Demak, modem telefon tarmoqlari orqali kompyuterlarni o'zaro bog'lash imkoniyatini yaratib berar ekan. Modem kompyuterda o'zgarmas tok orqali hosil qilingan signallarni turli chastotali tovush signallarining kombinatsiyasiga aylantiradi va shu jarayonni teskari tartibda ham bajaradi. Bu esa yakka kompyuterdan foydalanganga qaraganda, ancha katta hajmdagi axborot bilan ishslash imkoniyatlarini ochib beradi (qarang: 2.29-rasm).



2.29-rasm. Modem.

Soundblaster – axborot saqlagichlarga yozilgan raqamli audioaxborotni tovushlarga aylantirib beruvchi qurilma. Soundblaster qurilmasining chiqish qismiga ovoz kuchaytirgich, yoki ovoz kolonkalarini ulash mumkin, bu bilan kompyutering multimedia imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga yo'l ochiladi.

Multimedia – matn, tovushli ma'lumotlarni, tabiiy va grafik tasvirlarni birlashtiruvchi axborot texnologiyasi. Multimedia uchun zamonaviy CD – ROM texnologiyalar taqdimnomasi ilk marta 1987 yili Sietldagi konferensiyada (Second Microsoft CD – ROM Conference) bo'lib o'tdi va bu sana video va audioaxborotli to'laqonli multimedianing paydo bo'lishini isbotladi (qarang: 2.30-rasm).



2.30-rasm. Multimedia vositalari.

Kompyuter xotiralari.

Mikroprotsessor kompyuterning amal bajaradigan qismi bo'lib, u ma'lumotlarni berilgan dastur asosida qayta ishlaydi. Mikroprotsessor 140 tacha turli arifmetik va mantiqiy amallarni bajaradi. IBM rusumli kompyuterlarda Intel tipidagi (shu nomli firma ishlab chiqqan) mikroprotsessorlar ishlatiladi. Bu firma o'z faoliyati mobaynida Intel – 8080, 80286, 80386, 80486, Pentium, Pentium Pro(professional) mikroprotsessorlari ishlab chiqargan bo'lib, hozirda faqat zamon talablariga javob beradigan **Pentium-3, Pentium-4** protsessorlarinigina bozorga chiqarmoqda, xolos. Shuni aytish joyizki, bu protsessorlar faqat Intel firmasida ishlab chiqarilishi shart emas. Uning litsenziysi asosida bunday mikroprotsessorlar, da ishlab chiqarilishi shart emas. Uning litsenziysi asosida bunday mikroprotsessorlar, ishchi kuchi arzon bo'lgan, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ko'plab ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, *IBM kompyuterlariga moslik* shartini bajaradigan boshqa firmalar: AMD, Cyrix, Celeron va hokazo ishlab chiqqan mikroprotsessorlar ham keng qo'llaniladi. Ammo boshqa firmalar ishlab chiqqan mikroprotsessorlar Intel – protsessorlardan umuman aytganda kuchsizroq hisoblanadi. Hozirda MMX – protsessorli kompyuterlar keng qo'llaniladi. Protsessorlarning tezligi megagerslar (Mgs) sekundda o'lchanadi.

MMX Pentium protsessori. Intel firmasining keyingi avlod protsessori sifatida 1997 yil yanvar oyidan boshlab chiqarilayotgan **MMX (Matrix Multiplication Extension)** **Pentium** protsessorini aytish mumkin. Dastavval bu protsessor matritsalarni ko'paytirish uchun kengaytma nomi bilan atalgan bo'lsa, keyinchalik Multi Media Extension – multimedia uchun kengaytma deb atala boshladi. Bu yangi

protsessorni ishlab chiqishdan maqsad, keyingi yillarda ommaviy qo'llanilib borilayotgan kompyuterning multimedia (ovozi, grafik, tasvir) imkoniyatlarini har tomonlama barkamollik darajasiga ko'tarish, multimedia amaliyotlarni tez bajarishni ta'minlashdan iborat. Bu amallar qatoriga, jumladan multimedia berilganlarini, ikki va uch o'lchovli grafikalarni tez bajarish kiradi. Shu bilan birga bu protsessor ko'paytirish va qo'shish amallarini ko'proq ishlataligani amaliy dasturlarda amallarni tezroq bajarishga qaratilgan. Shuning uchun ham uni ko'proq matematik soprotsessorni talab qilmaydigan, butun sonlar bilan ishlash bilan bog'liq masalalarni yechishda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lsada, tajribalar uning har tomonlama ustunligini ko'rsatadi.

Hozirda rivojlanayotgan parallel algoritmlar va hisoblashlar uchun ham u qo'l keladi. Shu bilan birga bu protsessor suzuvchi vergul rejimidagi sonlar bilan ishlashni "yoqtirmaydi". Bunday sonlar bilan ishlash uchun maxsus dastur interfeysi mavjud. U Microsoft firmasining **Direct 3D** (3 o'lchovli interfeysi)dir. Shuning uchun ham uning hozirda ko'p tarqalayotganligiga ajablanmasa ham bo'ladi.

Xotira. Xotira kompyuterda dasturlar va berilganlarni, amal natijalarini saqlaydigan qurilma. Xotiraning turlari ko'p: tezkor, doimiy, tashqi, kesh, video va boshqalar.

Tezkor xotira kompyuterning muhim qismi bo'lib, protsessor undan amallarni bajarish uchun dastur, berilganlarni oladi va amalni bajarib, natijani yana unda saqlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kompyuter o'chirilsa, tezkor xotirada saqlanayotgan dasturlar va berilganlar yo'q bo'lib ketadi. Shuning uchun ularni qattiq diskda yoki disketalarda saqlab qolish kerak. Kompyuter ishlab turganda elektr tokini ogohlantirmsandan o'chirish, umuman aytganda, katta zarar keltirishi mumkin. Barcha turdag'i xotiralar uchun muhim tushuncha uning hajmidir. Kompyuterlarda ma'lumot birligining eng kichik o'lchovi sifatida **bayt** qabul qilingan bo'lib, 1 bayt 8 bit (ikkili raqam)ga teng. O'z navbatida bayt bir simvolni (belgini) tasvirlaydi. Familiyangizni kompyuterga kiritish uchun familiyangizda nechta harf bo'lsa, u xotirada shuncha bayt joyni egallaydi. Xotira hajmi birligi sifatida **kilobayt** qabul qilingan va u K bilan belgilanadi. O'z navbatida bir kilobayt 1024 baytga teng. 1024 kilobayt esa 1 Mbayt (Megabayt)ga teng.

Xotiraning katta-kichikligiga qarab u yoki bu dasturlar majmuini

ishlata olish mumkin. Misol uchun 1 Megabayt xotiraga ega kompyuterlarda faqat DOS sistemasida ishlash mumkin bo'lsa, 4 Megabaytli kompyuterlarda imkoniyatlari ko'proq bo'lган dasturlarni, xususan WINDOWS 3.1,3.11 dasturlarini ishlatish mumkin. WINDOWS 95 ni to'laqonli ishlashi uchun 16 Megabayt xotira va kamida 486 protsessorli kompyuter, WINDOWS 98, 2000 operatsion sistemasida ishlash uchun, Foto Shop, Corell Drawe va boshqa hozirgi zamon dasturlarini ishlatish uchun kamida 32 Mbayt xotirali va PENTIUM_2,3 protsessorli kompyuterlar lozimdir. Bu ko'rsatkichlar yangi protsessorlar va dastur mahsulotlarini paydo bo'lishi bilan yil sayin oshib boradi.

Doimiy xotira. Kompyuterlarda berilganlar unga avvaldan joylashtirilgan *doimiy xotira* (BIOS – Basic Input – Output System – kiritish chiqarishning asosiy sistemasi) mavjud. Bunday xotiradan faqat o'qish mumkin. Shuning uchun ham u ROM (Read Only Memory – faqat o'qish uchun) deb ataladi. IBM PC kompyuterlarda bu xotira kompyuter jihozlarini ishlashini tekshirish, operatsion sistemasini boshlanQich yuklanishini ta'minlash, qurilmalarga xizmat ko'rsatishning asosiy funksiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.

Kesh xotira. *Kesh xotira* kompyuterning ishlash tezligini oshirish uchun ishlatiladi. U tezkor xotira va mikroprotsessor orasida joylashgan bo'lib, uning yordamida amallar bajarish tezkor xotira orqali bajariladigan amallardan ancha tez bajariladi. Shuning uchun kompyuter xotiraning ko'proq ishlatiladigan qismi nusxasini kesh xotirada saqlab turadi. Mikroprotsessorning xotiraga murojaatida, avvalo, kerakli dastur va berilganlar kesh xotirada qidiriladi. Berilganlarni kesh xotirada qidirish vaqtiga tezkor xotiradagiga nisbatan ancha kam bo'lgani uchun kesh xotira bilan ishlash vaqtiga ancha kam bo'ladi. PENTIUM_2,3 kompyuterlarda kesh xotira hajmi 512 K ni tashkil qiladi.

Videoxotira. Videoxotira monitor ekraniga video ma'lumotlarni (videotasvirlarni) saqlab turish uchun ishlatiladi. Shuni aytish lozimki, videotasvirlar (ayniqsa rangli) kompyuter xotirasida ko'p joy egallaydi. Shuning uchun video xotira hajmi qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi albatta. Videoxotiraning 1 Mbaytdan kam bo'limgani yaxshi.

Shina. Kompyuterda har bir qurilmaning ishini boshqaruvchi elektron sxemalar mavjud bo'lib, ular adapterlar (moslovchilar) deb ataladi. Barcha adapterlar mikroprotsessor va xotira orqali berilganlarni

ayirboshlovchi magistral yo'l deb ataluvchi shinalar orqali bog'langan bo'ladi.

Shunday qilib, oddiy so'z bilan aytsak, shinalar turli qurilmalarni bog'lovchi maxsus simlardir. Kompyuterda bir qancha shinalar bo'lishi mumkin. Kompyuterlarning elektron sxemasi elektron plata deb ataluvchi modullardan iborat. Uning modul tuzilishiga ega bo'lishi kompyuterlar ta'mirini oson bajarish, uni foydalanuvchi ehtiyojiga qarab yig'ish va o'zgartirish imkoniyatini beradi. Sistema platasi kompyutering asosiy platasi hisoblanib, unga BIOS, mikroprotsessor, tezkor xotira, kesh xotira, shinalar joylashtirilgan bo'ladi. Bundan tashqari, unda ba'zi bir qurilmalar, ishni boshqaruvchi elektron sxemalar, klaviatura, disk qurilmalari adapteri ham joylashgan bo'ladi.

Hozirda shinalarning PCI ISA turi keng ishlatilmoqda. Bunday shinalarning ma'lumot ayirboshlashi tezligi yuqori bo'lib, u orqali kompyuterga ko'p tashqi qurilmalarni ulash mumkin. Kompyuterda kiritish-chiqarish portlari kontrolerlari mavjud bo'lib, ular sistema blokining orqa qismida joylashgan slot deb ataluvchi joylar orqali printer, sichqoncha va boshqa qurilmalar ulanishi uchun xizmat qiladi. Kiritish-chiqarish portlari parallel va ketma-ket bo'ladi va ular mos ravishda **LPT1-LPT4** va **COM1-COM3** deb belgilanadi. Odatda **LPT** portga printer va **COM** portga faks-modem, sichqoncha va boshqa qurilmalar ulanadi.

Nazorat savollari:

1. Axborotni o'rghanish bilan bog'lik masalalar noosferaning qaysi bo'limining paydo bo'lishiga olib keldi?
2. Inson axborotni qaysi a'zolari orqali qabul qiladi?
3. Axborot kanday muxim xossalarga ega?
4. Ma'lumot va axborot orasidagi farq nimadan iborat?
5. Analogli va raqamli axborotlarning farqini misolda tushuntirib bering.
6. Hisoblash texnikasi qanday axborotlar bilan ishlaydi?
7. Axborotning qanday sifat ko'rsatkichlari mavjud?
8. Informatika nimani o'rGANADI?
9. Qanday jarayonlar axboriy jarayonlar deyiladi?
10. Axboriy jarayonlarga misollar toping va ularni tushuntirib bering.
11. Kompyutering arxitekturasi deganda nimani tushunasiz?
12. Kompyuter qanday qurilmalardan tashkil topgan?

13. Kompyuterning asosiy qurilmalari va ularning vazifalarini aytib bering.
14. Sistema bloki nimalardan tuzilgan?
15. Monitorlar qanday holatlarda ishlashi mumkin?
16. Kompyuterga axborotni kiritishga mo’ljallangan qanday qurilmalarni bilasiz?
17. Diskli jamlagichlar nima uchun ishlataladi?
18. Diskli jamlagichlarning qanday turlari bor?
19. Klaviatura qanday qismlardan tuzilgan?
20. Sichqonchaning vazifasi va turlari?
21. Printerning vazifasi va turlari?
22. Kompyuterning qo’shimcha qurilmalari va ularning vazifalarini aytib bering.
23. Modemning vazifasi va turlari?
24. Komputerning tizimli shinalarining vazifasi va turlar?
25. Loka shinalarining vazifasi va turlari?
26. Pereferiya shinalari?
27. Kiritish va chiqarish portlari, ularning vazifasi va turlari?
28. Tarmoq kartasining vazifasini ayting?
29. EHM nima?
30. EHMLarning yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
31. EHMLarning nechta avlod mavjud?

3- MAVZU. KOMPYUTERLARNING TEXNIK TA’MINOTI.

Tayanch iboralar: apparat ta’milot (hardware), dasturiy ta’milot (software), interfeys, dasturiy interfeys, apparat — dasturiy interfeys, foydalanuvchi interfeysi, sistemaviy dasturiy ta’milot; amaliy dasturiy ta’milot; dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari, sistemaviy dasturiy ta’milot (sistem software), tizimli, uskunaviy va amaliy dasturlar; utilita – xizmatchi dastur; operatsion tizimlar; dasturiy qobiq; translyator; kompilyator; interpretator; dasturlash tillari.

Reja:

1. Kompyuter haqida umumiylar ma'lumot.
2. Kompyuterlarni sinflash.

- 3. Kompyuterning ishlash prinsipi va tashkil etuvchilari.**
- 4. Shaxsiy kompyuterlarning tuzilishi.**
- 5. Kompyuterning qurilmalari.**

Kompyuter ikkita ajralmas qismdan tashkil topgan bo'ladi: **apparat ta'minoti** (hardware) va **dasturiy ta'minot** (software). Ular o'zaro bog'langan holda yagona uyg'unlikda ishlaydi va muayyan vazifalarni bajaradi.

Kompyuter – inglizcha so'z bo'lib, u hisoblovchi demakdir. Garchand u hozirda faqat hisoblovchi bo'lmasdan, matnlar, tovush, video va boshqa ma'lumotlar ustida ham amallar bajaradi. Shunga qaramasdan hozirda uning eski nomi – kompyuter saqlangan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat. Avallo shuni aytish lozimki, ko'pchilikning tushunchasida go'yoki biz kundalikda foydalanadigan faqat shaxsiy kompyuter bor xolos. Bunga albatta sabablar ko'p. Shulardan biri hozirgi zamon shaxsiy kompyuterlari ilgari universal deb hisoblangan kompyuterlardan tezligi va xotira hajmi jihatidan ancha oshib ketganligida bo'lsa, ikkinchi tomondan ko'p masalalarini yechish uchun bu kompyuterlar foydalanuvchilarni qanoatlantirishidadir. Hozirda kompyuter termini ko'p uchrasada, shu bilan birga EHM (elektron hisoblash mashinalari), HM (hisoblash mashinalari) terminlari ham hayotda ko'p ishlatib turiladi. Ammo biz soddalik uchun faqat kompyuter terminidan foydalanamiz. Kompyuterlarning amalda turli xillari mavjud: raqamli, analogli (uzluksiz), raqamli – analogli, maxsuslashtirilgan. Ammo, raqamli kompyuterlar foydalanilishi, bajaradigan amallarning universalligi, hisoblash amallarining aniqligi va boshqa ko'rsatkichlari yuqori bo'lgani uchun, ular ko'proq foydalanilmoqda. Amalda esa hozir rivojlangan mamlakatlarda kompyuterlarning besh guruhi keng qo'llanilmoqda.

Kompyuterlarni xotirasining hajmi, bir sekundda bajaradigan amallar tezligi, ma'lumotlarning razrad to'rida (yacheykalarda) tasvirlanishiga qarab, besh guruhga bo'lish mumkin:

- super kompyuterlar (Super Computer);
- blok kompyuterlar (Manframe Computer);
- mini kompyuterlar (Minicomputer);
- shaxsiy kompyuterlar (PC-Personal Computer);
- bloknot(noutbook) kompyuterlar.

Super kompyuterlar (TOP 500 kompyuterlar) – juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarni yechish uchun mo’ljallangan bo’ladi. Bunday masalalar sifatida ob-havoning global prognoziga oid masalalarni, uch o’lchovli fazoda turli oqimlarning kechishini o’rganish masalalari, global informatsion sistemalar va hokazolarni keltirish mumkin. Bu kompyuterlar bir sekundda 10 trillionlab amal bajaradi. Superkompyuterlar bahsida AQSH energetika vazirligining Sandia laboratoriyasida o’rnatilgan 9472 protsessorli Intel ASCI Red kompyuter sistemasi karvonboshilik qilmoqda. Uning tezligi kompyuterlar tezligini o’lchovchi – Linpacr parallel testida 1 TFLOPS (1 TFLOPS-1000 GFLOPS teng, 1GFLOPS esa 1000000 FLOPS, 1FLOPS-sekundiga 1000 amalga teng). Xususan, bu kompyuter yadro sinovlarini va eskirayotgan yadro qurollarini modellashtirishda qo’llaniladi. E’tiborlisi shuki, Tokio universiteti dunyoda to’rtinchi o’rinda turadigan, sekundiga 873GFLOPS amal bajaradigan, 128 protsessorli SGI ASCI Blue kompyuteriga ega.

Shuni qayd qilish lozimki, superkompyuterlarning ma’lum yo’nalish masalalarini yechishga qaratilgan turlari ham mavjud.

Blok kompyuterlar (Manframe Computer) – fan va texnikaning turli sohalariga oid masalalarni yechishga mo’ljallangan. Ularning amal bajarish tezligi va xotira hajmi superkompyuterlarnikiga qaraganda bir-ikki pog’ona past. Bularga misol sifatida AQShning CRAY (krey), IBM 390, 4300, IBM ES/9000, Fransiyaning Borrous 6000, Yaponianing M1800 rusumli kompyuterini va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Minikompyuterlar (kichik kompyuterlar) hajmi va bajaradigan amallar tezligi jihatidan blok kompyuterlardan kamida bir pog’ona pastdir. Shuni aytish joizki, ularning gabariti (hajmi) tobora ixchamlashib, hatto shaxsiy kompyuterdek kichik joyni egallaydiganlari yaratilmoqda. Bunday kompyuterlar turkumiga ilk bor yaratilgan PDP-11 (Programm Driver Processor-dasturiy boshqaruv protsessori) turkumini, ilgari harbiy maqsadlar uchun ishlatilgan (maxfiy hisoblangan) VAX, SUN turkumli kompyuterlar, IBM 4381, Hewlett Packard firmasining HP 9000 va boshqalar minikompyuterga misol bo’la oladi. Shuni aytish joizki, minikompyuterlar o’zlarining “katta og’alari” Manframe kompyuterlarni imkoniyatlari darajasiga ko’tarilib bormoqda. Buning uchun tarixga nazar solish va hozirgi ularning taraqqiyotini kuzatish yetarli.

Shaxsiy kompyuterlar hozirda korxonalar, muassasalar, oliy o'quv yurtlarida keng tarqalgan bo'lib, ularning aksariyati **IBM** rusumiga mos kompyuterlardir.

IBM rusumiga mos kompyuterlar deganda, ularning turli kompaniyalar ishlab chiqarilishiga qaramay ham texnik, ham programma ta'minoti mosligi, ya'ni bir-biriga to'g'ri kelishi nazarda tutiladi. Bunday kompyuterlar hajmi jihatidan kichik (bir stol ustiga joylashadi), amal bajarish tezligi, masalan PENTIUM-3 MMX protsessori o'rnatilgan kompyuterlarida hozirgi kunda 750-1000 megagersni, xotira hajmi esa 64-128 megabaytni tashkil qiladi. Bu ko'rsatgichlar o'ta tez o'zgarib, har ikki yilda kompyuterlar imkoniyati ikki baravar oshishi, ularning narxi esa shunchaga arzonlashishi tendensiyasi kuzatilmoque. Bugungi kunda Pentium IV kompyuterlari ham jahon bozorida keng tarqalmoqda. IBM PC moslik kompyuterlarini yuzlab firmalar ishlab chiqarmoqda. Bular IBM, Compaq, Hewlett-Packard, Packard Bell, Toshiba, Apple, Siemens Nixdors, Acer, Olivetti, Gateway, SUN va boshqa firmalardir. Shuni aytish joizki, yuqorida nomlari zikr etilgan firmalar ishlab chiqargan kompyuterlar (bradename) – “Oq yasalgan”, Janubiy-Sharqiy mamlakatlarda: Malayziya, Xitoy, Tayland, Koreya va boshqa mamalakatlarda yuqorida nomlari keltirilgan firmalar litsenziyasi asosida ishlab chiqarilgan kompyuterlar “Sariq yasalgan” nomga ega. Firma nomlari ko'rsatilmagan kompyuterlar esa “nomsiz kompyuterlar” (noname) deb yuritiladi. Ayniqsa, keyingi guruh kompyuterlarni sotib olishda ular yaxshi tekshiruvdan (testlar yordamida) o'tkazilishi lozim. Shaxsiy kompyuterlar uchun uning muhim ko'rsatkichi ishslash kafolatining (kamida uch yil) bo'lishi muhim. Shu bilan birga, bunday kompyuterlarni sotib olganda litsenzion programma ta'minoti va tegishli adabiyotlar bilan birga berilish imkoniyati mavjudligi nazarda tutilishi kerak.

Noutbuk kompyuterlar. Noutbuk kompyuterlar hajmi ancha ixcham bo'lib, ammo bajaradigan amallar soni, xotira hajmi shaxsiy kompyuterlar darajasiga ko'tarilib bormoqda. Ularning qulaylik tomonlaridan biri ham elektr energiyasidan, ham ichiga o'rnatilgan batareyalarda uzliksiz (batareyani har safar almashtirmasdan) ishlashi mumkinlidir.

Bunda batareya quvvati energiyaga ulanishi bilan o'zi zarad ola boshlaydi va u batareya bir necha yillarga mo'ljallangan bo'ladi.

Hozirda bunday noutbuklarni IBM, Compaq, Acer, Toshiba va boshqa firmalar ishlab chiqarmoqda. Tabiiyki, bunday kompyuterlar o'z imkoniyatlari nuqtai nazaridan shaxsiy kompyuterlarga tenglashayotganini nazarda tutilsa, uning narxi baland bo'lismeni sezish qiyin emas. Bundan tashqari, bunday rusumli kompyuterlar 8-10 yil mobaynida buzilmasdan ishlash qobiliyatiga ega. Ular shaxsiy kompyuterlar uchun yaratilgan operatsion sistemalar MS DOS, qobiq programmalar, Windowsning oxirgi versiyalarida va boshqa operatsion sistemalar boshqaruvida ishlaydi.

Hozirda noutbuk kompyuterlaridan ham ixcham cho'ntak kompyuterlari ham ishlab chiqilmoqda. Ular ham tabiiyki, operatsion sistema boshqaruvida ishlaydi va ular turli soha masalalarini yechishga qodir.

Ixtiyoriy kompyuterning ishlash prinsipini birinchi bo'lib ingliz olimi Charlz Bebich va uning g'oyasini mukammallashgan ko'rinishini Djon Fon Neyman taklif qilgan. Uning prinsipi programma asosida boshqariladigan avtomatik ravishda ketma-ket ishlash g'oyasidan iborat. Hozirda ko'p kompyuterlar shu g'oya asosida ishlaydi. Lekin keyingi paytlarda ko'p protsessorli kompyuterlar, ya'ni bir vaqtda programmaning bo'laklarini ketma-ket emas, parallel bajaradigan kompyuterlar ham yaratilganligini eslatib o'tish joizdir. Shunday qilib, kompyuter avvaldan tuzilgan programma asosida ishlaydi. O'z navbatida programma qo'yilgan masalani kompyuterda yechish uchun qandaydir programmalash tilida yozilgan buyruqlar (operatorlar) ketma-ketligidir. Programmalash tilida tuzilgan programmalar maxsus tarjimon programmalar yordamida kompyuter tiliga o'tkaziladi. Kompyuter tili 0 va 1 lardan tashkil topgan, ma'lum qoidalar asosida yoziladigan ketma-ketliklardan iborat. Djon Fon Neyman prinsipi bo'yicha avtomatik ravishda bajariladigan programma avval kompyuterning xotirasiga kiritiladi (yuklanadi). Xotirada turgan programma asosida programmani tashkil etuvchi har bir operator ketma-ket bajariladi.

Boshqaruv qurilmasi deb ataluvchi maxsus qurilma hozir qanday operator bajarilishi va undan keyin qaysi operator bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi va uning bajarilishini ta'minlaydi. Amal (arifmetik-mantiqiy) esa **protsessor** deb ataluvchi qurilmada bajariladi. Programma ishlash natijasi to'g'ridan-to'g'ri ekranda, yoki **tashqi qurilma** (chop qiluvchi mexanizm, grafik chizuvchi qurilma, video

qurilma va boshqalar) deb ataluvchi qurilmada ko'rilishi mumkin. Odatda kompyuter ikki qismdan: **Hardware** (kompyuterni tashkil etuvchilari – *kompyuterning qattiq qismlari*) va **Software** (kompyuterning programma ta'minoti – *kompyuterning yumshoq qismlaridan*) tashkil topgan deyiladi.

Shaxsiy kompyuterlar (inglizcha Personal Computers, qisqacha – PC) quyidagi qurilmalardan tashkil topgan:

- sistema bloki;
- monitor;
- klaviatura;
- sichqoncha;
- tashqi qurilmalar.

Kompyuterning qurilmalari sistema bloki.

Sistema bloki odatda desktop (yassi), yoki town (minora) ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Kompyuterning asosiy qismlari sistema blokida joylashgan bo'lib, ular quyidagilardir:

Tezkor xotira (RAM – Random Access Memory – ixtiyoriy kirish mumkin bo'lган) *mikroprotsessor*, *qurilmalar nazoratchilari*, (ya'ni kontrolerlar, adapterlar, elektr manbai bilan ta'minlash bloki), *yumshoq disk qurilmasi* (FDD-Floppy Disk Driver), *qattiq disk qurilmasi* (HDD-Hard Disk Driver), *faqat o'qish uchun mo'ljallangan lazer disk qurilmasi* (CD ROM-Compact Disk Read Only Memory), *shinalar*, *modem* va boshqa qurilmalar. Sistema blokiga uning parallel (LPT) va ketma-ket (COM) portlari orqali ko'plab tashqi qurilmalarni ulash mumkin.

Mikroprotsessor. Mikroprotsessor kompyuterning amal bajaradigan qismi bo'lib, u ma'lumotlarni berilgan programma asosida qayta ishlaydi.

Mikroprotsessor 140 tacha turli arifmetik va mantiqiy amallarni bajaradi. IBM rusumli kompyuterlarda Intel tipidagi (shu nomli firma ishlab chiqqan) mikroprotsessorlar ishlataladi. Bu firma o'z faoliyati mobaynida Intel-8080, 80286, 80386, 80486, Pentium, Pentium Pro(professional) mikroprotsessorlari ishlab chiqargan bo'lib, hozirda faqat zamon talablariga javob beradigan **Pentium-3**, **Pentium-4** protsessorlarinigina bozorga chiqarmoqda, xolos. Shuni aytish joyizki, bu protsessorlar faqat Intel firmasida ishlab chiqarilishi shart emas.

Uning litsenziyasi asosida bunday mikroprotsessorlarda ishlab chiqarilishi shart emas. Uning litsenziyasi asosida bunday mikroprotsessorlar, ishchi kuchi arzon bo’lgan, Janubiy- Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ko’plab ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, *IBM kompyuterlariga moslik* shartini bajaradigan boshqa firmalar: AMD, Cyrix, Celeron va hokazo ishlab chiqqan mikroprotsessorlar ham keng qo’llaniladi. Ammo boshqa firmalar ishlab chiqqan mikroprotsessorlar Intel-protsessorlardan umuman aytganda kuchsizroq hisoblanadi. Hozirda MMX – protsessorli kompyuterlar keng qo’llaniladi. Protsessorlarning tezligi megagerslar (Mgs) sekundda o’lchanadi.

MMX Pentium protsessori. Intel firmasining keyingi avlod protsessori sifatida 1997 yil yanvar oyidan boshlab chiqarilayotgan **MMX (Matrix Multiplication Extension)** **Pentium** protsessorini aytish mumkin. Dastavval bu protsessor matritsalarni ko’paytirish uchun kengaytma nomi bilan atalgan bo’lsa, keyinchalik MultiMedia YExtension – multimedia uchun kengaytma deb atala boshladи. Bu yangi protsessorni ishlab chiqishdan maqsad, keyingi yillarda ommaviy qo’llanilib borilayotgan kompyutering multimedia (ovozi, grafik, tasvir) imkoniyatlarini har tomonlama barkamollik darajasiga ko’tarish, multimedia amaliyotlarni tez bajarishni ta’minlashdan iborat. Bu amallar qatoriga, jumladan multimedia berilganlarini, ikki va uch o’lchovli grafikalarni tez bajarish kiradi. Shu bilan birga bu protsessor ko’paytirish va qo’shish amallarini ko’proq ishlataligani amaliy programmalarda amallarni tezroq bajarishga qaratilgan. Shuning uchun ham uni ko’proq matematik soprotsessorni talab qilmaydigan, butun sonlar bilan ishlash bilan bog’liq masalalarni yechishda qo’llash maqsadga muvofiq bo’lsada, tajribalar uning har tomonlama ustunligini ko’rsatadi.

Hozirda rivojlanayotgan parallel algoritmlar va hisoblashlar uchun ham u qo’l keladi. Shu bilan birga bu protsessor suzuvchi vergul rejimidagi sonlar bilan ishlashni “yoqtirmaydi”. Bunday sonlar bilan ishlash uchun maxsus programma interfeysi mavjud. U Microsoft firmasining **Direct 3D** (3 o’lchovli interfeysi)dir. Shuning uchun ham uning hozirda ko’p tarqalayotganligiga ajablanmasa ham bo’ladi.

Xotira. Xotira kompyuterda programmalar va berilganlarni, amal natijalarini saqlaydigan qurilma. Xotiraning turlari ko’p: tezkor, doimiy, tashqi, kesh, video va boshqalar.

Tezkor xotira kompyuterning muhim qismi bo'lib, protsessor undan amallarni bajarish uchun programma, berilganlarni oladi va amalni bajarib, natijani yana unda saqlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kompyuter o'chirilsa, tezkor xotirada saqlanayotgan programmalar va berilganlar yo'q bo'lib ketadi. Shuning uchun ularni qattiq diskda, yoki disketalarda saqlab qolish kerak. Kompyuter ishlab turganda elektr tokini ogohlantirmasdan o'chirish, umuman aytganda, katta zarar keltirishi mumkin. Barcha turdag'i xotiralar uchun muhim tushuncha uning hajmidir. Kompyuterlarda ma'lumot birligining eng kichik o'lchovi sifatida **bayt** qabul qilingan bo'lib, 1 bayt 8 bit (ikkili raqam)ga teng. O'z navbatida bayt bir simvolni (belgini) tasvirlaydi. Familiyangizni kompyuterga kiritish uchun familiyangizda nechta harf bo'lsa, u xotirada shuncha bayt joyni egallaydi. Xotira hajmi birligi sifatida **kilobayt** qabul qilingan va u K bilan belgilanadi. O'z navbatida bir kilobayt 1024 baytga teng. 1024 kilobayt esa 1 Mbayt (Megabayt)ga teng.

Xotiraning katta-kichikligiga qarab u, yoki bu programmalar majmuini ishlata olish mumkin. Misol uchun 1 Megabayt xotiraga ega kompyuterlarda faqat DOS sistemasida ishlash mumkin bo'lsa, 4 Megabaytli kompyuterlarda imkoniyatlari ko'proq bo'lgan programmalarini, xususan WINDOWS 3.1,3.11 programmalarini ishlatish mumkin. WINDOWS 95 ni to'laqonli ishlashi uchun 16 Megabayt xotira va kamida 486 protsessorli kompyuter, WINDOWS 98, 2000 operatsion sistemasida ishlash uchun, Foto Shop, Corell Drawe va boshqa hozirgi zamon programmalarini ishlatish uchun kamida 32 Mbayt xotirali va PENTIUM_2,3 protsessorli kompyuterlar lozimdir. Bu ko'rsatkichlar yangi protsessorlar va programma mahsulotlarini paydo bo'lishi bilan yil sayin oshib boradi.

Doimiy xotira. Kompyuterlarda berilganlar unga avvaldan joylashtirilgan *doimiy xotira* (BIOS-Basic Input-Output System-kiritish chiqarishning asosiy sistemasi) mavjud. Bunday xotiradan faqat o'qish mumkin. Shuning uchun ham u ROM (Read Only Memory – faqat o'qish uchun) deb ataladi. IBM PC kompyuterlarda bu xotira kompyuter jihozlarini ishlashini tekshirish, operatsion sistemasini boshlang'ich yuklanishini ta'minlash, qurilmalarga xizmat ko'rsatishning asosiy funksiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.

Kesh xotira. *Kesh xotira* kompyuterning ishlash tezligini oshirish uchun ishlatiladi. U tezkor xotira va mikroprotsessor orasida joylashgan

bo'lib, uning yordamida amallar bajarish tezkor xotira orqali bajariladigan amallardan ancha tez bajariladi. Shuning uchun kompyuter xotiraning ko'proq ishlataladigan qismi nusxasini kesh xotirada saqlab turadi. Mikroprotsessoring xotiraga murojaatida, avvalo, kerakli programma va berilganlar kesh xotirada qidiriladi. Berilganlarni kesh xotirada qidirish vaqtin tezkor xotiradagiga nisbatan ancha kam bo'lgani uchun kesh xotira bilan ishlash vaqtin ancha kam bo'ladi. PENTIUM_2,3 kompyuterlarda kesh xotira hajmi 512 K ni tashkil qiladi.

Videoxotira. Videoxotira monitor ekraniga video ma'lumotlarni (videotasvirlarni) saqlab turish uchun ishlataladi. Shuni aytish lozimki, videotasvirlar (ayniqsa rangli) kompyuter xotirasida ko'p joy egallaydi. Shuning uchun video xotira hajmi qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi albatta. Videoxotiraning 1 Mbaytdan kam bo'limgani yaxshi.

Shina. Kompyuterda har bir qurilmaning ishini boshqaruvchi elektron sxemalar mavjud bo'lib, ular adapterlar (moslovchilar) deb ataladi. Barcha adapterlar mikroprotressor va xotira orqali berilganlarni ayrboshlovchi magistral yo'l deb ataluvchi shinalar orqali bog'langan bo'ladi. Shunday qilib, oddiy so'z bilan aytsak, shinalar turli qurilmalarni bog'lovchi maxsus simlardir. Kompyuterda bir qancha shinalar bo'lishi mumkin. Kompyuterlarning elektron sxemasi elektron plata deb ataluvchi modullardan iborat. Uning modul tuzilishiga ega bo'lishi kompyuterlar ta'mirini oson bajarish, uni foydalanuvchi ehtiyojiga qarab yig'ish va o'zgartirish imkoniyatini beradi.

Sistema platasi kompyutering asosiy platasi hisoblanib, unga BIOS, mikroprotressor, tezkor xotira, kesh xotira, shinalar joylashtirilgan bo'ladi. Bundan tashqari, unda ba'zi bir qurilmalar, ishni boshqaruvchi elektron sxemalar, klaviatura, disk qurilmalari adapteri ham joylashgan bo'ladi. Hozirda shinalarining PCI ISA turi keng ishlatalmoqda. Bunday shinalarining ma'lumot ayrboshlashi tezligi yuqori bo'lib, u orqali kompyuterga ko'p tashqi qurilmalarni ulash mumkin.

Kompyuterda kiritish-chiqarish portlari kontrolerlari mavjud bo'lib, ular sistema blokining orqa qismida joylashgan *slot* deb ataluvchi joylar orqali printer, sichqoncha va boshqa qurilmalar ulanishi uchun xizmat qiladi. Kiritish-chiqarish portlari parallel va ketma-ket bo'ladi va ular mos ravishda LPT1-LPT4 va COM1-COM3 deb

belgilanadi. Odatda LPT portga printer va COM portga faks-modem, sichqoncha va boshqa qurilmalar ulanadi.

Monitor. Monitor (display) kompyuterda matn va grafik ma'lumotlarni tasvirlash (ko'rish) uchun xizmat qiladi. Garchand tashqi ko'rinishidan u televizorga o'xshab ketsada, ular bajaradigan ishlari bilan keskin farq qiladilar. Monitorlar rangli va rangsiz bo'ladi. Kompyuter tarqatadigan nur umuman aytganda zararli, shuning uchun ham ba'zi kompyuterlarda past radiatsiya (Lowe radiation) so'zlarini uchratish mumkin. Lekin ularning inson organizmiga ta'siri tobora kamayib boradigan rusumlari yaratilmoqda. Buning misoli keyingi yillarda chiqarilgan 17-21 duymli SVGA (SUPER Video Grafic Adapter – kata video grafik adapter) monitorlarda nurlarning ta'sirini ancha kamaytirilishiga erishilganligini keltirish mumkin. Monitor asosiy xarakteristikalaridan biri uning tasvirlash qobiliyatidir. Tasvirlash qobiliyati ekranning gorizontali va vertikalidagi nuqtalar soni bilan beriladi. Masalan 14 duymli monitorda tasvirlash qobiliyati 800×600 , 15 duymli monitorda 1024×768 , 17 duymli monitorda 1280×1024 va 21 duymli monitorda esa 1600×1200 . Bundan tashqari, monitoring yana bir xarakteristikasi tasvirlarni hosil qiluvchi piksellar (nuqtalar) o'lchovining katta-kichiklidir. Tasvirlash qobiliyati 800×600 ga teng bo'lган monitorlarda piksel $0,31\text{mm}$ ga, 1024×768 ga teng bo'lган monitorlarda esa piksel $0,28$, yoki $0,25$ ga teng bo'lishi kerak. Monitoring tez ishlashi uning adapteriga bog'liq bo'ladi. Matn rejimida monitorlar nisbatan tez ishlasada, grafik rejimda u sekinroq ishlaydi. Uning tezligini oshirish yo'llari ham mavjud.

Tashqi qurilmalar. Tashqi qurilmalar quyidagi uskunalardan iborat: *Printer, skaner, modem, strimer, grafik quruvchi* va boshqalar.

Printer. Printerlar kompyuterda olingan natijalarni, programma va berilganlarni bosmaga chiqarish uchun ishlatiladi. Printer yordamida matnlarni, grafiklarni, rasmlarni bosmaga chiqarish uchun ishlatiladi. Printer yordamida matnlarni, grafiklarni, rasmlarni rangli va rangsiz ko'rinishda bosmaga chiqarish mumkin. Printerlar asosan uch xil bo'ladi: *matritsali, oqimli va lazerli*.

Matritsali printerlar nuqtalar yordamida bosmaga chiqaradi. Shuning uchun ham ularni nuqta-matritsali printerlar deb ham atashadi. Bunday printerlar nisbatan sekin ishlaydi, chop qilish sifati uncha yaxshi emas va chop qilish tezligi ham katta emas. Ular keng (A3) va oddiy (A4) chop etish formatiga ega. 24, 48 ignali (nuqtali) printerlar

mavjud bo'lib, albatta ignalar soni ko'pligi yaxshi ekanligi tushunarlidir.

Oqimli printerlar. Bunday printerlar maxsus (rangli va rangsiz) siyohlarni purkash yo'li bilan ishlagani uchun ular oqimli deb ataladi. Bu printerlarning turli ranglarda chop qilish sifati tiniq va ravshan bo'lib, ularning kamchiligi siyohining tez tamom bo'lib qolishi va uning nozikligidir. Bu printerlar matnlarni nisbatan tez, grafik tasvirlarni esa sekinroq chop etadi.

Lazer printerlar. Lazer printerlar ham sifati, ham tezligi jihatidan eng yaxshi printer hisoblanadi. Ular rangli va rangsiz bo'ladi.

Bunday printerlarning andozasi sifatida HEWLETT-PACKARD (HP) firmasi chiqaradigan HP LaserJet rusumli printerlar qabul qilingan. Lazer printerlarda chop etish juda qulay bo'lib, u tez (minutiga 8-15 hatto 40 varaqqacha) chop etishi mumkin. Ammo tabiiyki, bunday printerlarning narxlari nisbatan balandroqdir. Uning bir kamchiligi – unda ishlatiladigan toner rang va kartridjning tez almashtirib turilishidadir. Uning bir toneri taxminan 1500-2500 varaqqa yetadi. Albatta bu raqam tejab ishlatishga bog'liq albatta. Shuning uchun lazer printerda chiqarilgan nusxani kseroks orqali ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Modem. Modem modulyatsiya, demodulyatsiya so'zlaridan olingan bo'lib, uzluksiz signallarni raqamli (modulyatsiya) va raqamli ma'lumotlarni uzluksiz (demodulyatsiya) signalga almashtirib beradigan qurilmadir. Uning asosiy vazifasi kompyuterlararo aloqani o'rnatishdir. U o'zining kommunikatsion programmalariga ega bo'lib, bu programmalar yordamida uzoq masofalarga ma'lumotlarni uzatishi va qabul qilishi mumkin. Modem ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Hozirda ko'p kompyuterlar modem bilan birga sotilmoqda. Kompyuter telefon tarmog'i orqali axborot almashish maqsadida ishlatilayotganda, telefon tarmog'idan olingan signalni qabul qila oluvchi va uni raqamli axborotga aylantiruvchi qurilma lozim bo'ladi. Qurilmaning kirishida axborot modulyatsiya qilinadi, chiqishda esa aksincha, demodulyatsiyaga uchraydi, shundan *modem* nomi kelib chiqqan. Modemning asosiy vazifasi kompyuterdan kelgan signalni telefon tarmog'i ish chastotasi diapozoniga mos chastotadagi elektr signaliga aylantirishdan iborat. Bu tarmog'ning akustik kanalini modem quyi va yuqori chastota yo'laklariga ajratadi. Quyi chastotali yo'lak

ma'lumotlarni uzatishda ishlataladi, yuqori yo'lakli chastotalar esa qabul qilish uchun qo'llaniladi.

Modemning, yuqorida aytganimizdek, ikki turi mavjud: *ichki va tashqi modem*. Ichki modem plata ko'rinishida kompyuter ichiga maxsus joyga o'rnatiladi. Tashqi modem esa, ham faks ham modem rolini o'ynaydi va alohida qurilma sifatida kompyuterga ulanadi.

Modemlarning xalqaro standartlari: Eng ko'p tarqalgan modem birinchi modemlarni ishlab chiqargan firma nomi – HAYES deb nomlangan moslashtirilgan modemlardir. Bunday modemlar **Hayes Smart modem** bilan moslasha oluvchi AT buyruqlarni ishlataladi (inglizcha Attention diqqat so'zidan). Barcha Hayes – moslashgan modemlar uchun standart bo'lgan buyruqlardan tashqari, har bir ishlab chiqaruvchi foydalanuvchiga keng spektrdagи spetsifik buyruqlarni taklif etadi va bu buyruqlar o'sha firma modemlaridagina kuchga ega bo'ladi (masalan, **US Robotics, Rockwell, ZYXEL**, va h.k.).

Buyruqlar modem va telefon tarmog'i orqali uzatiladigan axborotning qaysidir bir standartiga xos bo'lishi kerak. 2400 bod (bod ma'lumotlarni uzatish tezligini belgilaydi va 1 bod =1 bit/sek.) tezlik uchun mos bo'lgan standartdagi modemlar axborotlari erkin almasha olishlari mumkin.

ZYXEL firmasining modemlari ham keng qo'llanila boshladи. Ular ZYXEL ning ma'lumotlarini uzatish imkonini beruvchi maxsus ZYX protokoliga ega. Ularning keng qo'llanilayotganlarini uzatish imkonini beruvchi maxsus ZYX protokoliga ega. Ularning keng qo'llanilishi 90-yillar xaridorlarining boshqa turdagи modemlarini xarid qilish imkonlari yo'qligidan kelib chiqadi. Ularning asosiy kamchiligi – yuqori narx, xaridorni cho'chitadi. Biroq, shunga qaramay, bank strukturasi va davlat idoralari, odatga ko'ra, shu firma modemlaridan foydalanadilar. Telebit firmasining **TraiBlazer** nusxasi va mashhur protokol **PEP (Packet Ensemble Protosol)** ham keng tarqalgan.

Skaner. Skaner-matn, grafika, tasvirlarni kompyuterga kiritishni avtomatlashtirish uchun xizmat qiluvchi qurilma. U hozir asosan rangli ko'rinishda chiqarilayapti. Uning andozasi sifatida HP (Hewlett Packard) firmasi ishlab chiqaradigan HP Scanjet rusumli skanerlar qabul qilingan.

Uning asosiy xarakteristikasi ma'lumotlarni aniq, tiniq, lozim bo'lgan rangda (xususan qora rangli) va ko'rinishda chiqarish

qobiliyatidir. Ushbu tasvirlash qobiliyati gorizontal va vertikal chiziqlardagi nuqtalar (piksellar) soni orqali belgilanadi.

Odatda bu xarakteristika, misol uchun, 300×600 , 600×1200 ko'rinishda bo'ladi. Bu degani gorizontal chiziqlar bo'yicha nuqtalar (piksellar) soni 300 (600), vertikal bo'yicha piksellar soni 600 (1200)ta ekanligini bildiradi. Nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa ma'lumotlar aniqroq tasvirga ega bo'ladi. Tabiiyki, skanerni HP dan boshqa firmalar ham ko'plab ishlab chiqaradi. Lekin ular HP Jcanjet andozasiga mos kelishi kerak. Hozirda bunday skanerlar Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ko'plab chiqarilmoqda. Shuni aytish lozimki, programma vositalari yordamida skanerning tasvirlash qobiliyati ancha kuchaytirilishi mumkin. Skanerlarni ishlatish jarayonida, ayniqsa, matnlar bilan ish ko'rilmaga u yoki bu milliy til drayverlarni aniq aks ettiruvchi programmalardan (masalan **Fine Reader**) foydalanish zarur.

Skanerni kompyuterga ulash uchun turli usullarda foydalaniladi. Ba'zi skanerlar maxsus kontrollerga (kengaytiruvchi plata) ega bo'lib, ular u orqali ulanadi. Bunda plata kompyutering asosiy platasiga (ona platasi) maxsus joyga va o'sha plata orqali o'rnatiladi.

Ba'zi skanerlar parallel portga to'g'ridan-to'g'ri ulanadi. Hozirda asosan SCSI-3 interfeysi orqali ulanadi. Bu andoza kompyuterga ko'plab tashqi qurilmalarni, shu jumladan, skanerni ulash imkoniyatini beradi. Turli kompyuterlar uchun programma birligini ta'minlash maqsadida **TWAIN** qaydnomasi ishlatiladi.

Demak, agar WINDOWSda shu qaydnama o'rnatilgan bo'lsa, u skanerlar bilan bemalol ishlay oladi. Odatda skaner sotib olinayotganda uni qaysi operatsion sistemaga mo'ljallanganini bilish lozim. Shu bilan birga hozirda chiqarilayotgan skanerlarning aksariyati WINDOWSGa mos skanerlardir. WINDOWS 98 dan boshlab esa operatsion sistemalar **TWAIN** qaydnomasini yaxshi taniydigan bo'ldi. Shuning uchun ham bu operatsion sistemalarda skanerlar bilan bevosita ishlash imkoniyati mavjud.

Lazerli (kompakt) disk. CD ROM (Compact Disk Read Only Memory – faqat o'qish uchun lazerli disk). Keyingi paytda bu qurilma juda muhim rol o'ynamoqda. Uning asosiy sababi unga 650 Mbayt hajmdagi ma'lumotni sig'ishi bo'lsa, ikkinchi tomondan uni ishlatishda qulayligi bilan alohida e'tiborga loyiq. Uning **CD ROM** va **CD Writer** (yozuvchi) ko'rinishdagilari mavjud bo'lib, birinchisi faqat o'qish uchun mo'ljallangan bo'lsa, ikkinchisi ma'lumot va programmalarni

yozish uchun keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, hujjatlarning elektron versiyasini bunday ma'lumot yuritgichi orqali ayriboshlash dolzarb masala bo'lib qoldi.

CD ROM ning muhim ko'rsatkichlaridan biri uning ma'lumot ayriboshlash tezligidir. Hozirda ko'proq 48, 52 tezlikli lazer disklar ishlatilmoqda.

Disketa. Ma'lumotlarni, programmalarni doimiy saqlash, ayriboshlash maqsadida disketalar ishlatiladi. Unga **FDD (Floppy Disk Driver** – egiluvchan disk qurilmasi) yordamida ma'lumotlar va programmalar yoziladi va undan o'qiladi. Hozirda **HD (Higy density** – yuqori zichlik) asosan hajmi 1,44, yoki o'ta yuqori 2,88 Mbaytga teng bo'lgani keng ishlatilmoqda. Ayni paytda 120 Mbayt siQimli **Floppy** disketalar ham ishlab chiqarilish arafasidadir.

Klaviatura va sichqoncha. Klaviatura va sichqoncha ma'lum ma'noda bir-birining o'rmini bosadigan, ma'lumotlarni kiritadigan va kompyuter bilan muloqot qilish vazifasiri o'taydigan qurilmalardirlar. Ularsiz kompyuterda xususan, operatsion sistemasida ishlab bo'lmaydi. Ular yordamida siz operatsion sistemaga va uning boshqaruvi ostida ishlaydigan programmalarga buyruqlar, shuningdek, bu qurilmalar yordamida programmalarga kerak bo'lgan ma'lumotlar kiritiladi.

Sichqoncha. Sichqoncha odatda ikki, yoki uch klavishali bo'ladi: chap, o'ng va o'rta. Chap va o'ng klavishalar programma asosida almashtirilishi mumkin. Odatda chap klavisha yordamida asosiy amallar (ajratish, surish, bajarish va h.k.) bajariladi. O'ng klavisha kontekst meny deb ataluvchi amallarni bajarish uchun xizmat qiladi. Kontekst menyning vazifasi joriy holatda u, yoki bu amalni tezroq bajarish bilan bog'liq. O'rta klavisha hozirda xususan, varaqlash (Page Down, Page Up amaliga o'xshab) maqsadlari uchun qulay.

Klaviatura. Klaviatura 101-105 klavishlardan iborat.

O'z vazifalariga ko'ra klavishlar beshta guruhga bo'linadi:

1. Harflar va sonlarni kiritadigan klavishlar. Ular oddiy yozuv mashinkalarning klavishlariga o'xshaydi.
2. Boshqaruvga oid klavishlar.
3. Funksional yoki amal klavishlar.
4. Kichik sonlar kiritadigan klavishlar.
5. Maxsus belgilardan iborat klavishlar.

Eng katta guruh – birinchi guruh bo'lib, ular yordamida rus va lotin katta-kichik harflari, sonlar, maxsus belgilar, tinish belgilari

kompyuterga kiritiladi. Pastda joylashgan uzun, hech qanaqa belgisi bo'lmagan klavishning nomi **Spacerbar**, yoki **Space** deb ataladi va bo'shliq belgisini kiritishga mo'ljallangandir. Boshqa klavishlar bir necha nomga ega, chunki ular klaviaturaning ish tartibiga (registriga) qarab turli belgilarni kiritishga mo'ljallangan.

Pastki registrda kichik yuqori registrda esa katta harflar kiritiladi.

Rus alifbosidan lotin (ingliz) alifbosiga, yoki aksinchada, lotinchadan ruschaga o'tish siz ishlaydigan programmaga bog'liq. Masalan, **WINDOWS** da alifbo avtomatik ravishda tanlanadi. (Ekranning eng pastki qismida).

Ekranga belgi tushadigan joy maxsus usul bilan belgilanadi. Buning uchun maxsus belgi bor, u *cursor* deb ataladi. Agar ekran matn kiritish holatida ishlab turgan bo'lsa, unda cursor o'chib-yonib turadigan vertikal chiziqcha, yoki harfning ustiga tushadigan to'rtburchakka o'xshaydi va *matn cursori* deb nomlanadi.

Boshqarishga oid klavishlar har xil boshqarish vazifalarini bajaradi. Ayrim klavishlar, masalan: **CAPSLOCK**, **NUMLOCK** va **SCROLL LOCK** klavishlarining ishlash vazifasini o'zgartirib turadi. "**SHIFT**", "**CTRL**", "**ALT**" klavishlari boshqa klavishlar bilan birga ishlaydi.

Masalan, "**CTRL + ALT + F**" degani "**CTRL, ALT**" va "**F**" klavishlarini birdaniga bosishni bildiradi.

"**F1**" dan "**F12**" gacha bo'lgan klavishlar funksional klavishlar deb nomlanadi. Dastur tuzilishiga qarab, ushbu klavishlar har xil vazifalarni bajarishi mumkin. Bular 12 ta bo'lishiga qaramasdan, ko'pincha "**F1**" dan "**F10**" gachasi ishlataladi. Odatda **F1** klavishi yordamchi ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladi (*Spravochnik*).

"**Num Lock**" (sonlarni saqlash) – sonlar kiritishning kichik klaviaturasi sonni kiritishga yoki kursorni boshqarishga moslaydi. Sonlarni kiritish klavishlari ikki rejimda ishlashi mumkin:

- 1) sonlarni kiritishda,
- 2) kursorni boshqarishda.

Ikki holatning biridan ikkinchisiga o'tishni **Num Lock** (mahkamlash bilan), yoki Shift klavishi (mahkamlash kerak emas) bajaradi. Bunda **Caps Lock** klavishi sonlarni kiritish klaviaturasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Sonlarni kiritish paytida sonlarni kiritish klaviaturasi kalkulatorning klaviaturasiga o'xshaydi. Sonlarni va arifmetik amallar

belgilarini kiritish uchun qulaylik yaratadi. Sonlarni kiritgan paytda **Num Lock** chirog'i yonib turishi kerak, agarda **Num Lock**ni ko'rsatuvchi chiroq o'chgan bo'lsa, ushbu kichik klaviatura bilan kursorni boshqarish mumkin.

Ctrl (*Control*-boshqarish) – boshqa klavish bilan birga bosilganda, o'sha klavishning vazifasi o'zgaradi, **ALT** (Alternative – o'zgartiruvchi) – bu klavish ham boshqa klavishlar bilan birga bosilganda, o'sha klavishning ish vazifasini o'zgartiradi.

Print Screen (ekrandagi chop etish) – ushbu klavish ekranda bo'lgan ma'lumotni printerga chiqarib beradi.

PAUSE (vaqtinchalik to'xtash) – ushbu klavish bosilganda kompyuter o'z ishini vaqtincha to'xtatadi.

TAB (tabulyatsiya so'zidan) – faqat pastdagi registrda ishlaydi va gap matn, hujjatlar haqida ketganda, kursorni o'ng tomonga, navbatdagi maxsus ko'rsatilgan (belgilangan) nuqtaga (pozitsiyaga) suradi. Bu klavishning qulayligi shundaki, uning yordami bilan jadvallar tuzish oson va matnni yozganda ham belgilangan pozitsiyadan boshlab terish mumkin. Klavishlarni yuqori registrda bosganda, kursorni chap tomonga, belgilangan pozitsiyaga surish mumkin.

BackSpace (Orqaga qaytish) – qaytarish klavishi. Bu klavisha yordamida, matn terish paytida, ekrandagi kursordan chap tomondagi xato terilgan belgilarni o'chirish mumkin. Kursorning o'zi esa bitta belgi chap tomonga suriladi.

Enter (kiritish) – kiritish klavishi. Matn terish paytida ushbu klavish bosilsa, kursov yangi abzatsga (satrga) o'tadi.

Caps Lock (bosh, yoki kichik harflarga o'tish klavishi) – yuqori registrga o'tish imkonini yaratib beradi. Haqiqatda esa ushbu klavish faqat harflar terish klavishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, bosh harflar kiritish imkonini yaratib beradi. Bu klavishni bosib ushlab turish kerak emas. Ishlovchiga qulaylik yaratish maqsadida klaviaturaning o'ng burchagida yonib turadigan indikatorlar joylashgan. Bu indikatorlar rejimni ko'p vaqt davomida saqlab turadigan klavishlar bilan bog'langan. Shularning ichida bittasi **Caps Lock** ga tegishli.

Scroll Lock (surishni saqlaydi) – bu klavish yordamida kursorni harakatga keltirmoqchi bo'lsangiz, kursov ekranga sakraydi. Bu klavish ham o'z holatini mustahkamlash (fiksatsiya) bilan bajaradi.

Shift (surish) – vaqtinchalik yuqori registrdan pastki registrga, yoki aksincha, pastki registrdan yuqori registrga o'tish imkonini beradi.

Hammasi **Caps Lock** klavishining holati bilan bog'langan. Bu klavishning xizmati vaqtinchalik bo'lganligi sababli, boshqa klavishlarning xizmatini o'zgartirish kerak bo'lsa, ularni bosish paytida **Shift** klavishi vaqtinchalik bosib ushlab turiladi.

Quyida klavishlar va ular bajaradigan vazifalarni ko'rib chiqamiz.

Ekranda ko'rsatilgan obyektni surish, yoki ko'chirish. Ekranda ko'rsatilgan obyektni topib, chap klavisha bosiladi va klavishani qo'yib yubormasdan, obyektni yangi joyga suriladi va sichqoncha klavishasi qo'yib yuboriladi. Windows muhitida ishlayotganda ekrandagi obyektlarni ham chap, ham o'ng tomonda joylashgan klavishalar bilan ko'chirish mumkin.

Chap klavisha bosilganda, mo'ljallash bo'ladi, o'ng klavisha bosilganda esa aniq vazifa berish kerak bo'ladi.

Sichqoncha yordamida quyidagi asosiy harakatni bajarish mumkin:

- 1) **Point** – ko'rsatkichni ekranning kerakli joyiga ko'chirish;
- 2) **Slick** – sichqoncha klavishasini bosib darhol qo'yib yuborish;
- 3) **Double click** – sichqoncha klavishasini ikki marta tez bosish;
- 4) **Select** – biror obyektni tanlash.

Tanlab olingen tasvir, matn qismi, yoki grafik simvollarni boshqa joyga ko'chirish (**Drag and Drop** texnologiyasi) mumkin. Buning uchun tanlab olingen obyekt ustiga ko'rsatkichni olib borib, sichqoncha klavishasi bosiladi va obyektni kerakli joyga ko'chiriladi, so'ngra sichqoncha klavishasi qo'yib yuboriladi. Windowsda sonlarni kiritish klaviaturasini sichqoncha o'rnila ishlatish mumkin. Bunday holat har xil sabablarga ko'ra, sichqoncha ishlamay qolganda yuz berishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Boshqaruv tizimi komponentlari va ularning vazifalarini aytib bering.
3. To'g'ri va aks aloqalarni tushuntirib bering.
4. Axborot tizimlarining qanday turlarini bilasiz?
5. Axborot tizimlarida qanday jarayonlar ro'y beradi?
6. Axborot ta'minoti nimalarni o'z ichiga oladi?
7. Diskli jamlagichlarning qanday turlari bor?

4-MAVZU. KOMPUTERLARNING DASTURIY TA'MINOTI, ULARNING TURLARI. ZAMONAVIY WINDOWS DASTURIDA İSHLASH. FAYL, PAPKA VA DISKLAR BILAN ISHLASH. AXBOROTLARNİ HİMOYALASH, ARXİVLASH VA KOMPYUTER VİRUSLARI.

Reja:

1. Komputerlarning apparat va dasturiy ta'minoti, ularning turlari.
2. Windows OT dasturida ishlash. Fayl, papka va disklar bilan ishlash.
3. Axborotlarni himoyalash, arxivlash, kompyuter viruslari va antivirus dasturlari.


Ma'lumki, kompyuter texnologiyalari faqat chegaralangan amallarnigina bajarishga mo'ljallangan boshqa elektron qurilmalardan (telefon, magnitofon, televizor va h.k.dan) farq qilib, kiritilgan ma'lumotlar ustida xilma-xil amallarni bajarishi mumkin. Buning uchun shu texnologiyalarning asosi bo'lmish kompyuter tushinadigan tilda kerakli ko'rsatmalar (dasturlar) tuzib, uning xotirasiga kiritish kerak. Shunday dasturlarning majmui **kompyuter dasturiy ta'minotini** tashkil qiladi va ularning imkoniyatlarini, quvvatlarini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib, u ma'lumotlarga ishlov beruvchi dasturlar majmuasini va kompyuterni ishlatish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Kompyutering imkoniyatlarini kengaytiradigan va turli vazifalar bajarishini ta'minlaydigan vosita bu albatta dasturiy ta'minotdir. Dasturiy ta'minot odatda kompyutering qattiq diskida saqlanadi va kompyuter yoqilishi bilan maxsus dastur – operatsion sistema ishga tushadi.

Dasturiy ta'minot, yoki **software** bu komputerda ma'lum bir turdag'i vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vositadir. Aynan shu dasturiy taminotgina komputer – „**quruq temir**“ degan atamani yo'qqa chiqargan. Dasturiy vositalar komputer tomonidan qo'llaniladigan barcha dasturlar to'plamidir (qarang: 4.1.-rasm).

Ingiliz tilida bu atama **software**, ya'ni „soft“ – yumshoq, „ware“ - «**maxsulot**» degan ma'noni bildiradi. Dasturiy ta'minot 3 guruhga bo'linadi:


- ❖ **tizimli** (unga turli yordamchi vazifalarni bajaruvchi dasturlar kiradi: task manager (windows osda mavjud));
- ❖ **amaliy** (unga foydalanuvchiga aniq bir foydalanish sohasida ma'lumotlarga ishlov berish va qayta ishlashni amalga oshiruvchi dasturlar, masalan: ***microsoft office, adobe cc***);
- ❖ **uskunaviy** (bular dasturlash uchun ishlataladigan dasturlar).



4.1.-rasm. Kompyutering dasturiy ta'minoti.

Tizimli dasturiy ta'minot (Sistem software) – kompyutering va kompyuter tarmoqlarining ishini ta'minlovchi dasturlar majmuasidir. Tizimli dasturlar ta'minoti deganda avvalo operatsion tizim tushuniladi. Operatsion tizim maxsus dastur, aniqrog'i dasturlar umumiyligi tizimda jamlashgan bo'lib, u kompyuter qurilmalarining ishini boshqaradi, turli qurilmalarining boshqa dasturlar tomonidan ishlatalishini tashkillashtiradi, bir necha dasturlarning birgalikda ishlashini xotira qurilmalarida ma'lumotlarni saqlanishi, ularning xafvsizligi va butunligi ta'minlaydi (qarang: 4.2.-rasm).

Operatsion sistemalar – kompyuter va foydalanuvchi o'rtaSIDA muloqot o'rnatish, kompyuterni va dasturlarni ishini boshqarish uchun mo'ljallangan. Misollar: MS DOS, Windows XP, Vista, Linux, Unix, OS/2, Mac X va boshqalar.



4.2.-rasm. Tizimli dasturiy ta'minot (Sistem software).

Fayl menejerlari – fayl va kataloglar (katalog, direktoriy) ustida bir qator amallarni bajarish imkonini beradi – yaratish, o’chirish, nusxa ko’chirish, nomini o’zgartirish, ko’chirish, tahrirlash, ochib ko’rish va hokazo. Misollar: Norton Commander, Dos Navigator, Far Manager, Volkov Commander, Total Commander va boshqalar.

Antivirus – kompyuterni viruslardan saqlash va himoyalash, qattiq disk, media vositalarni virusga tekshirish va davolash vazifalarini bajaradigan dastur. Misollar: Norton Antivirus, NOD32, MacAfee Antivirus, Panda Antivirus, DrWeb, Antivirus Kasperskogo va boshqalar.

Arxivator – kompyuterdagи ma’lumotlarni ixcham shaklga keltirish, ya’ni arxivga joylashtirish, chiqarish, yangilash kabi vazifalarni bajaradigan dastur. Misollar: ARJ, RAR, ZIP, WinZip, WinAce, WinRAR va hokazo.

Tarmoq dasturlari – tarmoqlarda kompyuter ishlarini boshqarishda asosiy vazifani bajarishadi.

Amaliy dasturiy ta’midot (Aplication program paskage) – bu aniq bir predmet sohasi bo’yicha ma’lum bir masalalar sinfini yechishga mo’ljallangan dasturlar majmuasidir. Kompyuterdan amaliy maqsadda foydalanish imkonini beruvchi, masalan matn tayyorlash, elektron jadvallar bilan ishlash, Ma’lumotlar bazasini yaratish va yuritish, biror fan bo’yicha o’rgatish va sinov ishlarini amalga oshiruvchi dasturlar, grafik va video axborotlarni qayta ishlash, internetdagи Web saytlarni ko’rish uchun mo’ljallangan brauzerlar va shunga o’xshash maqsadlarda ishlatiluvchi dasturlar amaliy dasturlardir. Kompyuterlar dasturiy ta’midotining aksariyat qismini amaliy dasturlar tashkil etadi.

Matn muharriri – matn kiritish, tahrirlash, saqlash va ochish, chop etish, matnni formatlash kabi vazifalarni bajaradigan dastur. Misollar: MS Word, Lexicon, Wordpad, Notepad va boshqalar.

Elektron jadvallar – jadvalga matn, raqam va formula kabi ma’lumotlar kiritib, ular ustida hisob-kitoblar bajarish, diagrammalar yaratish imkonini beradigan dastur. Misollar: Lotus, MS Excel va boshqalar.

Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi – ma’lumotlarni maxsus jadvallarga kiritib, tartibga solish, kerakli ma’lumotni izlash, ma’lumotlar omborini yaratish kabi vazifalarni bajaradigan dastur.

Misollar: MS Access, Foxpro, Clipper, Paradox, Oracle va boshqalar.

Taqdimot yaratish – har xil mavzuda namoyish va taqdimot yaratish, ularga jadval, rasm, audio, video va multimedia ma'lumotlarni tadbiq etish imkoniyatlariga ega bo'lgan dastur. Misollar: MS PowerPoint, Macromedia Director va hokazo.

Grafik muharir – rastrli, vektorli va boshqa grafikani yaratish, tahrirlash, ishlov berish kabi vazifalarni bajaradigan dastur. Misollar: Adobe Photoshop, Corel Draw, Macromedia Flash, Macromedia FreeHand, Adobe Illustrator, 3D Studio Max, Maya va hokazo.

Multimedia dasturlari – mazkur dasturlar toifasi har xil turdag'i multimedia axborot fayllarini (audio, video va hokazo) ochish va ijro etish va ular ustida boshqa har xil amallarni bajarish imkoniyatini yaratuvchi dasturlar. Misollar: Sound Forge, Cakewalk, WinAmp, Windows Media Player, DivX Player va boshqalar.

Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari – yangi dasturlarni ishlab chiqish jarayonida qo'llaniladigan maxsus dasturlar majmuasidan iborat vositalardir. Bu vositalar dasturchining uskunaviy vositalari bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ular dasturlarni ishlab chiqish (shu jumladan, avtomatik ravishda ham), saqlash va joriy etishga mo'ljallangan.

Hozirgi paytda dasturlash texnologiyasining uskunaviy dasturiy vositalarini yaratish bilan bog'liq yo'nalish tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday uskunaviy vositalar dasturlar yaratish va sozlash uchun quvvatli va qulay vositalarni tashkil etadi. Ularga **dasturlar yaratish vositalari** va **Case – texnologiyalar** kiradi.

Dasturlar yaratish vositalari. Ushbu vositalar dasturlar yaratishda ayrim ishlarni avtomatik ravishda bajarishni ta'minlovchi dasturiy tizim larni o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- kompilyator va interpretatorlar;
- dasturlar kutubxonasi;
- turli yordamchi dasturlar.

Kompilyatorda stukturalash tilidagi dasturni mashina kodidagi dasturga aylantirib beradi. Interpretator yuqori darajadagi dasturlash tilida yozilgan dasturning bevosita bajarilishini ham ta'minlaydi.

Dasturlar kutubxonasi – oldindan tayyorlangan dasturlar to'plamidan iborat.

CASE – texnologiyasi informatikaning hozirgi paytda eng tezkoq

rivojlanayotgan sohalaridan biridir. **CASE** – Computer Aided Sistem Engineering – axborotlar tizimini avtomatlashtirilgan usulda loyihalash degani bo’lib, **CASE** –texnologiyasi turli mutaxassislar, jumladan, tizimli tahlilchilar, loyiha chilar va dasturchilar ishtirot etadigan ko’pchilikning qatnashishi talab etiladigan axborot tizimlarini yaratishda qo’llaniladi.

Interfeys tushunchasi va uning turlari. Kompyuterning apparat va dasturiy ta’mnoti orasida bog’lanish *interfeys* deb atalishini bilib olishimiz lozim. Kompyuterning turli texnik qismlari orasidagi o’zaro bog’lanish – bu, *apparat interfeysi*, dasturlar orasidagi o’zaro bog’lanish esa – *dasturiy interfeys*, apparat qismlari va dasturlar orasidagi o’zaro bog’lanish – *apparat – dasturiy interfeys* deyiladi.

Shaxsiy kompyuterlar haqida gap ketganda kompyuter tizimi bilan ishlashda uchinchi ishtirotkchini, ya’ni insonni (foydalanuvchini) ham nazarda tutish lozim. Inson kompyuterning ham apparat, ham dasturiy vositalari bilan mulokotda buladi. Insonning dastur bilan va dasturni inson bilan o’zaro muloqoti — *foydalanuvchi interfeysi* deyiladi.

Foydalanuvchi interfeysi (muloqoti). Foydalanuvchi va operatsion tizim o’zaro muloqoti har doim bir operatsion tizim uchun maxsus qoidalar asosida amalga oshiriladi. Bu qoidalar foydalanuvchi Interfeysi tashkil etadi. Foydalanuvchining u, yoki bu dasturiy tizim bilan o’zaro muloqoti standart kelishuvlari qoidalari, usullari va vositalari majmuasi **foydalanuvchi interfeysi** deyiladi. Operatsion tizimning foydalanuvchi interfeysining quyidagi 3 ta ko’rinishi mavjud: **matnli, jadvalli va grafik**.

Foydalanuvchi matnli interfeysi MS DOS, Unix, Linux va boshqa operatsion tizimlarda ishlataladi. Bunda operatsion tizim va foydalanuvchi o’rtasidagi muloqot dialog ko’rinishida amalga oshiriladi. Bu degani, operatsion tizim yuklangandan so’ng foydalanuvchining buyruq va ko’rsatmalarini qabul qilishga tayyorligi haqida signal beradi. MS-DOS operatsion tizimda bu signal ekranada kiritishga taklif ko’rinishida bo’ladi. Odatda, taklif > simvolidan iborat bo’lib, uning chap tomonida yordamchi xizmatchi ma’lumot chiqishi, masalan biror disk qurilmasi nomi, joriy vaqt va h.k.lar bo’lishi mumkin. Masalan: 07- 04-03 C:/> taklif joriy vaqt 7 aprel 2003 yil ekanligi va joriy qurilma “C” – diskini ekanligini bildiradi. Foydalanuvchi OTning biror funksiyani bajarishni so’rashi uchun, klaviaturadan > simvolning o’ng tomoniga operatsion tizimga buyruq

ko'rsatma kiritadi. **Masalan**, kompyuterga o'rnatilgan operatsion tizim versiyasini aniqlash uchun quyidagi buyruq beriladi: 07-04-02 C:/> Ver. Masalan, kompyuterga MS DOSning 6–22 versiyasi o'rnatilgan bo'lса, display ekranida MS DOS Version 6.22. Foydalanuvchi buyrug'i bajarilgandan so'ng, yana ekranga taklif belgisini chiqaradi va keyingi buyruqni kutadi. Shunday qilib, foydalanuvchi va operatsion tizim orasidagi muloqot matnli so'zlarni almashinushi tariqasida ro'y beradi, shuning uchun ham muloqot "matnli" deb ataladi. Foydalanuvchi buyrug'i, displayda bir qatorni egallagani uchun, bu qator buyruq qatori (командная строка) va muloqot – buyruq qatori interfeysi deb ataladi.

Foydalanuvchi jadvalli interfeysi MS-DOS operatsion tizimi bilan ishlash tajribasi, ko'pgina foydalanuvchilar uchun matnli muloqot murakkab va noqulay tuyulardi, chunki ish uchun zarur ko'p sonli buyruqlarni yozish qoidalarini eslab qolish kerakligini ko'rsatdi.

Shuning uchun ham turli, foydalanuvchiga OT bilan qulay muloqat yaratib beradigan yordamchi dasturlar ishlab chiqsa boshladilar. Bunday dasturlar qobiq (оболочка) dasturlar nomini oldi. OTga yordamchi bo'lган bunday qobiq dasturlar, OTning hamma imkoniyatlari bilan ishlashni ta'minladi va foydalanuvchi va OT muloqoti stili va qoidalarini o'zgartirib yuboradi.

Shunday qilib, qobiq dastur deb, foydalanuvchi va OT o'rtasida qulay muloqotni ta'minlovchi dasturga aytildi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, qobiq dasturlar emas, ular faqat o'zi qaysi OT uchun yaratilgan bo'lса, o'shalar bilan birgalikda ishlaydi.

Turli qobiq dasturlar, foydalanuvchining turli xil muloqotidan foydalanadi. Masalan, Norton Commander, yoki Far jadval interfeysidan foydalanadi. Bunda hamma buyruqlarni, yoki uning elementlari tayyor jadvaldan foydalanib tanlanadi, buyruq matn shaklida kiritilmaydi.


Ammo jadval interfeysiда matn interfeysiдан foydalanish imkoniyati jadval ostidagi buyruq qatorini qo'shish orqali saqlab qolingga.

Foydalanuvchi grafik interfeysi. Hozirgi vaqtida grafik interfeysi ommaviyashib bormoqda, uning asosiy xususiyati dastur, qurilma, biror-bir harakat uchun tez esda qoladigan shartli belgilar ishlab chiqilganidir. Foydalanuvchi kerakli belgini ma'lum tarzda ko'rsatsa, OT shu belgi bilan harakatni bajaradi. Grafik interfeysi, hozirgi

zamonaviy OT lari Win9x Win NT 2000 XP uchun asosiy hisoblanadi.

Windows OT dasturida ishlash. Fayl, papka va disklar bilan ishlash. Operatsion tizim foydalanuvchi va boshqa dasturlar orasida qulay muloqotni ta'minlaydi (interfeys). Operatsion tizim deb, kompyuterning apparat va dasturiy resurslari bilan bog'lanishi avtomatlashtirishni ta'minlovchi dasturlar majmuasiga aytiladi.

Dastlabki operatsion tizim – DOS (Disk Operation System) 1981 yili Microsoft firmasi tomonidan chiqarilgan. 16 razryadga ega bo'lgan operatsion tizim foydalanuvchi «buyruqlar satri» bilan muloqot qilgan va hech qanday grafik interfeysga ega bo'lmasligi. Hozirda ushbu operatsion tizim kompyuterlarga o'rnatilmaydi. Hattoki IBM firmasi tomonidan chiqarilayotgan PC-DOS 2000 modifikatsiyalangan rusumlari ham. 80-yillar ohirida yangilik olamida dastlabki Windows 3.x grafik muhitga ega bo'igan operatsion tizimlar chiqa boshladi. Windows 95 (yoki boshqacha nomlanishi Chicago) barcha kompyuter industriyasida yangi bosqichni vujudga keltirdi. Bugungi kunda kompyuterlarga asosan Microsoft firmasining operatsion tizimlari o'matilmoqda. Ular Windows 98, Memphis, Windows 2000, Windows Millennium Edition, Windows NT, Windows XP, Windows Vista, Windows 7. Ba'zi foydalanuvchilar boshqa firma tomonidan ishlab chiqilgan alternative sanalgan Linux, Unix, OS/2 kabi operatsion tizimlarni ishlatadi. Operatsion tizimlar tizimli dasturiy ta'minot asosi hisoblanadi. Operatsion tizimsiz kompyuter apparaturasi va dasturlari bilan bog'lanish mumkin emas. Hamma apparat va dastur vositalari bilan faqat "dallol" dasturi – operatsion tizim yordamida bog'lanish mumkin (qarang: 4.3.-rasm).



4.3-rasm foydalanuvchining kompyuter apparat va dasturiy vositalari bilan bog'lanishi

OT ning asosiy funksiyalari quyidagilardir:

- dasturlarni operativ xotiraga yuklash va ularning bajarilishini boshqarish;

- tashqi qurilmalar va bajarilayotgan dasturlar orasida ma'lumotlarni almashish amallarini ta'minlaydi;
- dasturlar bajarilishi vaqtida nostandard holatlarga xizmat qiladi;
- bajarilib bo'lingan dasturlarni operativ xotiradan olib tashlash va yangi dasturlarni yuklash uchun joy bo'shatish;
- dasturlar va ma'lumotlarni tashqi qurilmalarda qidirsh va saqlashni tashkil etish;
- foydalanuvchi va operatsion tizim o'zaro bog'lanishini tashkil etish
- foydalanuvchi buyruqlarini qabul qilish va bajarish;
- bir disk qurilmasidan boshqasiga nusha olish, disk qurilmalarini formatlash va boshqa turli yordamchi (servis-xizmatchi) funksiyalarini bajarish.

Operatson tizimning kiritish-chiqaresh asosiy tarkibiy qismi odatda kompyuter doimiy xotirasiga yoziladi, qolgan qismlari esa lazer, vinchester diskasi, yoki yumshoq diskda joylashtiriladi, u shuning uchun ham tizimli disk deb ataladi. Tizimli disksiz kompyuter printsip jihatdan ishlamaydi.

Operatsion tizim kompyuter ishlash borasida doimo ishchi holatda bo'ladi. OT ishi kompyuetr yoqilganda boshlanadi va uni o'chirilganda tugaydi. Operatsion tizimlar to'rtta asosiy sintlarga ajraladi:


- 1. Bir foydalanuvchili bir masalali**, bunda yagona klaviaturani himoya qiladi va u bilan ishlay oladi;
- 2. Bir foydalanuvchili bir masalali**, birgina qo'shimcha asosiy masalani ishga tushirish bilan, mo'ljallangan, qoidaga binoan, ma'lurnotlarni bosmaga chiqaresh. Bu katta hajmdagi axborotlarni bosmaga chiqarishni tezlashtiradi.
- 3. Bir foydalanuvchili ko'p masalali**, bitta foydalanuvchi parallel ravishda bir necha rnasalalar bilan ishlashi mumkin. Masalan bitta kornpyuterga bir necha printerlarni bog'lab, bir biriga tegishli bo'limgan o'zlarining topshiriqlarini hal etishlari mumkin.
- 4. Ko'p foydalanuvchili ko'p masalali**, bitta kompyuterdan bir necha masalalami, bir qancha foydalanuvchilar uchun ishga tushirish. Bunday OT juda ham murakkab va ahamiyatli mashina resurslarini talab etadi.

ShK uchun yaratilgan eng oddiy OT lardan biri, birmuncha eskirgan bir dasturli va bir foydalanuvchili MS DOS (Microsoft Disk Operation System) dir. Uning birinchi versiyasi 1981–1982 yillarda

ishlab chiqilgan Windows 9x operatsion tizimlar oilasi ko'p dasturli va bir foydalanuvchili OT lar hisoblanadi, WinNT/2000/XP va Linux OT lari ko'p dasturli va ko'p foydalanuvchili va tarmoq OT lar hisoblanadi.

Foydalanuvchining OT bilan eng qulay va ko'rgazmali munosabatda bo'lishida kompyuterning u, yoki bu imkoniyati va resurslariga murojaat qilishda foydalanuvchining grafik interfeysi muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Win OT ning grafik interfeysi oyna tushunchasiga asoslanadi, shuning uchun uni ba'zan oynali interfeys deb ataladi. Grafik muhit tushunchasi garfik interfeys tushunchasiga to'liq mos keladi. Bu interfeysning farqli xususiyatlari, oson eslab qolinadigan garfik obyektlar-dasturlar, qurilmalar harakatlar va hokazolarga bog'langan belgilardir. Foydalanuvchi kerakli belgini ko'rsatsa, OT u bilan bog'liq harakatni bajaradi.

Win NT/2000/XP OT larning grafik muhitini ko'rib chiqamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, umuman, turli OTlarning interfeysi bir-biridan farq qiladi, ammo bu farqlar unchalik katta emas (qarang: 4.4.-rasm).



4.4.- rasm. Ishchi stoli, oynalar va Windows operatsion tizimining klassik stildagi belgilari

Obyekt tushunchasi Win OT obyektlili yondashuv metodologiyasiga asoslanadi, shunga mos tarzda borliq va uning ixtiyoriy qismi bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan obyektlar majmuasidir. Obyektlarga aniq xossalari va harakatlar xosdir. Turli obyektlar xossalari va harakatlari turlichadir. Win OT va uning grafik interfeysi, xususan, obyektlili yondashuv prinsiplari asosida qurilgan.

Grafik interfeysning asosiy elementlari Win OT foydalanuvchi interfeysi asosiy elementlari quyidagilardir: ishchi stol, oynalar, belgilar (znachki), yorliqlar, klavishlar, panellar, menu, papkalar, ilovalar va hujjatlar. Interfeys obyektlariga shu bilan birga kompyuterning ixtiyoriy apparat va dasturiy resurslari ham kiradi. Kompyuter ham, umuman, obyekt hisoblanadi. Quyida ko'rsatilgan asosiy interfeys obyektlarining xususiyatlari va harakatlari ko'rib chiqiladi.


Ishchi stol Windows OTda dispeyning butun ekranini mutaxassisning ish joyi deb qaraladi, chunki unda axborotga ishlov berish uchun zaruriy barcha sharoit yaratilgan bo'lib, ish stoli yuzasida kerakli hujjatlar (fayllar) va ular bilan ishlashning turli vositalari joylashtirilgandir.

Ish stoli deb, foydalanuvchining kompyuterning hamma resurslariga, ya'ni eng ko'p foydalaniladigan dasturlari, hujjatlari va apparat vositalariga samarali murojaatni ta'minlaydigan va mos ulanishlar mavjud bo'lsa, lokal va global tarmoqlari resurslariga ham murojaatni ta'minlaydigan grafik interfeysining asosiy elementiga aytiladi. Foydalanuvchi interfeysining qolgan barcha elementlari ham ishchi stolga yoki bu holatda bog'lanadi. Unda oynalar, hujjatlar belgili, dastur va qurilmalar belgili guruhini o'z ichiga olgan turli panellar joylashtiriladi.

Oynalar. Hujjat, dastur, papka, qurilmalarning har biri ishchi stolda alohida oyna bilan beriladi. Win oynalari dasturlarni boshqarish foydalanuvchi va dasturlar o'rtasida axborot almashinish imkonini beradi. Ish stolida bir vaqtning o'zida ixtiyoriy sondagi oynalar joylashgan bo'lishi mumkin. Rasmdagi ish stolida ikkita oyna joylashgan (qarang: 4.5.-rasm).

Oynalar stolda o'lchamini, joylashgan o'rinni o'zgartirishi mumkin, xuddi real stoldagi kabi bir nechta varaq qog'ozga o'xshab bir-biri ustiga taxlash mumkin va xatto bir-birining to'liq berkitishi mumkin. Oyna deb, foydalanuvchi va bajariladigan dastur orasidagi aloqani tashkil etishga mo'ljallangan bo'lgan foydalanuvchi grafik interfeysining elementiga aytiladi. Oyna qoida bo'yicha ekranning boshqa qismida ramka orqali va rangi orqali ajratiladi: oynada matn, rasm, jadval, dasturni boshqarish- ning maxsus elementlari joylashishi mumkin. Masalan, “**Мой компьютер**” oynasi, kompyuterning barcha apparat va dasturiy resurslariga murojaat qilish uchun xizmat qiladi,

“Корзинка” oynasi esa, tasodifan olib tashlangan papka dastur va hujjatlarini tiklash uchun xizmat qiladi.



4.5.-rasm. Oynalarning joylashishi va o'lchamlari.

Yorliq va belgilar. Belgilar (piktogrammalar), grafik interfeysda turli obyektlarni: ishchi stol, disk qurilmalari, printerlar, dastur va hujjatlarni belgilash uchun hizmat qiladi. Shunday qilib, belgi (piktogramma) deb, kompyuterning apparat va dasturiy resurslarini belgilash uchun hizmat qiladigan, uncha katta bo'limgan tasvirdan iborat foydalanuvchi grafik interfeysi elementiga aytildi. Yuqorida rasmda, bir-biring ustiga qo'yilgan ikki oynada joylashtirilgan bir qancha turli belgilar ko'rsatilgan. Oynalardan tashqari belgilar ishchi stolda, panelda, menyuda va papkada joylashishi mumkin. **Win XR** OTda ishchi stolda har doim “**Корзина**” dasturi belgisi turadi. Qolgan hamma belgilar ishchi stolda foydalanuvchi ko'rsatmasi yordamida joylashtirilishi, yoki olib tashlanishi mumkin.


Kompyuterning apparat va dasturiy resurslariga murojaat qulay bo'lishi uchun, ishchi stolga “**Мой компьютер**” oynasi belgisi joylashtirilishi mumkin.

OTda fayllarni saqlashni tartiblashtirish uchun maxsus papka “**Мои документы**” ko'zda tutilgan, unda ixtiyoriy guruhlashtirilishi mumkin.

Belgilarning maxsus ko'rinishi yorliqlardir, ular har doim biror-bir obyektning haqiqiy joylashgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotni bildiradi. Yorliq obyektga tez va qulay murojaatni va ularni qidirishni ta'minlaydi. Yorliq tashqi belgisining past qismida egri strelka belgisi

bo'ladi. Yorliq bilan belgi orasidagi farq, ularning ichki, tizimlashgan tashkil etilishidir. Belgi doim obyektni o'zi bilan bevosita har doim bog'liqdir, yorliq esa har doim obyektning (papka, qurilma, hujjat fayli va hokazolar) haqiqiy joylashgan o'rni xaqidagi ma'lumotlarni o'zida saqlaydigan maxsus fayl bilan bog'langan. Ammo foydalanuvchi nuqtayi-nazaridan, mos obyektlarga murojaat qilishda uning yorlig'i, yoki belgisidan foydalanish orasida farq yo'qdir.

Klavishalar. Ko'pincha, oynalar va interfeysning boshqa elementlarida klavishlar uchraydi, ular yordamida foydalanuvchi OTga biror amallar, yoki harakatlar ketma-ketligini bajarish uchun buyruq beradi. Demak, klavisha deb, foydalanuvchining boshqaruvchi ta'sirini (buyrug'ini) qabul qilib, undan keyin amallar, harakatlar ketma-ketligini ishga tushiruvchi, foydalanuvchi grafik interfeysi elementiga aytildi. Standart holatda klavisha, ichiga uning vazifasini ko'rsatadigan nomi yozilgan kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak ko'rinishida bo'ladi. Masalan, rasmida ko'rsatilgandek klavishlar, qurilmalar, asboblar, masalan televizordagi klavishlarga o'xshashdir (qarang: 4.6.-rasm).



4.6.- rasm. Masalalar panelidagi klavishlar

Panel. Ishchi stolda va shu bilan birga oynalar ichida bitta, yoki bir nechta panellar joylashgan, ular kontrast rang bilan bo'yagan bo'lib, odatda gorizontal, vertikal, to'g'ri to'rtburchak ko'rinishida bo'ladi. Panel, undag turli boshqarish elementlari, turli belgilarni joylashtirish uchun va operatsion tizim holati, yoki bajariladigan dastur holatini indikatsiyalash (belgilash) uchun xizmat qiladi.

Panel deb, boshqarish elementlarini, mantiqiy bog'langan belgilar guruhini birlashtirish uchun va operatsion tizim va bajarilayapgan dastur holatini indikatsiya qilish uchun xizmat qiladigan foydalanuvchi grafik interfeysi elementiga aytildi. Odatda, ishchi stolning quyi qismida Win OT paneli joylashgandir, uni masalalar paneli ("Панель задач") deb ataladi. U oynalar bilan ishlashni tashkil etishda muhim rol

o'ynaydi, chunki u bajarilayotgan dasturlarga murojaat va dasturlarning biridan ikkinchisiga o'tishni ta'minlaydigan klavishlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari


“Панель задач”да “ПУСК” тугмаси joylashgan, uning yordamida operatsion tizimning asosiy menyusiga va dasturlar indikatorlariga murojaat amalga oshiriladi. Indikator dasturlarning joriy holatini aks ettiradigan grafik interfeys elementidir. Dastur bajarilishi davomida, uning holati o'zgarishi bilan indikatorning tashqi ko'rinishi ham mos tarzda o'zgaradi (qarang: 4.7.-rasm).



4.7- rasm. Klassik stildagi masalalar panelidagi bildirgilar maydoni.

Masalalar panelining o'ng qismida joriy vaqt va joriy til indikatorlari joylashgan. Masalalar panelining dasturlar indikatorlari va belgilarini o'z ichiga olgan qismi, Win XP operatsion tizimida xabarlar («Уведомления») sohasi («Области») deb ataladi, chunki bu qismda avtomatik tarzda OT tomonidan shakllantiriladigan xabarlar qo'shiladi, bu xabarlar foydalanuvchiga biror bir hodisa to'g'risida xabar bildiriladi, masalan, OT tomonidan biror qurilma qo'shilgani to'g'risida ma'lumot beriladi.

Меню. Foydalanuvchi Win OT ning ishini turli buyruqlar yordamida boshqaradi. Grafik interfeysda buyruqlarni klaviaturadan kiritish kerak emas. Ko'p hollarda OTni biror amalni bajarishga majbur qilish uchun, oldindan tayyorlangan ro'yxatdan to'g'ri keladigan variantni tanlash kifoya, bu ro'yxat Win tizimida menu deb ataladi. Menyuning turli ko'rinishlari rasmda ko'rsatilgan (qarang: 4.8.-rasm).



4.8-rasm. Menyuning turli ko'rinishlari

Menyu deb, foydalanuvchi variantlardan birini tanlaydigan, alternativ buyruqlar, harakatlar, rejim va hokazolar variantlar ro'yxatidan iborat, foydalanuvchi interfeysi elementiga aytildi. Foydalanuvchi faqat bitta variantni tanlashi kerak. Ro'yxatning alohida variantlari menu punktlari, yoki menu qatorlari deb ataladi. Shuni ta'kidlash lozimki, ro'yxat elementlari ham vertikal, ham gorizontal joylashtirilishi mumkin.


Papka. OTda dasturlar hujjatlar bilan ishslash uchun, Win operatsion tizimida fayllar papkasi, yoki oddiygina papka obyekti ko'zda tutilgan. Biror bir belgi bo'yicha ajratilagn hujjatlar va/yoki ilovalarni papkaga joylashtirish va shu guruh bilan bitta yaxlit obyekt holatida xuddi qog'oz papkadagi hujjatlar bilan ishlagandagi kabi ishslash mumkin (joyini o'zgaritirsh, nusxa olish, yo'qotish va hokazolar). Haqiqatda Win OTdagi fayllar papkasi biror-bir disk qurilmasidagi nimkatalog («подкаталог»)dir. Fayllar papkasi tushunchasidan tashqari, o'zak papka («**Корневая папка**») tushunchasidan foydalaniladi, amalda bu diskdagi o'zak katalogdir. Fayllar papkasi deb, fayllarni biror belgisi, alomati bilan guruhlarga birlashtirgan, foydalanuvchi grafik interfeysi elementiga aytildi. O'zak papka tushunchasi, diskda joylashgan hamma fayllar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadvalni bildiradi. Papkaga yopiq papka belgisi mosdir. Shuni eslatib o'tamizki, Winda “**Мои документы**” nomli standart papka ko'zda tutilgan, uning belgisi ochiq papka ko'rinishidadir, bu papkaga foydalanuvchi o'zi yaratgan hujjatlarni joylashtirishi nazarda tutiladi. Bu papkaga ixtiyoriy fayl-hujjat, yoki ilovani joylashtirish mumkin. Ammo foydalanuvchi o'z shaxsiy hujjatlarini boshqa ixtiyoriy papkaga ham joylashtirishi (qo'yishi) mumkin. Papkaning muhim xossasi uning ierarxik tuzilishga egaligidir, bu degani papkada nafaqat ixtiyoriy sondagi fayllar, balki papkalar ham joylashtirilishi mumkin. Oddiy papkalardan tashqari, ixtiyoriy resurslarga murojaat qilishni ta'minlash uchun Win OTda tizimli papka tushunchasi ham kiritilgan, uning yordamida masalan shu kompyuterga ulangan printerga murojatni ta'minlash mumkin. Tizimli papkalar, kompyuter, yoki tarmoqning ixtiyoriy apparat va dasturiy resurslari, shu bilan birga oddiy papkalarga murojaat uchun xizmat qiladi. Fayllar papkasi faqat diskdagি fayllarga murojat uchun xizmat qiladi, tizimli papkalar esa ixtiyoriy apparat resurslariga murojaat uchun xizmat qiladi. Fayllar papkasi, foydalanuvchining maxsus buyruqlari

yordamida yaratiladi va yo'q qilinadi, tizimli papkalar esa OT tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi. O'zak papkalar tizimli disklarga kiradi.

Axborotlarni himoyalash, arxivlash va kompyuter viruslari.

Kompyuter qanchalik zamonaviy bo'lmasin, undagi bo'sh joy bir kun kelib to'lib qoladi. Bunday holatda, albatta yangi hajmi ko'proq qattiq disk (vinchester) o'rnatish kerak. Lekin bunga moliyaviy imkoniyat bo'lmasa, bir xil fayllarni vaqtincha ishlatmaslik, yoki virusdan himoyalash uchun ularni maxsus arxiv fayllariga joylashtirish bu muammoni yechimi hisoblanadi. Arxivator dasturlar har xil: Zip, RAR, Arj va hokazo. Ularning har bir operatsion tizimga mo'ljallangan versiyalari ham mavjud.

Windows operatsion sistemasida keng foydalaniladigan arxivatorlar bu: WinZIP, WinRAR, ZipMagic va boshqalar. Biz ko'rib chiqadigan arxivator bu WinRAR arxivatori. U juda ko'p imkoniyatlarni beradi: *fayllar va kataloglarni arxivga joylashtirish, arxivdan chiqarish, arxivni tekshirish, arxivni yangilash, o'zi ochiladigan (SFX) arxivlarni yaratish, bir nechta qismga parchalangan ko'p jildli (qismli) arxivlarni yaratish, ularni shikastlanishdan himoyalash va xokazo* (qarang: 4.9.-rasm).




4.9.-rasm. WinRAR for Windows dasturining oynasi.

Bu dasturga kirgandan keyin maxsus oynasi hosil bo'ladi. Bu oynada kataloglar va fayllar ro'yxati chiqadi. Biz bu ro'yxatdan kerakli katalog, yoki fayllarni belgilab, sichqonning o'ng tugmasini bosish, yoki Commands menyusi orqali ular ustida amallar bajarishimiz mumkin.

Faylni arxivga joylashtirish (qarang: 4.10.-rasm):


1. Kerakli faylni topamiz va Farmonishlar (Commands) menyusidan fayllarni arxivga qo'shish (Add files to Archive) farmonishini tanlaymiz.
2. Maxsus oyna hosil bo'lganidan keyin, u yerda yaratiladigan arxiv nomi, uning arxivlanish darajasi, qaysi katalog ichiga joylashishi va boshqalar ko'rsatiladi.



4.10.-rasm. Faylni arxivga joylashtirish.

- Update mode – arxivlanish rejimini o'rnatish: yangi arxiv, arxiv tarkibini yangilash va boshqalar;
- Archiving options – arxivning parametrlarini o'rnatish;
- Solid archive – uzluksiz arxiv;
- SFX archive – o'z-o'zidan ochiladigan arxiv fayl yaratiladi;
- Uni ochish uchun arxivatorga kirish shart emas, uning kengaytmasi «EXE» bo'ladi;
- Multimedia compression – multimedia fayllarini oddiylargacha nisbatan 30% ga ixcham qilib arxivlash;
- Put recovery record – shikastlanishdan himoyalash yozuvini qo'shish;
- Compression – arxivlanish tartibini o'rnatish: Fast – tez, Normal


- oddiy, Good – o'rtacha, Best – sekin lekin eng yaxshi;
- Dictionary size – maxsus arxiv to'g'risida yoziladigan kutubxona hajmini ko'rsatish, unda arxivning ichidagi fayllar soni, hajmi va boshqalar saqlanadi;
- Volume size – ko'p qismli arxiv yaratilganida uning qismlari hajmini ko'rsatish;
- Delete files after archiving – fayllarni arxivga joylashtirgandan keyin ularning asl nusxasini o'chirish. WinRAR arxivatori o'zi yaratadigan arxiv fayllarini parol yordamida himoyalash imkoniyatiga ega. Buning uchun klaviaturadagi «CTRL+P» tugmasini bosib, maxsus oynada kerakli parolni ikki marta kiritish kerak. Bundan keyin arxivni faqat parol yordamida ochish mumkin (qarang: 4.11(1-5).-rasm).




4.11(1).-rasm. WinRAR arxivatori




4.11(2).-rasm. WinRAR arxivatori



4.11(3)-rasm. WinRAR arxivatorini ishga tushirish.




4.11(4)-rasm. WinRAR arxivatori




4.11(5)-rasm. WinRAR arxivatori yordamida fayllarni arvivlash jarayoni.

Arxivlash parametrlarini sozlash (qarang: 4.12(1-5)-rasm):



4.12(1)-rasm. Arxivlash parametrlarini sozlash



4.12(2).-rasm. Arxivlash parametrlarini sozlash

Ikkinci mashhur arxivator bu WinZIP arxivatoridir. Internet tarmog’ida ko’p fayllar ZIP arxivlarida bo’ladi. Bunga asosiy sabab – arxivlangan fayllar tezroq ko’chiriladi. Ular bilan ishslash uchun WinZIP arxivatori zarur.

Bironqa ZIP kengaytirishiga ega faylni ochish uchun uni tanlab sichqonchani o’ng tugmasini bosib, hosil bo’lgan kontekst menyudan “Extract to...” buyrug’ini tanlaymiz va katalogni ko’rsatamiz. Bundan keyin WinZIP arxivatori uning ichidagi fayllarni chiqaradi.

Kompyuter viruslari va ulardan himoyalanish usullari.

Kompyuter viruslari bugungi kunda ko’pchilikning eng dolzarb muammosidir. Bu hammani tashvishga solmoqda. Virus dasturi kompyuterdagи ma’lumotlar butunligini buzishga, yoki ularni o’chirishga mo’ljallangan bo’ladi. Ilk bor virus dasturlari AQShda ishlab chiqarilgan, chunki aynan bu davlatda shaxsiy kompyuterlar keng tarqalgan edi. Ilk bor ishlab chiqarilgan virus dasturlari foydalanuvchini hotirjamligini buzishga va asabiga tegishga qaratilgan edi. Lekin keyinchalik ular zarar yetkazishni o’zining maqsadi sifatida qabul qilib oldi. Hozirgi paytda butun dunyo bo’yicha 200000 dan ortiq virus dasturlari mayjud. Ular kompyuter viruslari bo’lib, kompyuterdagи ma’lumotlarga zarar etkazadi, yoki kompyutering ishslash samaradorligini tushirib yuboradi.

Kompyuter virusi o’zi nima? Ular ma’naviy qashshoq, hayotdan va boshqalardan alamzada dasturchilar tomonidan g’arazli maqsadlarda yozilgan dastur. Ular odatda, ko’p martalab nusxalanadi va ijrochi fayllarga «yopishib oladi». Ularning «ishga tushishi» oqibatida goh displayda turli yot yozuvlar paydo bo’lishi, goh disqdagи yozuvlar

(fayllar) ni o'chirib yuborishi mumkin.

Odatda foydalanuvchiga virus dasturlarining nomigina ma'lum bo'lishi mumkin. Masalan, Black Hole (qora teshik), Black Friday (qora juma), Friday 13 (o'n uchinchi juma), «sekin ta'sir qiluvchi virus» va hokazo. Mazkur viruslar ekranning chap burchagidan qora teshik ochishi, yoki 13 sana juma kunlari ishlayotgan fayllarni yo'qotishi, bundan tashqari har 5 minutda kompyuter ishini bir necha yuz marotalab sun'iy sekinlashtirib yuborishi mumkin.

Odatda TR – viruslar deb nomlanuvchi viruslar guruhi ajoyib xossaga ega. Zararlangan dasturni ko'rish chog'ida virus dasturi tuzatilgan dastur ichiga «suqilib» kirib oladi va o'zini namoyon etmaydi. Shunga o'xhash pokistoncha viruslar (Brain Ashet) ham zararlangan kompyuterlarda o'z «faoliyatini» ayyorlarcha olib boradi.

Keng tarqalgan viruslarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- fayllar uchun (COM, EXE va DLL ni zararlaydi);

-Boot – viruslar (disketlarni boshlang'ich yuklovchi sektorlari, yoki MBR (Master Boot Record) qattiq diskning yuklovchi sohasini zararlaydi. Tarmoqqa zarar keltiruvchi alohida viruslar ham mavjud. Ular replikatorlar deb atalib, tarmoqdagi barcha, yoki ba'zi abonentlarni zararlaydi. Ulardan eng «taniqlisi» Morrisa nomlisidir. 1988 yilda ushbu virus Internet tarmog'idagi 30000 ta kompyuterdan 6000 tasiga zarar keltirib, «karomat» ko'rsatgan.

Fayl viruslarini sinflarga ajratish.

Fayl viruslari kompyuterlarda keng tarqalgan viruslar. Ular barcha viruslarning tahminan 80% ini tashkil etadi. Bu toifa kompyuter viruslari juda chidamli bo'lib, o'z vaqtida ehtiyyot chorasi ko'rilmasa, haqiqiy epidemiyaga aylanadi. Masalan, RCE-1813, yoki Ierusalem (Quddus), Black Friday (qora juma) va boshqa o'ta xavfli viruslardir. Ko'pchilik tarqalgan fayl viruslari shtammlarga ega, ular baza versiyalaridan uncha farq qilmaydi. Shuning uchun fayl viruslarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- Vena guruhi. Uning birinchi S-648 deb nomlanuvchi vakili Venada topilgan;
- CASCADE guruhi. RC-1701 deb nomlanuvchi birinchi vakili 1988 yil o'rtalarida topilgan;
- Quddus guruhi. RCE-1813 deb nomlanuvchi uning birinchi vakili 1987 yilning oxirida Quddus universitetida topildi;
- TR viruslar guruhi – mazkur viruslar, taxminlarga ko'ra,

Bolgariyada ishlab chiqilgan. O'z navbatida bu guruh uch kichik guruhga bo'linadi. VACSINE, «musiqali qayta yuklash» va «o'z-o'zini yeb qo'yuvchilar».

Ohirgi ikkitasini Vankey Doodle ham deb atashadi.

- Datacrime. Bu guruh vakillari joriy yilning 12 oktyabrida faollashadi va A, V, C, D disklarda 8 sektorni ishdan chiqaradilar.

- Avenger guruhi. RCE-1800, RCE-1000 deb nomlanuvchi mazkur guruh katta zararlash imkoniyatiga ega. U nafaqat fayllarni bajarish chog'ida, balki uni o'qish va ochish vaqtida ham zararlaydi. Bundan tashqari, bu toifadagi viruslar davriy ravishda sektorlardagi fayl va katologlarni yo'qotadi. Vinchesterga matn xabarlarini yozadi.

- Island guruhi (Icelandic). Shu yerda ta'kidlash kerakki, Datacrime va island guruhiga mansub viruslar hozircha bizning mamlakatimizda yo'q.

Boot viruslari fayl viruslaridan tubdan farq qiladi. Boot viruslarining soni fayl viruslariga qaraganda ancha kam va shuningdek, ular sekinroq tarqaladi.

Fayl viruslari kabi ko'p tarqalgan Boot viruslari ham shtammlarga ega. Hozirgi vaqtda ushbu viruslarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Italiya guruhi. «Bx1-1S-a» deb nomlanuvchi uning birinchi vakili 1987 yilning oxirida paydo bo'ldi;

- Pokiston guruhi. Bu guruhga Vgat 86 va Brain 88 viruslari kiradi.

Birinchi vakili Vgat 86 Pokistonning Lahor shaxrida 1986 yil topilgan.

Buzish darajasi bo'yicha viruslarni shartli ravishda ikki turga – «illyuzion» va «vandallar» ga bo'lish mumkin. «Illyuzion» guruh qandaydir yoqimli musiqa sadosi, yoki namoyish orqali virusni yuqtiradi. «Vandal» so'zining o'zbekcha lug'aviy ma'nosi – madaniy yodgorliklarni harob etuvchi, xuddi shunday «vandallar» dasturni harob qiladi. Bu toifa viruslar yopiq holatda fayllarni bildirmasdan ishdan chiqaradi. Tabiiyki, ham fayl tizimini, ham yuklash (Boot) cektoriga zarar yetkazuvchi viruslar ham mavjud.

Kompyuter viruslaridan himoyalanish usullarini sinflashtirish.

1. Kompyuter viruslaridan himoyalanish usullarini sinflashtirish.

Dastlabki nazorat: Kelayotgan dasturlarni detektor dasturlari bilan tekshirish.

Profilaktika: «Yozishdan himoyalangan» disketalar bilan ishslash, yozish uchun disketadan foydalanishni minimallashtirish, ilgarigi va amaldagi disketalarni alohida saqlash, dasturlarni vinchesterda arxivlangan holda saqlash.

Taftish (Reviziya): Yangi dasturlarni maxsus dasturlar yordamida tekshirish.

Karantin: Har qanday yangi dastur yangi karantin muddatini o'tashi lozim. Ular mutaxassislar tomonidan viruslarga tekshirilgan bo'lishi kerak.

Filtrlashtirish: FluSbot Plus, MaceVaccine, ANTIWS2 turdag'i dasturlar orqali ehtimoldagi viruslarni tutish.

Terapiya: (davolash). Dasturni dastlabki «sog'lom» holatga keltirish. Bu ish har bir fayldan zararli viruslarni «tishlab olib tashlash» usuli bilan amalga oshiriladi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinish turibdiki, virusdan himoyalanish ning bir necha turdag'i dasturiy vositalari mavjud: dastur-detektorlar (disketa, yoki diskdagi viruslarni «tutadi») va dastur-faglar (viruslardan davoleydi). Dastur-faglar zararlangan dasturlarni tiklashni ta'minlaydi. Ish jarayonida faga virus tanasini «tishlaydi» va virus o'zgartirib yuborgan buyruqlar ketma-ketligini tiklaydi. Biz tilga olayotgan kompyuter viruslari fagasi hozirda yaratilib bo'lingan. Hozir turli fagalarni yig'ish bilan odamlar band bo'lishmoqda. Bu, bizningcha, noto'g'ri. Asosiy e'tiborni zararlanishning oldini olishga qaratish lozim. «1 gramm profilaktika 1 kilogramm davolashga teng» maqoli naqadar to'g'ri.

Antivirus dasturlarini ishlatishdagi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarga batafsил to'xtab o'tamiz.

Antivirus vositalarini qo'llashdagi eng ko'p yo'l qo'yiladigan xato zararlangan kompyuterda ularni ishlatib yuborishdir. Virus aniqlangach, keyingi xatti-harakat quyidagicha bo'ladi: *kompyuterni o'chiring va uni himoyalangan sistemali disket yordamida qayta yuklang (bunday disketa Sizda albatta bo'lishi kerak)*. *Mazkur disketada antivirus dasturlari joylashgan bo'lishi kerak*. *Antivirus dasturini ishga tushiring*.

Zararlangan operatsion sistemalarda amallarni bajarish va dasturlarni ishga tushirish qo'pol xato va misli ko'rilmagan

yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Jumladan, bunda hali zararlanmagan dasturlar ham talofat ko'rishi mumkin. Masalan, Sizning kompyuteringiz RCE-1800 virusi bilan zararlangan bo'lsin. Mazkur virusga mo'ljallanmagan faga dasturni extiyotsizlik bilan ishlatish qolgan yuklovchi modullarni ham ishdan chiqaradi.

Yana ko'p uchraydigan xatolardan biri antivirus vositalarini haddan tashqari ishonish. Garchand, bunday dasturlarni juda yuqori darajadagi dasturchilar yaratsalarda, ular har doim ham ishonchli emas. Har qanday dastur kabi, ular ham xatolardan holi emas. Bu detektorlarga ham, fagalarga ham taaluqli. Shu yerda biz ta'kidlashimiz lozimki, biz faga deb atalayotgan dasturlar aslida «detektor-faga»ning o'zi. Shuning uchun ularning ishida viruslarni aniqlashda ham, ularni davolashda ham xatolar bo'lishi mumkin.

Ishlatilayotgan detektorlar ko'pincha viruslarni payqamay, zararlangan fayllarni o'tkazib yuboradilar. Masalan, juda mashhur McAfee Associates firmasiga tegishli SCAN kompleks detektori bizning mamlakatimizda keng tarqalgan viruslarni payqamay o'tkazib yuboradi va yangi, bir nechta yolg'on ishlanmalar beradi. Shuning uchun bir nechta detektorlarni bir yo'la qo'llash «ovoz berish yo'li bilan» zararli dasturlarning ro'yxatini tuzish mumkin.

Arxivda saqlanayotgan dasturlarga detektorlarni qo'llash samarasiz ekanligini ta'kid-lash lozim. Bunda dasturlarni arxivdan ozod etish lozim. Aks holda, detektor mazkur fayllarni tekshirmaydi. Yana faga noo'rin dasturning foydali qismini «tishlashi mumkin». Aynan shu yerda detektor yolg'on axborot bergen bo'ladi. Faga ishlab turgan dasturni ishdan chiqarishi hech gap emas. Yana bir eng katta, yo'l qo'yiladigan xatolardan biri himoyalanmagan disketaning qo'lma-qo'l yurishi va ishonchsiz disketalarni yuklashdir. Shuning uchun disketalarni doimo himoyalash kerak. Faqat ishonchli disketalardangina foydalanish darkor va yana bir yo'l qo'yiladigan xatoga maxsus to'xtalamiz. Bu A disk yuritgichda disketa bo'la turib, kompyuterni qayta yuklashdir. Bunda BIOC aynan disk yuritgichdagi disketadan dasturni yuklaydi, natijada disketadagi boot-virus vinchesterga yuqadi.

Faganing sifati, eng avvalo, u qayta ishlayotgan viruslar soniga bog'liq. Bundan tashqari, interfeys qulayligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular faganing hisobotini yaxshilaydi. Odatda, fagalar bir necha viruslarga mo'ljallangan bo'lib, qolganlari uchun samarasiz bo'lishi

mumkin.

Virusdan himoyalanish usullarini qo'llash

«Virus – himoya vositalari» muammosi xuddi «hujum quroli – himoya quroli» muammosiga o'xshaydi. Himoya vositalari ko'paygan sari hujum vositalari ham takomillashib, uni ishlatuvchilar rag'batlantirilmokda. Nachora, hayot shunday kurashdan iborat. Shuning uchun aytish darkorki, kompyuter viruslari hali ko'p vaqt dolzarb muammo bo'lib qolaveradi, har ikki tomon ham rivojlna beradi.

Himoyalanishning asosiy texnologik sxemasi. Himoyalanishning bunday sxemasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- yangi dasturiy mahsulotning dastlabki nazorati;
- qattiq diskni bir necha mantiqiy disklarga ajratish;
- rezident revizor (taftishchi) dasturlar bilan davriy ravishda axborot butligini tekshirib turish;
- arxivlashtirish.

Yangi kiritilayotgan dasturiy ta'minotni nazorat qilish: birinchi va juda zarur himoya kiritilayotgan dastur va disketalarni nazorat qilishdir. Go'yoki, samolyotning muvaffaqiyatli parvoz qilishi uchun passajirlar batafsil tekshirilganidek, kompyuterda kiruvchi axborotlarni batafsil tekshirish viruslar yuqishining oldini oladi. Har qanday «firma» disketalariga ham ishonaverish kerak emas.

Ko'pchilik mashhur fayl va boot – viruslar mavjudligini kirish nazoratining o'zidayoq aniqlash mumkin. Bu jarayon bor-yo'g'i bir necha daqiqani oladi, xolos. Aks holda ko'p vaqt axborotlarni viruslardan tozalashga ketib qoladi. Kirish nazoratini bir nechta marta saralab, maxsus tanlab olingan detektor va fagalardan o'tkazgan ma'qul. Biz quyidagilarni tavsiya etamiz. SCAN, AIDSTEST, DOCTOR, AV, TP48CLS. Fagalarni detektor rejimida ishlatish zarur.

Karantin rejimi: agar dasturiy ta'minot «begona qo'ldan» olingan, yoki yot tashkilotlardan kelgan bo'lsa, mazkur dasturlarni ishlatishda «karantin muddati»ni belgilash foydali. Bunda har bir dastur uchun qat'iy sinov muddatini joriy etish zarur. Bu muddat oy, haftaning kunlari bo'lishi mumkin.

Nega? Chunki, biz yuqorida ayganimizdek, ba'zi bir viruslar ma'lum oy, yoki aynan oyning bir kunida o'z «hunarini» ko'rsatadi. Zararlangan dasturlardan tashqari, ba'zida «singan» himoyadagi dasturlar ham xavf tug'diradi (ular ko'proq ofis va o'yin dasturlarida

uchraydi).

Gap shundaki, dasturning himoyasini olish viruslar faoliyatini kuchaytirib yuboradi. Ayniqsa, «troya» viruslari faollashadi.

Masalan, Ukrainianing Donesk shahrida noqonuniy nusxalangan Formula o'yinlari davriy ravishda SMOS – xotirani o'chirib tashladi.

Qattiq diskni tekshirish. Kompyuterni harid qilgach, uning vinchesterida nima borligini tekshirish darkor. Endigina sotib olingan kompyuter vinchesteridagi barcha dasturlariga xuddi yangidek qarash kerak. Shuning uchun, yangi olingan mashina vinchesterini testdan o'tkazing, shuningdek, hamma disketalarini virusdan detektor-dasturlar bilan tekshiring. Vinchesterni testdan o'tkazish chog'ida, albatta, yozuvdan saqlangan, toza sistema disketalari yordamida yuklanadi.

Himoyalashning o'ziga xos usullari: disketaning normal holati – uning yozuvdan himoyalangan holatidir. Himoya faqat axborotni yozish chog'ida olinishi kerak. Faqat yozishdan himoyalangan disketalarni ishlatib, antivirus dasturlari, sistemali disketalarni ko'ngil to'q bo'lishi uchun ehtiyyot qilib saqlash joiz.

Axborotlarni tiklash: shuni ta'kidlash kerakki, «zaralangan» axborotlarni eng qiyin vaziyatlarda ham tiklash mumkin. Biroq viruslar «zararlagan» fayllarni tiklash sistema dasturchilaridan yuksak mahorat talab etadi.

Ko'pincha qutqarish mumkin bo'lgan fayl, yoki ma'lumotlar sistemali bloklarni Formatlash jarayonida shikast yeydi, bunda axborotning yo'qolib ketish ehtimoli ham bor. Yuqorida aytganimizdek, dasturni saqlashning eng yaxshi yo'li – uni arxivlab qo'yish. Lekin shunday bo'lsa ham har ish kuni so'ngida dastur va fayllarning joylashishini birma-bir ko'zdan kechirish darkor.

Antivirus dasturlari. Kompyuterdag'i ma'lumotlar va dasturlar ma'lum virus dasturi tomonidan o'chirilib yuborilishi, yoki shikastlanishi mumkin. Virus – dasturlari dasturchilar tomonidan tajriba uchun, yoki yomon niyatlarda yaratilib, asosan ular quyidagi vositalar orqali Sizning kompyuteringizga kirishi mumkin:

- noma'lum disketadagi ma'lumotlarni o'qish natijasida (hujjat, o'yin va boshqalar);
- Internet tarmog'idan ba'zi xil dasturlarni yuklash natijasida;
- elektron-pochta orqali;
- lokal tarmoq orqali;
- noqonuniy ko'chirilgan va tarqatilayotgan dasturlardan

foydalanish oqibatida.

Virus dasturlari asosan Assembler dasturlash tilida tuziladi va ular salbiy ta'siri bo'yicha bir nechta guruhga bo'linadi:

- sodda viruslar – operativ xotirani band qilib, kompyutering ishlashi sekinlashtiradi;
- maxsus «stels» viruslari, ular joylashishini o'zgartirib turadi va ularni topish ancha murakkab;
- ma'lumotlarga o'zgartirish kiritadigan viruslar;
- ma'lumotlarni o'chiradigan viruslar;
- foydalanuvchining ayrim bir (maxfiy) ma'lumotlarini Internet tarmog'i orqali virusni yaratgan shaxsga yuboradigan viruslar.

Kompyuterdagи ma'lumotlarni viruslardan himoya etish uchun antivirus dasturlar ishlab chiqarilgan. Antivirus dasturlar AQSh, Kanada, Rossianing bir qator firmalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda.

Antivirus dasturlar rezident va norezident turlarga bo'linadi: rezident antivirus dasturi kompyuter yoqilganidan o'chirilguncha qadar operativ xotira, aktiv (joriy) dasturlarni, fayllarni virusga tekshirib turadi. Rezident antivirus dasturi o'zining ishini foydalanuvchiga bildirmasdan olib boradi, faqat ayrim hollarda foydalanuvchidan virusi mavjud faylni davolashga ruxsat so'raydi. Norezident antivirus dasturlar esa faqat foydalanuvchining o'zi ko'rsatgan joylarni va belgilangan vaqtda tekshiradi va davolaydi. Hozirgi kunda quyidagi antivirus dasturlar keng tarqalgan:


- ✓ DrWeb for DOS;
- ✓ DrWeb for Windows;
- ✓ Antiviral Tool Kit Pro;
- ✓ AVP Platinium;
- ✓ Norton Antivirus;
- ✓ McAfee;
- ✓ Aidstest.

Doctor Web, AVP, Aidstest antivirus dasturlari Rossianing «Kasperskiy» laboratoriysi tomonidan ishlab chiqarilgan va u MDH davlatlarida ko'p uchraydigan viruslardan xabari bor. Norton Antivirus mashhur Symantec firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, u topa oladigan viruslar soni 100000 dan ortiq. AVP dasturi virusdan himoyalaydigan eng ishonchli antivirus dasturi hisoblanadi. DrWeb

dasturining rezident tekshiruv dasturi Spider – Windows rejimida tekshiruvni olib boradi. Bitta kompyuterda bir nechta turdag'i antivirus dasturlar o'rnatmagan ma'qul, chunki ularning virusni topish usullari (algoritmlari) har xil hamda ular ham izlarini viruslar kabi tutadilar va bu holda ular o'zaro «kelisha olmay qolishlari» mumkin.

ESET NOD 32 Smart Security ni o'rnatish.


Buning uchun dasturni o'rnatuvchi faylga 2 marta chertiladi (qarang:



4.13.-rasm):

4.13.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security ni o'rnatish.

Dastur o'rnatilmoxda (qarang: 4.14.-rasm):




4.14.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security ni o'rnatilmoxda.

Dasturning o'rnatilishi yakunlandi (qarang: 4.15.-rasm):



4.15.-rasm. ESET NOD 32 Smart Securityni o'rnatildi.

Dasturga kirishda “Пуск” tugmasidan ESET папкasi tanlanadi (qarang: 4.16.-rasm):




4.16.-rasm. “Пуск”dan ESET NOD 32 Smart Securityga kirish.

Dasturning bir qancha bo’limlar mavjud:


- shaxsiy kompyuternini tekshirish;
- yangilanish;
- sozlanmalar;
- xizmat dasturlari;
- so’rov va yordam;
- himoya holati.

1. Kompyuterni tekshirishda undagi mavjud fayllarni ko’zdan kechiradi va zararli bo’lganlarini aniqlab, ularni zararsizlantiradi (qarang: 4.17.-rasm):




4.17.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security orqali kompyuterni tekshirish.

Bu yerda – tezkor tekshiruv (qarang: 4.18.-rasm):




4.18.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security orqali tezkor tekshiruv.

Tanlovli tekshiruvda kompyuterning istalgan qismini tekshirish mumkin (qarang: 4.19.-rasm).




4.19.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security orqali tanlovli tekshiruv.

Qo'shimcha xotira qurilmalarni tekshirish (qarang: 4.20.-rasm):




4.20.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security orqali qo'shimcha xotira qurilmalarni tekshirish

So'nggi tekshiruvni amalgal oshirish (qarang: 4.21.-rasm):




4.21.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security orqali so'nggi tekshiruvni amalgal oshirish

Shuningdek, tekshiruv jurnali va kompyuterni tekshirishning sozlanmasi (qarang: 4.22.-rasm):




4.22.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security orqali tekshiruv jurnali va kompyuterni tekshirishning sozlanishi.

Yangilanishda antivirus dasturini bazasi dastur aktivligini yo'qotib qo'ymasligi uchun yangilanib turiladi (qarang: 4.23.-rasm):



4.23.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security orqali bazasi dastur aktivligini yangilashi


Sozlanmalar bo'limida dastur ish faoliyatini sozlash imkoniyati mavjud (qarang: 4.24.-rasm):



4.24.-rasm. ESET NOD 32 Smart Securityda sozlanmalar bo'limida sozlash imkoniyati


Xizmatchi dasturlarda esa antivirus dasturiga oid bir qancha

qo'shimcha dasturlar mavjud (qarang: 4.25.-rasm):




4.25.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security xizmatchi dasturlarda esa antivirus dasturiga oid bir qancha qo'shimcha dasturlari

Himoya holati bo'limida esa dastur kompyutering himoya holati haqida axborot beradi (qarang: 4.26.-rasm):




4.26.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security himoya holati bo'limida.

Bundan tashqari oynaning o'ng-yuqori burchagidagi tugmada bir qancha xizmatlar joylashgan (qarang: 4.27.-rasm):




4.27.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security oynaning o'ng-yuqori burchagidagi xizmatlari

Bu yerda antivirus bazasini yangilash uchun sozlanmalar keltirigan: profil, bazani yangilash uchun havola, o'zgartirish tugmasidan havolani o'zgartirish mumkin (qarang: 4.28.-rasm).




4.28.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security antivirus bazasini yangilash.

Xizmatchi dasturlar: bu bo'lim jurnal fayllarini ishlashiga ruxsat beradi, Eset Live Grid va boshqa xizmatchi dasturlarni ishlashiga ruxsat beradi (qarang: 4.29.-rasm).



4.29.-rasm. ESET NOD 32 Smart Security xizmatchi dasturlari.

Interfeys bo'limi dastur foydalanuvchilariga grafik interfeys elementlari ish holatini nazorat qilib turadi, izohlar chiqarish, animatsiya, ogohlantirishlar va bildirishlar. Dastur parameterlariga ruxsatni chegaralab qo'yishi, parol yordamida qulflab qo'yishi mumkin (qarang: 4.30.-rasm).



4.30.-rasm. ESET NOD 32 Smart Securityning Interfeys bo'limi, elementlari

Nazorat uchun savollari:

1. Kompyuterning dasturiy ta'minoti nima?
2. Dasturiy ta'minot qanday qismlardan iborat?
3. Interfeys tushunchasi va uning turlari.
4. Foydalanuvchining interfeysi nima?
5. Matnli interfeys deganda nimani tushunasiz?
6. Foydalanuvchi interfeysi nima?
7. Matnli interfeys deganda nimani tushunasiz?
8. Qobiq dastur funktsiyasi nima? Qanday qobiq dasturlarni bilasiz.
9. Matnli va jadvalli interfeysni taqqoslang.
10. Grafik interfeysini tushuntiring.
11. Operatsion tizim haqida ma'lumot bering.
12. Operatsion tizimlasrning asosiy vazifalari qanday?
13. Operatsion tizimi qachon yaratilgan?
14. Operatsion tizimlar qanday sinflarga bo'linadi?
15. Kompyuter dasturlari nima ya u qanday vazifalarni bajaradi.
16. Kompyuter dasturlari qanday turlarga bo'linadi va ularning vazifasini izohlang.
17. Tizimli dasturlarning hozirgi axvoli va rivojlanish taraqqiyoti nimalardan iborat.
18. Amaliy xizmat dasturlari bilan instrumental dasturlarning qanday farqlari bor.
19. Tizim tushunchasiga ta'rif bering.
20. Tizimga misollar keltiring.
21. Quyosh sistemasi haqida nimalarni bilasiz?
22. Axborot tizimiga ta'rif bering.
23. Windows operatsion tizimi nima?
24. Windows OT rusumlarining ishlab chiqarilish davrlarini ayting?
25. Nima uchun Win OT ning grafik muhiti deyiladi?
26. Windows NT operatsion tizimi to'g'risida ma'lumot bering.
27. Windows XP operatsion tizimi to'g'risida ma'lumot bering.
28. Windows 7 operatsion tizimini to'g'risida ma'lumot bering.
29. Obyekt tushunchasi nimani bildiradi?
30. Windows grafik interfeysi elementlarini aytib bering.
31. "Ishchi stol" va "Oyna" tushunchalari ta'rifi bering.
32. "Мой компьютер" va "Корзина" oynalari nima uchun kerak?
33. Windows operatsion tizimini o'rnatish tartibini tushuntiring.

5-MAVZU. AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI.

Tayanch so'zlar va iboralar. Matn protsessori, jadval protsessori, formulalar, elektron, arifmetik amallar, sonli ifodalar, ishchi varaq, sarlavhalar qatori, «Параметры страницы», papka darchasi, chop etish qurilmasi, hujjatni tahrirlash buyruqlari, matn parchasini izlash, «Шрифт», «Интервал» ва «Анимация», «Абзац», «Границы и заливка», «Автофигуры», «Нарисовать таблицу» buyrug'lari, obyekt WordArt, mundarijalar, kolontitullar, ko'chirmalar va giperbog'lanishlar, diskdagi fayl, jadval, Microsoft Word munyusi.

Reja:

- 1. Hujjatlarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalari.**
- 2. Matn muharrirлari.**
- 3. MS Word matn muharririda hujjatlar yaratish**

